

vor. 821  
B 96

O B U T S S A T I



EYNSHTEYN  
BILAN  
IBLISVACHCHA

IAHON ADABIYOTI TURKUMIDAN

JAHON ADABIYOTI TURKUMIDAN

**DINO BUTSSATI**

**EYNSHTEYN BILAN  
IBLISVACHCHA**

*Hikoya va novellalar*



**ZIYO NASHR**

**Toshkent**  
2020

UO'K: 821.131.1-3

KBK 84(4Ita)

B 96

Tahrir hay'ati:

**Naim Karimov, Umarali Normatov, Erkin A'zam,  
Xurshid Do'stmuhammad, Suvon Meliyev,  
Shuhrat Sirojiddinov, Dilmurod Quronov, Nurboy  
Jabborov, Uzoq Jo'raqulov, Ulug'bek Hamdamov,  
Abdurahmon Jo'rayev**

Tarjimon:

**Uzoq JO'RAQULOV**

**Butssati, Dino**

B 96 **Eynshteyn bilan iblisvachcha.** [Matn]: hikoya va novellalar / Dino Butssati; tarjimon: U. Jo'raqulov – T.: „Ziyo nashr“ nashriyoti 2020.–144 b.

ISBN 978-9943-6340-2-2

Ushbu kitobchadan Edgar Po, Abe Kabo, Dino Butssati, Latsuko Takaxasi, Sey Kubota, Tatsudzo Isikava singari jahon nosirlarining hikoya va novellalari o'rin olgan. Asarlar mavzu doirasi nihoyatda keng. Ularda ilmparvar odam, yolg'iz odam, zahmatkash odam, kichkina odam, yuzsiz odam singari hikoya obrazlarining murakkab hayotiy vaziyatlar ichra kechirgan kechmishlariga guvoh bo'lasiz. Bunday voqealar barchamizning ko'z o'ngimizda ro'y berib turgani bois, ushbu novella va hikoya obrazlarini o'z qadrdonlaringizdek qabul qilasiz. Zotan, badiiy adabiyot bashar hayotining ko'zgusi bo'lsa, hikoya shu ko'zguning serjilva bo'laklaridir.

Bir jild ostiga jamlangan ushbu asarlar hayotning nihoyasiz savollariga javob izlayotgan har qanday o'quvchiga manzur bo'ladi degan umiddamiz.

UO'K: 821.131.1-3

KBK 84(4Ita)

ISBN 978-9943-6340-2-2

28658

© U. Jo'raqulov (tarj.)

© „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2020.

## NASHRIYOTDAN

Biz o'tgan mingyilliklar davomida jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan, uni o'zgartira olgan xalqmiz. Madaniyat, san'at, axloq, falsafa, fan va adabiyot sohasida buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ulkan meros hali-hamon dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlari tomonidan e'tirof etilib, o'rganib kelinadi. Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Burhoniddin Marg'iloniy, Ahmad Farg'oniy, Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Bahouddin Naqshband, Abullays Samarqandiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Mahmud Koshg'ariy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab singari yuzlab ajdodlarimiz borki, biz ularni hech ikkilanmasdan jahon miqyosidagi mutafakkirlar deyishga haqlimiz. Ammo bugungi avlod ularning buyuk shaxsiyati, tarixi, jahonshumul shon-shuhrati bilangina cheklanib qolmasligi lozim. Ajdodlarning madaniy, ma'rifiy, ilmiy, ijtimoiy, adabiy faoliyati, hayot tarziga doimo hushyor nigoh va ibrat ko'zi bilan qarashimiz maqsadga muvofiq. Tarixiy manbalarni sinchiklab o'rganadigan bo'lsak, mutafakkir ajdodlarimiz jahon madaniyati, ilmiy va badiiy tafakkuri bilan doimiy tarzda hamqadam, hamnafas bo'lib kelganlar. Jahonda ro'y berayotgan birorta madaniy-intellektual o'zgarish, biror badiiy tafakkur namunasi bobolarimiz nazaridan chetda qolmagan. Ajdodlarimiz ularni o'qib, uqishar ekan, o'z milliy madaniyatlarini rivojlantirish, jahon xalqlaridan ortda qolmaslikni maqsad qilganlar. Ko'plab xorijiy tillarni bilganlari, xorij mutafakkirlari yozgan asarlarni tarjima qilganlari bu o'rinda qo'l kelgan. Eng muhimi, xorij madaniyati, badiiy-ilmiy tafakkuri namunalari nisbatan shaxsiy to'xtamlari, xulosalari va tanqidiy nuqtayi nazarlari bo'lgan.

Bugun biz, mamlakatimiz Prezidenti kitobxonlik madaniyatini takomillashtirishni davlat siyosati darajasiga ko'targan bir paytda, o'tmishda yashab o'tgan buyuk ajdodlarimiz an'anasini izchil davom ettirishimiz, jahon madaniyati, san'ati, adabiyoti namunalari bilan izchil va tizimli tarzda tanishib borishimiz zarur.

Xalqimiz ijtimoiy-madaniy hayotidagi mana shunday ulkan ehtiyojni nazarda tutib „Ziyo nashr“ nashriyoti bir xayrli ishga qo'l urishga bel bog'ladi. Ya'ni joriy yildan e'tiboran jahon nasri namunalarining yuz jildligini chop etishga kirishdi.

Mazkur nashrda siz turk, rus, ingliz, italyan, fransuz, nemis, hind, xitoy, arab, eron, yapon, amerika adabiyoti namunalari bilan tanishasiz. Yuz jildlikda Ch. Dikkens, L.N.Tolstoy, A.Dyuma, N.V.Gogol, O.de Balzak, A.P.Chexov, Gi de Mopassan, J. London, G. Flober, M. Sholoxov, G.G.Markes, A. Kuprin, V. Shukshin kabi siz muhtaram o'quvchiga nisbatan tanish yozuvchilar asarlari bilan birga, S. King, U. Folkner, V. Vulf, Mo Yang, Chan May Txyun, V. Losa Mario, T. Bug'ra, Alp Dundar, Dino Butssati, R. Akutagava, I. Bunin, K. Chandar, Abdul Muis, Y.Zamyatin singari jahon xalqlari tomonidan e'tirof etilgan-u, ammo o'zbek kitobxonlarining aksariyati ilk bor uchrashayotgan yozuvchilar asarlarini o'qishga muyassar bo'lasiz.

Mazkur yuz jildlik jahon nasrining deyarli barcha janrlarini qamrab oladi. Unda siz jahon o'quvchilarini hayratga solib kelayotgan romanlar, qissalar, novella va hikoyalardan bahramandlik hissini tuyasiz.

Tarjimalar ichida Abdulla Qahhor, Zumrad, Odil Rahimiy, Qodir Mirmuhammedov, Vahob Ro'zmatov, Ozod Sharafiddinov, Ibrohim G'afurovdek mashhur tarjimonlar tomonidan o'girilgan asarlar qatorida umidli yosh tarjimonlar ijod namunalari ham o'rin olgan. Albatta, tarjima asarlar tarkibida rus tili vositasida amalga oshirilganlari ko'proq. Bunda biz tajribali, mahoratli tarjimonlar o'girmalariga bo'lgan ishonch va hurmatni bosh mezon qilib oldik. Shu bilan birga, ingliz, fransuz, nemis, turk, arab, fors tillaridan qilingan original tarjimalarning mutaxassislar tomonidan tan olingan namunalari ham qamrab olishga urindik. Eng muhimi, bu o'rinda badiiy tarjimalar sifati, milliy tilimiz jozibasini qanchalik aks ettirganiga asosiy e'tiborni qaratdik. Yuz jildlikni tayyorlash jarayonida imkon darajasida xalqimiz ma'naviyati va axloqiy o'lchamlariga muvofiq keladigan asarlarni tanlashga harakat qildik.

Ammo shuni alohida ta'kidlashni istardikki, „Jahon nasri namunalari yuz jildligi“ni chop etish nashriyotimiz uchun ilk tajriba. Shunday bo'lgach, mazkur yirik loyihaning kamchiliklari, maromiga yetmagan jihatlari bo'lishi tabiiy. Bu jarayon muttasil davom etib, tajriba va mahorat, texnik imkoniyatlar oshgan sari kamchiliklar ham bartaraf bo'la borishiga ishonamiz. Va, umid qilamizki, xayrli niyat bilan boshlayotgan ishimizdagi juz'iy kamchiliklarni aziz kitobxonlarimiz ma'zur tutadilar. Muhtaram adabiyotshunoslarimiz, adiblarimiz va adabiyot muallimlarimiz keyingi nashrlarni amalga oshirish jarayonida o'zlarining qimmatli maslahatlarini ayamaydilar.

Yaratgan Alloh ishimizni xayrli, ajr-mukofotlarga loyiq, jonajon xalqimiz uchun manfaatli qilsin!

**Dino BUTSSATI**

## **„IKAR“**

Bugun „Lojuvard uy“ shifoxonasiga operatsiya uchun yotdim. Barcha bemorlarga berilgich yolgʻon taskinlardan qatʻi nazar, aniq bilamanki, operatsiya oʻta ogʻir boʻladi. Undan biror naf olish-olmasligim ham gumon. Badbin oʻylarim haqida birovga churq etmagan boʻlsam-da, vrachlar, bolalarim, ayniqsa, xotinim koʻnglimdan nima kechayotganini sezib turishibdi. Jon kuydirib meni xotirjam qilishga urinib yotishibdi. Hazil-huzul qilishadi, koʻngil koʻtargich gaplar aytishadi, uzoq kelajakka oid rejalaridan soʻylashadi. Goʻyoki men dengiz sayohatiga chiqarmishman, Bretanga safar, Shtiriyada ov qilarmishman. Tuzalishim haqida-ku, gap ham boʻlishi mumkin emasmish. Bu masala allaqachon ijobiy hal qilingan ekan. Nari borsa oʻn kunda kasalxonadan chiqib, oʻtdek boʻlib ketarkanman.

Tabobat ilmining ravshan chirogʻi – meni tigʻ ostiga olishi lozim boʻlgan professor Koltani esa shunday dedi:

– Kasalxonamiz ostonasidan hatlab oʻtdingizmi bas, bila-  
veringki, sogʻayish sari ilk qadam qoʻyildi. Operatsiya deganlari  
men uchun pista chaqishdek bir gap, uning salbiy oqibati haqi-  
da esa oʻylamasangiz ham boʻladi. Muhimi operatsiyaga rozi  
boʻlganingiz, qolgani taʻbir joiz boʻlsa, joʻngina rasmiyatchilik,  
xolos.

Professor qartaygan boʻlsa ham, mittigina koʻzlari ajabtovur  
tiyrak. Illo, ertalab palataga kirib kelganida, koʻzimga xayol-  
chanroq, horgʻinroq koʻringandi.

Atrofimdagilar qanchalik oʻzlarini beparvo, begʻam koʻrsa-  
tishsa, koʻnglimdagi shubhalarim shuncha kuchayadi. Umrim  
yoʻllarida bunday komediyalarning koʻpini koʻrdim. Ochiq ay-

tadigan bo'lsam, bularning hammasi operatsiya stoliga yotadigan bemorga o'lim vahimasiga qarshi beriladigan afyun, xolos. Vrachlar jilmayibgina sizga hammasi yaxshi bo'lishini aytishdimi, demak, bir yomonlikni kutavering. G'aroyib sud minbari bu: undan mijozni oqlab aytilgan so'z ham qatlgga olib borishi mumkin.

*1968-yilning 15-iyuni*

Hali operatsiya kuni aniq emas. Kutilmagan sovg'alardan saqlanish uchun bemorni kamida bir hafta tekshirish lozim ekan. Buni menga professor Koltanining ozg'in qomati va tepakalligi kichik jussasiga zeb bo'lib tushgan, serg'ayrat, yosh assistenti – doktor Rilka aytdi. Nazarimda u, kimsan yozuvchiga xizmat qilayotganidan mamnunga o'xshaydi.

Hozircha televizor ko'rishimga ruxsat berishyapti. Kechki payt zakiylar ko'rsatuv – „dumaloq stol“ni qo'yishdi (ayniqsa, Rujero Orlando va professor Silvio Chekkatolar zo'r gaplarni aytishdi). Ko'rsatuv ikki yil oldin yer bilan to'qnashish xavfi haqida gazetalar rosa ko'pirtirgan „Ikar“ asteroidiga bag'ishlandi. Xabar berishlaricha, ushbu halokat 1968-yil iyun oyining ikkinchi yarmida, ya'ni yaqin kunlarda ro'y berishi kerak. Ko'rsatuvga chaqirilgan yirik astronomlar esa ushbu taxminni qat'iyon rad etishdi. Aytishdiki, asteroid nari borsa yerga olti yarim million kilometr masafadan uchib o'tishi mumkin ekan. Alqissa, kurramiz xavf-xatardan mutlaqo xoli. Ilmiy hisob-kitoblardan shubhalanish esa o'rinsiz. „Dumaloq stol“ning maqsadi ham mashhur olimlar vositasida halokat haqidagi shubha-gumon bulutlarini tarqatish, qo'rquv va sarosimani hazilga yo'yib, odamlarni tinchlantirish edi chamamda.

*1968-yilning 16-iyuni*

Kunduz soat to'rtlar. Daf'atan o'z kun tartibiga xilof ravishda, palataga doktor Rilka kirib keldi. Yuz-ko'zlari tashvishli – go'yo menga bir shum xabarni yetkizmoqchidek. Achchiq ichak misol cho'zilgan kirish so'zidan so'ng uning kasalimga mutlaqo aloqasiz nimagadir iqror bo'lmoqchiligi ayonlashdi.

Nihoyat, ichidagini aytishga jur'at topdi shekilli, kasalxonani tark etgunimga qadar – albatta, operatsiyadan keyin – uning uzoq yillardan beri yozib yurgan she'rlarini ko'rib chiqib, xolis fikr bildirishimni so'radi. So'zini tugatar ekan, go'yo ayb ish qilib qo'gandek, qizarib-bo'zarar, tinimsiz uzrxohlik qilar, ayni damda ko'zlari chaqnar edi. Shunda uning yagona armoni tabiblik shuhrati emas, ijod lazzati ekanini tushundim. Men uni, she'rlaringizni albatta diqqat-e'tibor bilan ko'rib chiqaman, deya tinchlantirdim. Bunday siylovdan keyin o'zini ancha tutib olgan Rilka she'rlaridan birini o'qishga tutindi. Adashmasam, she'r shunday boshlandi: „Ey chala to'kislik timsoli dunyo, Olam ul-akbarning bir bo'lagisan...“ Shu payt baxtinga hamshira Prenestina kirib, uni boshqa palataga yetaklab ketdi. Rilka xonani ilhom qanotida tark etar ekan, „xavotirlanma, hozir qaytaman, bu chuchuk halvodan quruq qolmaysan“, degandek menga ko'z qisib qo'ydi.

*1968-yilning 17-iyuni*

G'alati kun. Saharlab yana Rilka paydo bo'ldi. Hayajonining cheki yo'q. Men uchun ajabtovur yangilik topib kelibdi. Sirni oshkor qilishidan avval, kelishganimizdek operatsiyadan keyin emas, oldinroq she'rlarini o'qib ko'rishga va'da berishimni o'tindi. Operatsiya stolidan tirik qaytishimga shubhalandi chog'i...

Yo'q, yo'q xato o'ylabman... Aftidan gap boshqa yoqda...

U qulog'imga engashib, o'ta maxfiy sirni ochmoqchidek ohista shivirladi.

Gap shundaki, Rilka Ganadan kongressga kelgan, Mexala observatoriyasining direktori, professor Nessaim bilan so'zlashibdi. Nessaim aytganmishki, o'tgan yili Angliyada dunyodagi eng yirik observatoriyalarning direktorlari ishtirokida maxfiy bir yig'ilish o'tkazilibdi. Yig'ilishda Ikar asteroidi to'g'risidagi haqiqatni ommadan yashirish, vahimani oldini olish borasida kelishib olinibdi. Aslida asteroid 1968-yilning 19-iyunida, sahar chog'i yer kurra-si bilan aniq to'qnashar ekan. Asteroidning bir yarim kilometrlik hajmiga qaraganda halokat aniq emish. Qutilishning hech qanday iloji yo'qmish. Boshqacha aytganda, oxir zamon-da!



Tan olaman, yuragimda qayg'udan asar ham qolmadi. Ku-tilmagan yangilik kayfiyatimni ko'tarib yubordi. Ha-da, men-ku o'ladigan odamman. Ammo oxirat safariga to'dalashib chi-qishga ne yetsin. Agar yoppabaraka hamma o'sha tomonga jo'nasa, hech kim ortda qolmasa, bu endi boshqa gap – har holda bayram bo'lmasa ham, bayramcha. Ko'z ochib yumguning-cha hammasi tamom – bundan osoni bor ekanmi.

Mayli buni maydakashlik deysizmi, xudbinlikmi, baribir, bizdan keyinroq tug'ilib, go'yo ortimizda qolishi kafolatlangan-lar bilan u dunyoga jo'nash baribir yoqimli. Badanidan qo'lan-sa ter hidi anqib, g'aznasiga yana bir chaqani tashlash uchun hokimiyat zinapoyalari sari odimlayotgan, olqish va qarsaklar-ni ommadan yulib olishga shoshilayotgan, ustiga-ustak ayollar borasida misilsiz g'alabalarni ko'zlayotgan, bunday muzaffar qilmishlarning Xudo bilsin yana qanchasini rejalashtirayotgan-larga ayniqsa ajoyib saboq bo'lardi-da. O'zlarini dunyo hokimi, donolik timsoli, adolat va go'zallik posboni sanab, go'yo obi hayot topgandek, biz qariyalarga isqirt suvaraklar deya irganib ko'z tashlaydiganlarning tillari muzlab, ketlarini ari chaqqandek bo'larkan-da. Ana shunaqa, hamma bir paytning o'zida, yagona ulovda, yo'qlik girdobi tomon parvoz etadi, vassalom!

Aytish kerakki, bu vaziyatda Rilka ham o'zini yo'qotgani yo'q. Uni bor-yo'g'i halokat sodir bo'lguniga qadar she'rlarini o'qib chiqib, fikr bildirishga ulguramanmi-yo'qmi – shu tashvish-ga solarkan. Agar bahoyim ijobiy bo'lsa, armonsiz ketarmish.

Men esa yolg'izlikda, lojuvard palata g'ira-shirasi aro qich-qiraman: „Kel, ey oliyjanob asteroid, yo'lingdan adashma, halok etguvchi qudratingla bizga tomon uch. Bu – baxtiqaro sayyorani kulini ko'kka sovr!“

*1968-yilning 18-iyuni*

Bugun ertalab soat yettida meni professor Koltanining o'zi uyg'otdi.

– Xo'sh deganingizdan, – dedi u, xush kayfiyat ila qo'lini artarkan, – shunday qilib, ertaga tongda...

- Nima erta tongda?
- Nima bo‘lardi? Operatsiya – jo‘ngina rasmiyatchilik...
- Axir, doktor Rilka aytdiki, endi...
- Nima?..

Unga Nessaim haqida so‘zlab berdim. Koltani kuldi. U ham o‘sha suhbatda bor ekan. Ganalik astronom bunaqa gapni og‘ziga olmabdi. Qaytanga halokatni rad etgan hurmatli olimlarning fikrlarini yana bir bor tasdiqlabdi. Aftidan Rilka she‘rlarini menga tezroq o‘qitib olish uchun bu yolg‘onni to‘qigan.

Ushbu hangoma professorning vaqtini chog‘ qilgani ko‘rinib turardi. Lekin u dam o‘tmay xo‘mrayib oldi:

– Bilib qo‘ying azizim, yaqinda bu joyni tark etasiz: siz hali ko‘p yashaysiz. Aslida „Ikar“ning tashrifidan men... china-kamiga...

– Siz? Axir sizga nima qipti?

– E aziz do‘stim, isitmaning zo‘ridan ishlab yuribman-da... kuchim bor ekan ishlayveraman ham...bu mening yagona ovunchog‘im... Ammo juda kam qoldi, azizim, qarshingizda turgan odamning inqirozi muqarrar... – U qaddini tikladi va yana yuzida mahzun tabassum soyasi zuhur etdi. – Mayli, g‘am-qayg‘uni qo‘yaylik. Sizning xavotirlanishingiz esa o‘rinsiz, tahlil natijalari a‘lo... Xo‘sh deganingizdan, ertagacha...

*1968-yilning 19-iyuni*

Tungi soat ikki. Kasalxona sukutda. Besh soatdan so‘ng meni aravachaga solib, operatsiya stoli tomon olib ketishadi. Ehtimol, bu to‘rt mucham sog‘, hushim o‘zimda bo‘lgan so‘nggi tunimdir. Besh-olti soatdan keyin balki, bu olamda bo‘lmasman. Ehtimol bu dunyoda cho‘ltoq tana bilan qolarman. Eng yomoni – dardimning bedavoligi oshkor bo‘lar – jarrohlarni tanamni yorib ko‘rgach, hech nima qilib bo‘lmasligini anglashar, shu zahoti qayta tikib qo‘yishar. Nomard „Ikar“dan esa darak yo‘q. U bor yo‘g‘i odamlar to‘qib chiqargan va tezda unutiluvchi go‘zal bir afsona. Balkim ayni damda shitob bilan tepamdan uchib o‘tayotgandir. Ammo u men haqimda hech narsani bil-

maydi, uni qanchalik orziqib kutayotganimni xayoliga ham keltirmaydi. Professor Koltanini-ku inchinun...Orzuim „Ikar“ yerga juda yaqin masofadan o‘tib ketadi...Bizni tashlab, hududsiz Samovat aro yo‘qoladi. Oradan yillar o‘tib yana u haqda gap-so‘zlar urchib qolgan mahalda men tuproqqa do‘ngan bo‘laman, hatto unda qabrtoshim yozuvlari ham xira tortadi...

Og‘ir bemorni olib kelishdi chog‘i, eshik ortidan shoshqin qadamlar sasi keldi. Hamshiralarning ohista tovushlari, olisdan qo‘ng‘iroq jarangi eshitildi. Biroq negadir mashina g‘ovurini ilg‘amadim.

Ajabo. Birovni shoshilinch operatsiya qilishga to‘g‘ri keldimikan? Yo‘lakda ovozlar kuchaydi. Ora-chora qichqiriqlar eshilita boshladi. Go‘yo butun kasalxona oyoqqa turgandek.

Kimdir eshikni ohista ochib, xonaga bo‘yladi. Doktor Rilka ekan. Egniga xalatini ilishga-da ulgurmagan ko‘rinadi. Uni bu holatda sira ko‘rmagandim. U karavotim tomon yugurgilab keldi-da, shosha-pisha o‘rama qog‘oz to‘plamini uzatdi.

– O‘qing, yalinaman, loqal bir-ikkitasini o‘qing...sanoqli daqiqalar qoldi...

– Demak, rost ekanda? – so‘rash asnosida o‘zimni navqiron, sog‘lom sezib otilib turarkanman. – Rost ekanda?!

– Rost bo‘lganda qandoq! – qichqiradi u deraza pardasini ko‘tarishga shoshilib. – Vaqtni bekorga o‘tkazmang, iltimos qilaman, hech bo‘lmasa bittaginasini o‘qing!

Tashqari yop-yorug‘. Axir bu oy yog‘dusimasmi? Yo‘q-yo‘q, oy yog‘dusiga o‘xshamaydi. Tungi soat ikkida hamma yoq elektropayvand uskunasi yoritgandek charaqlab ketibdi. Shahar bo‘ylab hayqiriqlar, qurquv va hayajon tovushi. Minglarcha yig‘imi yoki shodon qiyqiriqligi noma‘lum tovushlar qorishib ketgan. Unga inson zoti hali eshitmagan vahimali guvullash qo‘shiladi. Bu ovoz butun samoni tutib ketadi. Men telbavor qah-qah otgancha qo‘limdagi she‘r yozilmish qog‘oz o‘ramini polga uraman. Doktor Rilka bo‘lsa, umridan sanoqli lahzalar qolganini ham unutib, palata bo‘ylab yuguradi. Sochilib ketgan varaqlarni yig‘a-yig‘a ingraydi:

– O-o! Nimalar qilyapsiz, nimalar qilyapsiz axir?!

## YUZINI YO‘QOTGAN ODAM

Ko‘pdan beri boshimda bir xomxayol aylanadi. Garchi, butun jamiyatni, davlatni, hatto politsiyani ochiq kurashga chorlashdan, ularni chuv tushirishdan iborat bunday egri niyatni amalga oshirish amri mahol bo‘lsa ham, g‘alabadan umid qilaman. Buning uchun menga chuqur o‘ylangan reja kerak bo‘ladi.

Bu ishda omadsizlik naq halokat degani. Tavakkal bilan ish bitmaydi. Shu bois o‘z rejamni qayta-qayta pishitar, yetti o‘lchab bir kesishga urinardim. Chunki faqat omad tufayli ochilmasdan qoladigan jinoyatlarga shubha bilan qarayman. Har qanday jinoyatchidan bir iz qoladi. Mening rejam ham, qanchalar pishiq-puxta bo‘lmasin, nuqsondan xoli emas. Jinoyatchining omadi – fosh bo‘lmaslik. Jinoyat qilsam-u, qo‘lga tushmasam, qoyilmaqom ish qilgan bo‘laman. Qo‘lga tushmadimmi, demak, jinoyatchi ham emasman. Jabrlanuvchi bor-u jinoyat yo‘q, jinoyat qilgan jinoyatchidan esa nom-nishon yo‘q. Ana bo‘lmasam!

Men birovning mulkiga ko‘z olaytirmoqchi emasman. Shaxsiy mulk qandaydir xudbin maqsadlar uchun to‘planadi. Egalik tuyg‘usi har qanday rahm-shafqat tushunchalarini inkor etgani bois, unga daxl qilmoqchi bo‘lgan kishi qaqshatqich zarbaga duch kelishi tayin. Bu ham yetmagandek, qilgan ishing uchun yomon qarg‘ish olasan.

Yaxshisi bankni o‘marish. Bankdagi pullar erkin qushga o‘xshaydi, ular hech kimniki emas. Agar bankdagi erkin qushlardan bir bog‘lamginasini eplay olsam, nima bo‘ladi? Hech narsa? Bor-yo‘g‘i bank hisob daftarida kichik orolcha paydo bo‘ladi, vassalom.

Shu sababdanmi, bu fikrim ko‘pam halokatli tuyulmaydi.

Yana bir jiddiy muammo bor: politsiya! Bu o‘rinda hamma-sini chapdastlik hal etadi. Gap faqat puldagina emas. Nafsilamri-ni aytganda, sakkiz yuz yenmi, yoki millionmi bank uchun hemiri. Bitta reklamasiga ham yetmaydigan arzimasa chaqa. Shunday bo‘lgach o‘zina pulni deb butun politsiya mahkamasi oyoqqa turadi, deb o‘ylamayman. Arzimagan jinoyatlar, chakana o‘g‘rilar ustida bosh qotirish, ularda ish sanalmaydi. Muhimi ulardagi g‘azab tuyg‘usini uyg‘otib yubormaslik. Men qotillik, tan jarohati yetkazish kabi jinoyatlarni og‘ir hisoblardim. Bunday holatlarda jinoyatchi yer ostiga kirib ketsa ham politsiyadan omon topmaydi. Axir hamma yirik kartalar ularning qo‘lida, jinoyat kodeksining asosiy posbonlari ham ular ekani aniq-ku! Demak, muammoning tuguni qanday qilib politsiyadan aqlliroq bo‘lish, qay yo‘l bilan ularni aro yo‘lda qoldirib ketish...

Jinoyat kodeksiga qarashga to‘g‘ri keldi. 235-moddada shunday yozilgan: „Birovning mulkiga tajovuz qilgan shaxs o‘g‘irlikda ayblanadi va o‘n yil muddatga ozodlikdan mahrum etiladi“.

Yaponiyada har kuni bunday o‘g‘irliklar son-sanoqsiz sodir bo‘ladi. Jinoyat kodeksida esa bu haqdagi bor-yo‘g‘i ikki satr yozilgan. Shu ikki satrni deb minglab o‘g‘rilar qamoqxonalarni to‘ldirib yotibdi. Alhol, mening jinoyatim bahosi qancha bo‘larkan? Har qalay, buni sud hal qiladi. Bu haqda bilmayman, bilishni ham xohlamayman. Axir rejamda qo‘lga tushish degan so‘z yo‘q-ku!

Men davlat xizmatchisiman, munsipalitetda ishlayman. Oylik ish haqqim yonchig‘imga yuq ham bo‘lmaydi-yu, ammo jamiyat tomonidan qabul qilingan summa. Narx-navo esa osmonda. Ahvol shunday bo‘lmaganida, jinoyat haqida o‘ylarimdim. Demak, mening jinoyatim jamiyat tartiblaridan og‘ir emas. Niyatim atigi to‘rt-besh qog‘oz pul. Pul degani qo‘lning kiri. Shunday. Ochko‘z milliarderga faqat nodonlargina havas qilishadi. Ammo shu bo‘lishida ham pul degan jonivor juda qaysar, o‘yinqaroq, shafqatsiz. Qashshoqqa tutqich beray demaydi, boyning ortidan quvib yuradi. Har ne bo‘lganda ham men pulni

o'ta jirkanch narsa deb bilaman. Chin so'zim, men undan jirkanaman. Maxfiy rejamda esa puldan qasos olish, qolaversa, o'z qashshoqligimga qarshi isyon ko'zda tutiladi.

Meni tashvishga soladigan yana bir muammo qutilish. Jinoyatning o'zi-ku pista chaqishdek oson ish. Favqulodda hujum, vaziyat ustidan hokimlik, vassalom. Shunday ekan, yuzdan to'qson to'qqiz holatda g'alaba naqd. Zero, vaqt, joy, narsa tanlash ixtiyori o'zingda ekan, keyin qanday yo'l tutish mas'uliyati ham o'zingda bo'ladi-da! Eng muhimi jinoyat joydan qochib qolish, izni yo'qotish.

Men yolg'iz edim, jo'yali maslahatga muhtoj edim. Ammo bu noyob narsani qarz olsa bo'ladigan kimsaning o'zi yo'q edi. Bu reja bus-butunligicha menga tegishli bo'lib, uni boshidan oxirigacha yolg'iz amalga oshirishni o'ylar edim. Yuz million yaponidan faqat bittasi, ya'ni mengina bu sirdan voqifman. Men mutloq yolg'izman. Bunday yolg'izlik menga yoqadi. Hozirgi odamlarning bir-birlari haqida bilmagan narsasi yo'q, yetti yot begonalar yurak sirlaringni talosh qilishadi: nima qilayotganing, hatto nima qila olishingacha ularga ayon. Yon-veringda faqat: „Yangi yilni o'tkaziboq Amerikaga ketmoqchimisan?“, yoki „Tiling boshqa, diling boshqa. Sen falonchini sevasan!“ degan so'zlarni eshitasan. O'z fe'llaridan g'ofil odamlar oshig'ich ravishda bir-birlarining pinjiga tiqilish bilan ovora. Odamlarda na botiniy g'am, na shaxsiy sir qoldi. Zohiring o'zingniki, botining esa begonalarlarga tegishli. Qalbingni oyoqosti qilishadi. O'z ko'ngligga o'zing ega emassan.

Mening maxfiy sirim – botinim qo'riqxonasi. U qalbimni iflos oyoqlar ostida toptalishdan asraydi. Men bu bilan o'zgalar va ko'nglim aro o'tib bo'lmas devor qo'yaman. Bu shunday sir bo'ladi, uni qabrga ham olib ketaman.

Ha, o'zgalardan pinhon sir sir emas. Butun boshli Yaponiyada biror kimsa sirimni bilmas ekan, demak, men jinoyatchi emasman!

Hamishagidek yakshanba kuni ertalab cherkovga bordim. Mari Tomson allaqachon o'sha yerda, aftidan meni izlab yurardi.

Uning yaponcha ismi Mariko, Yaponiyada tugʻilgan, ammo onasi amerikalik. Yoshi oʻttiz ikkida, mendan bir yosh katta. Beva. Uning dinga eʼtiqod qilishiga ham yolgʻizligi sababdir. Shu bilan yolgʻizlik azobidan qutilishga urinadi chamamda. Menga kelsak, gʻirt dahriyman. Cherkovga esa bitta maqsadni koʻzlab borman – yoqimtoy ayollarni koʻrish uchun. Mari bilan ham yarim yilcha oldin shu yerda tanishganmiz. Uning orzusi menga tegib olish. Mening esa bunga xohishim yoʻqroq. Sababi, Mari oʻta jiddiy, qattiqqoʻl ayol. Bundayligi meni bevaqt kelgan qishdek tashvishga soladi. U bilan uchrashganimda oʻzimni jiddiy koʻrsatishga majburman. Oqibat hammaga firib beraman: cherkovga, Xudoga, Mariga. Hozircha Mari ichimdagi bu gaplarni bilmaydi. Uning uchun bir bechora chala masihiyman, xolos.

Mari inglizchani yaxshi biladi. Xalqaro tizimda telefonistka boʻlib ishlaydi, xarob bir xonadonda yashaydi. Tiqilinch toʻshalgan olti tatamidan bittasida tunni oʻtkazadi. Har safar cherkovdan chiqishimiz hamona magazindan qora choy va pechenye xarid qilaman-da, unikiga yoʻl olaman. Ibodot bilan boshlangan kunimiz har safar muhabbat oʻyini bilan tugaydi. Bu ishimizdan Mari har safar tashvishga tushadi.

– Buning nimasi yomon? Hamma shunday qiladi. Nimasi gunoh ekan, – Marini koʻziga qarab aldayman.

– Toʻgʻriku-ya, ammo biz haligacha benikohmiz-da, – deydi Mari. – Shuning uchun...

– Biz oila qurishga kelishganmiz-ku, shuning oʻzi er-xotinmiz degani emasmi?

– Menga uylanishingizga sira ishongim kelmaydi. Rostdan uylanisizmi oʻzi? Niyatingizni tushunolmayman. Esingizdami, bir safar bolalik ayol menga toʻgʻri kelmaydi, degandingiz?

– Oʻgay bolaning oʻzi emas, uni boquvi menga toʻgʻri kelmaydi. Ammo oʻgʻlingni asrab olishgan-ku. Menimcha, masala hal.

Mari moviykoʻz, qorasoch, kulcha yuzlari yaponlarnikiga tortadi. Badani oppoq, sepkildor, ajnabiy ajdodlariga isyon qilgudek tarang.

Mari yigirma toʻrt yoshida bir amerikalikdan farzand ort-

tirgan. Jazmani uni tashlab ketgan. Shuning alamiga bolasini chaqaloqligidayoq bepusht amerikaliklar oilasiga asrandi o'g'il qilib bergan. Hozir ular Osakoga ko'chib ketishgan. Shu-shu Mari erkak zotiga ishonmaydi. Bolakayning uzoq yillar burun, taxminan yuz kunlik chaqaloq ekanida olingan surati haligacha xona devoriga osig'liq turadi. Yonida Marining bolalik surati. Chehrasidagi quvnoqlik Marining ehtirosidan darak berardi. Undagi ichki xotirjamlik bilan tashqi holati o'rtasida qandaydir ziddiyat borgan o'xshaydi. Go'yo Marining ichida ikki odam yashaydi.

Men Marining botin sirlariga ega chiqishga urinib yuribman. Jilla qursa, o'rtadagi devorni olib tashlash kerak-ku! Devor ortida esa ehtiroslar balqigan qalb yastanib yotadi. Unga ega bo'lish – lazzatga yo'l ochish degani. Marining tomirlarida amerika ayolining qaynoq qoni oqadi. Bu tana ayollik shavqi bilan limmo-lim, ona bo'lish ishtiyoqida yonadi. Qiziq, tanasidan yog'ilib turgan ehtiros shiddatini Mari qanday jilovlar ekan? Hoynahoy, buni o'zi ham bilmasa kerak.

Mari choy qo'yar ekan, uyalinqirab dedi:

– Yo'q, endi bunday davom etishi mumkin emas.

Yana nikohga shama qilyapti.

– Seni tushunaman. Biroz kut. Yaqinda bir tarjima asarini bitiraman. Kitob nashr etilsa, taxminimcha, yarim million yen atrofida haq olaman. Qirq ming yenlarga shinamgina bir boshpana topamiz, o'shanda orzularing ushaladi. Hozircha buning iloji yo'q.

– Qashshoqlikdan qo'rqmayman, ishim yaxshi, bir amallab kun ko'ramiz.

– Men esa qashshoq yashashni xohlamayman. Xotin kishiga boqimanda bo'lish esa, men uchun o'lim bilan barobar.

Bu so'zlarni, har ehtimolga qarshi qizishib gapiraman.

– Kitobingiz qachon chiqadi o'zi?

– Tarjimani tugatishim hamono nashriyot bilan, so'ng bosmaxona bilan shartnoma tuzaman. Besh oylarda hal bo'lsa kerak.

– Voy-bo'! Buncha kutishga sabrim yetmaydi.



To'g'risi, Marining qo'ynini puch yong'oqqa to'ldirar edim. Aslida hech qanday tarjima yo'q. Axir yolg'onning ham chegarasi bor-ku! Agar yolg'onlarim fosh bo'lsa, Mari meni aniq tashlab ketadi. U do'q-po'pisa bilan yo'lga kiradigan jo'n ayollardan emas. Gapning o'g'ilbolasini aytсам, biz allaqachon ajrashishimiz kerak edi. Zotan, jinoyatchining qismatiga yolg'izlik bitilgan.

Alqissa, meni haligacha qutilish chorasi o'ylantirardi. Bu ishda avtomobildan foydalanishni aqlsizlik sanardim. Albatta, jinoyat sodir etilgan joydan quyon bo'lish uchun tezlik lozim. Lekin avtomobil degani o'ta beso'naqay narsa, ko'zga baloday tashlanib turadi. Qolaversa, u bilan qayoqqa qochasan? Katta ko'chagami? Yoki odam kamroq shosse bo'ylab g'izillaysanmi? Bunday qilsam, naq ari uyasiga bosh suqqan bo'laman. Ustiga-ustak bunday yo'llarda harakatni ta'qiqlovchi xilma-xil belgilar to'lib ketgan. Mashina motori o't olgan holda seni kutib tursa-ku ko'z ochib yumguncha quyon bo'lish mumkin, ammo bunda yordamchisiz ishing bitmaydi. Qolaversa, ishni bitirib, mashinani tashlab ketishga to'g'ri kelsa, politsiyaga dastak topiladi.

O'ylay-o'ylay, eng yaxshisi moped<sup>1</sup>, degan qarorga keldim. Avvalo, moped birovning e'tiborini tortar darajada beso'naqay emas, ikkinchidan, o'ta tig'iz, hatto qarama-qarshi harakat bo'lgan yo'llarda ham g'izillab uchaveradi va nihoyat mopedni istagan ariq yoki tashlandiq hovuzga cho'ktirib yuborsa bo'ladi. Shunda politsiyasi burnini tishlab qoladi. To'g'ri, mopedning eng ojiz tomoni joyidan tezlik olib keta olmasligida. O't oldirib, pedaliga oyoq qo'yib yurgizguncha, qimmatli vaqt boy beriladi. Yo'q bo'lmaydi, jinoyat joyidan shamol tezligida daf bo'lish lozim. Bu ishda hammasini sekundlar hal qiladi. Tekis joyda mopedning bunday tezlik olishi gumon... Agar bank tepa joyda bo'lsa-yu, nishab tomonga qarab qochsamchi? Shunda mopedga o'tiraman-u, pastlikka qarab suraman, yo'l-yo'lakay motorni qo'shib, tezlikni oshiraman, o'zimni qushdek uchayotgan ma-

---

<sup>1</sup>*Moped* – matorli velosaped (tarj.).

shinalar oqimiga urib, ko'zdan yo'qolaman. Demak, bosh vazifa balandlikda joylashgan bank binosini izlash...

Uzoq izlanishlardan so'ng ko'ngildagidek joyni topishga muvaffaq bo'ldim. Bu ulkan, yangi, hatto chiroyli bino edi. Muddaodagidek mijozlari ham siyrak ekan. Qo'riqchi degani esa bor-yo'g'i qalin ko'zoynak taqib olgan bir qariya.

Shuncha yelib yugurishlardan keyin ham tashvishlarim oshib-toshib yotar, xavf-xatar hanuz zarracha kamaymagan, shu bois barcha ehtiyot choralarini oldindan ko'rib qo'yishiim lozim edi. Kichik xatoni deb politsiya qo'liga tushish, jinoyatchi degan tavqi la'natni bo'yinga osib olish hech gap emas-da.

Halol mehnatim orqasida bir nimalik bo'lishimga ko'zim yetmasdi. Hayot meni na boylik, na iste'dod, na tuzukroq diplom bilan siylagan. Shunday, men o'zimni hayotning taniq bandalari qatoriga qo'sholmayman. Yana yigirma yil, hatto umr bo'yi halol mehnat qilganimda ham „qashshoq“ degan tamg'adan qutula olmayman. Farovon hayot kechirishimga zarracha umidim bo'lganida ham, Mari Tomsonga uylangan bo'lardim. Afsuski, mening maoshim bilan bola-chaqa boqib bo'lmaydi. Ey Xudo, halol turmush kechirishdan qanday ma'ni bo'lsinki, u seni umidsizlik tuzog'iga tushirsa?!

Yo'q, men uchun porloq kelajak eshiklari berk. Mening misolim – qafasdagi yirtqich. Farovonlik, lazzat, go'zallik – men ga daxldor tushunchalar emas. Men ular haqida o'ylaganim on, qafasim to'riga o'zimni urib, irillab qo'yishim mumkin, xolos. Shunday ekan, sabr qilishda qanday mantiq bor? Meni shu kuyga solgan jamiyat qasosgagina loyiq. Bu jamiyatning biri kam, ammo nimasi kam, o'zim ham bilmayman. Bilmayman-u ammo kelajagim so'qmoqlarida zulmat va rutubat hidlari anqiyotganini his qilaman. Shuning uchun ham mana shu odamlarni, mana shu jamiyatni dog'da qoldirmoqchiman. Ammo men – yolg'iz bechoraning qo'limdan nima kelarkin?

Ayni holatimda tavakkal qilmoq g'alabani boy bermoq bo'ladi, deb o'yladim.

Bir marta politsiyachilar tomonidan „shayton“ laqabli o‘t qo‘yar qo‘lga olinganini eshitganim bor. So‘roq qilishganda u: „Hamma meni bosib o‘tdi, shunda hammasiga o‘t qo‘yishga qaror qildim“, degan ekan. Aqliga bino qo‘ygan ba‘zi odamlar uni shunchaki tentakka chiqarishdi. Insof bilan qaraganda, bu odam – qashshoqlik, tahqir, qadrsizlik oyoqlari ezib tashlagan odam. Bunday odamda yashashga ishtiyoq bo‘lmaydi, umidsizlik umidiga aylanadi. Agar u dunyoga o‘t qo‘yishga jazm etmaganida, joniga qasd qilar edi. Aslida bu yo‘l ham xudkushlik sari eltuvchi yo‘lning serg‘alvaroq so‘qmog‘i, xolos.

Menga qolsa, haligi „shayton“ning ruhiy holatini juda yaxshi tushunaman. Lekin unga ergashmayman. Men undan ko‘ra aqlliroq yo‘l tutaman. U o‘t qo‘yish bilan hech vaqoga erishmaydi. Mening jinoyatim esa foydadan xoli emas. Ammo unga ham o‘lim xavfi mutloq yot emas. Demak, men ham bu yo‘lda jonini garovga qo‘ygan bir odamman.

Jinoyat yo‘lidagi xato o‘lim tomon bir qadam emasmi aslida? Omadsizlikka yo‘liqsam, o‘zimni o‘ldirishga qaror qilganim rost-ku! Ammo sabil jonimga hech ham achinmayman.

To‘rt yil burun akam joniga qasd qildi. U maktab o‘qituvchisi edi. Nega bunday qilganini haligacha bilmaymiz. Menimcha, u ham o‘zini xo‘rlanganlar safida ko‘rgan, yorqin kelajak haqidagi umidlari puchga chiqqan. Sabr-toqatdan lof uruvchi cho‘pchaklarga ishonmay qo‘ygan. Agar sabablar ma‘lum, maqsad aniq bo‘lsa-ku, tishni-tishga qo‘yib chidash mumkin. Ammo buning aksi bo‘lsachi? Unda yagona chora qoladi: shafqatsiz qasos yoki xudkushlik.

Dushanba kuni tushdan so‘ng boshliqdan ruxsat olib, munitsipalitet boshqarmasiga yo‘l oldim. Sitamati tumanining eng ovloq qismi hisoblanmish bu joydan moped o‘g‘irlamoqchi edim. Bu yerda ishlaydigan aksar xizmatchilar shu transport vositasidan foydalanishlari menga ma‘lum edi. Ba‘zi olifta – fason o‘spirinlar arzimagan ish bahonasida munitsipalitetga yo‘l olishar ekan, odatda o‘z ulovlarini shundoq ko‘cha yuzida, ochiq qoldirishadi.

Xullas, qulay payt kelishini kuta boshladim. Tashqi ko‘ri-

nishimni biroz o'zgartirib olgandim: egnimda jemper, oyog'imda yengil rezina shippak, ko'zimda qora ko'zoynak.

Oradan bir soat vaqt o'tmay, moped qo'limda edi. Ana buni ish desa bo'ladi. O'zi chakana o'g'irlikdan osoni yo'q-da. Zero, dunyoning barcha shahar va qishloqlarida odamlar faqat bir-birlarinikini o'marish bilan ovora. Inson tabiatidagi ochko'zlik ketmas ekan, bu narsa yo'qolmaydi. Xususiy mulk bor ekan, o'g'irlik ham bo'laveradi. O'z-o'zidan ma'lumki, xususiy mulk tuyg'usi o'tkinchi narsa. Narsa baribir narsaligicha qoladi, insonga qoni qo'shilmaydi. Narsaning mohiyati o'z egasidan qochishida, uning bo'lishi shu o'zi. Xususiy mulk mutloq egasini degan fikr aldamchi, odamlar esa aksincha o'ylaydilar.

Shuning uchun ham men o'g'irlangan mopedda xuddi o'ziminikidek sayr qilib yurardim. Faqat bu safar egalik huquqi noqonuniy yo'l bilan menga o'tgan edi. Agar meni politsiya tutib olsa, mopedni qaytarishga to'g'ri keladi, tuta olmasa, moped meniki, vassalom.

Mopedni qo'yish uchun uyimdan ancha olis joyni tanladim, ehtiyotkorlik yaxshi-da.

– Bekajon, bir kechaga mopedimni qo'yishga joy topiladimi? – o'rta yoshli xotinga murojaat qildim.

– Marhamat, – do'stona javob berdi ayol va qo'limga saqlanish raqamini tutqazdi.

Ertasi kuni barvaqt xizmatga bordim-da, boshlig'imning qo'lga ishdan bo'shah haqidagi arizani tutqazdim. Arizada tezda tug'ilgan yurtimga jo'nashim kerakligini bahona qilib ko'rsatgan edim. Munsipalitetda qiladigan ishim – fuqarolik holatiga doir bayonnomalarni o'rganish o'lardek jonimga tekkan edi. Shu vajdan, tuzib yurgan rejam amalga oshib qolsa, yaxshiroq ish topishni ham o'ylardim.

– Narsalarim taxt, bugun kechqurun yo'lga tushmoqchiman, – dedim boshliqqa.

– Insof qiling! Bo'shahingiz haqida buyruq tayyorlash, hisob-kitob qilish uchun ancha vaqt ketadi. Tushga borib tayyor bo'lsa ham katta gap.

Tushgacha kutib, hisob-kitoblarni to'g'riladim va mopedni olish uchun jo'nadim. Yo'l ostidagi qabristondan mushtdek keladigan ikkita toshni cho'ntagimga joyladim. Endi men mutloq tayyor edim. Bank 15:00 da bekiladi. 14:25 da mening mopedim tepalikda joylashgan tanish bino yonida to'xtadi. Mopedni bank eshigi oldida qoldirdim.

Ichkari yorug' va toza. Pul muomalasi amalga oshiriladigan joy baquvvat panjaralar bilan ihotalangan. Uchta yosh ayol shig'illatib pul sanash, bog'lamlash bilan band.

Navbatini kutayotgan mijoz qiyofasida deraza oldidagi kursida o'tirib, vaziyatni o'rgana boshladim. O'ng qo'lim cho'ntagimdagi toshga chippa yopishgan edi...

Mijozlardan biri pulini olib, tuynukdan uzoqlashganini, qo'riqchining esa boshqa tomonga yurganini ko'rdim-u kassir ayol orqasidagi deraza tomonga burildim va cho'ntagimdagi toshni oynaga qarab otdim. Oyna jaranglab sindi, shisha siniqlari atrofga sochilib ketdi. Xuddi shu lahzada kassa tuynugidan qo'limni tiqdim-da, katta pul bog'lamini oldim. Eshik tomon yugurar ekanman, yo'l-yo'lakay haligi pulni qo'ynimga tiqishga ulgurdim. Tashqarida mopedim shay turardi. Sakrab egarga mindim-u moped rulini tikka nishablik tomon burdim. Mashinalar oqimiga qo'shilib ucha ketdim. Keyin chapga, tor yo'lakka, biroz yurib o'ngga burildim. Katta doira yasab, qaragamki, yana o'sha tepalikka kelib qolibman. Shunda politsiya e'tiborini tortmaslik uchun tezlikni kamaytirdim va ustalik bilan shahardan uzoqlashdim. Hozircha hammasi rejadagidek edi. Yigirma kilometrcha yurgandan keyin yo'l yoqasidagi mahobatli ibodatxonaga ko'zim tushdi, uning orqasiga o'tib mopedning raqam-belgisini yechib oldim, rulda qolish ehtimoli bo'lgan barmoq izlarini yaxshilab artdim va uni tashlandiq hovuz suviga qarab itarib yubordim. Suv yuziga qalqib chiqayotgan yoqilg'i dog'lariga qarab turib, cho'ntagimdan o'ljani chiqardim. Sanab ko'rsam, o'n mingtalik pul bilan sakkiz yuz ming yen chiqdi.

Tun yaqinlashmoqda edi. Savqitabiiy bilan o'z uyimga

qaytish xatarli ekanini his qildim. Marinikiga borishdan o'zga choram yo'q edi. Unga yaqinda uylanishimni aytgan edim, tunab qolishga o'ynab-kulib rozilik bildirdi. Bu kecha Mari bilan o'tkazgan tunlarim ichida eng ehtiroslisi bo'ldi. Bu tun birga kechirgan so'nggi tunimizga o'xshardi. Albatta, Mariga sirimni oshkor etmadim. Jinoyatning sir saqlanishi erkinlik garovi-da. Og'zi bo'shlik oqibati esa ma'lum. Politsiya qidirilayotgan jinoyatchilarni ko'pincha yo qarindoshlari yoki tanishlari uyidan tutib olishlari bekorga emas. Bu kecha Mari uchun ham saodatli kecha edi. Biz o'ylaganimizdek, baxtli bo'lish uchun ko'p narsa kerak emas aslida. Hatto uni aldov va masxarabozliklar ichida ham his qilsa bo'ladi. Bu tun ilk bor yolg'izlik iskanjasidagi Mariga achindim.

Mari men uyg'onganimga ham yelkamga bosh qo'yganча beozor uxlar edi. U suyanadigan odamini topganidan xotirjamga o'xshardi. Mening esa ko'z oldimdan kunduzgi voqealar surati tizilib o'tardi.

Ha, men pul o'g'irladim. Bankning pullarini. Bu – ko'pning puli. Hatto kimlarniki ekanini ham aniqlash mumkin. Bank bu pullar uchun vaqtinchalik boshpana bo'lgan. Qachondir ular o'z egalariga qaytadi. Mening jinoyatimdan kim jabr ko'radi, bu ham noma'lum. Bu vaziyatda bank bir vositachi, xolos.

Egalik tushunchasi mavhumotdan boshqa narsa emas. Mulkning mohiyati qo'ldan qo'lga o'tishida. A ehtiyojsizlik qildimi mulk Bga o'tadi, V unga o'rganib ulgurmasidan, qarabsizki, mulk degan nozanin Sning qo'ynida. Bu jarayon abadiy va mening ishim ham shu jarayonning tarkibiy bir qismi.

Albatta, bu jarayonning muayyan qonun-qoidalari bor: oldi-sotdi, meros qilib olish, tortib olish... Mulk fohisha ayolga o'xshab qo'lma-qo'l yuradi. Barcha qo'llar boshqa biror jonivorning emas, odamlarniki. Demak, mening qilmishim ham tabiiy, unda g'ayrioddiy hech narsa yo'q.

Noqonuniy pul muomalasiga, birinchi navbatda, o'g'irlik va talonchilik kiradi. Qonun bunday oldi-berdini taqiqlaydi. Lekin

hech bir qonun pul fe'l-atvoridagi beqarorlikni o'zgartira olmaydi. Demak, o'g'irlik va talonchilik ham pul muomalasidagi mo'tadillikka zid kelmaydi.

Ha, men o'g'irlik qildim. Pul cho'ntagimda. Ko'p o'tmay men uni sarflab bitiraman. Pul yo'qoladi, pul bilan qo'shilib men o'g'irlagan qiymat ham so'nadi. Yakkash jinoyat degan so'z qoladi. Jinoyatim o'tmishga aylanadi. Bundan chiqadiki, meni o'tgan bir ishni deb sud qilishadi, ehtimoliy gunohlarim ustidan hukm o'qiladi.

O'g'irlik deganda nima tushuniladi o'zi? Pul degani qo'ldan qo'lga o'tadigan arzimas bir matoh bo'lgandan keyin, mening qilmishim bois pul aylanish tartibi ozgina buziladi, xolos. Shu arzimas tartibni deb jazolashadimi endi? Ma'zur tutasiz-u, bu tartibda qachon mantiq bo'lgan o'zi? Pora yemoq, pora bermoq, qonunga zid savdo-sotiqdar, o'zgaralar merosiga ega chiqish, qonunsiz o'zlashtirish...

Marining oyog'i oyoqlarim ustida yotardi. Naqadar qaynoq oyoqlar. U Ayol badani oldida biz erkaklar tanasi qanchalar qo'pol va beo'xshov.

Tong otdi. Mari pardozi-andozini qilib ishiga jo'nadi. Uning kulgan yuzlarida horg'inlik izlari sezilardi.

Mari ketishi bilan ko'chaga yo'l oldim. Shoshadigan joyim yo'q, bugundan erkin qushman. Ammo bekorchilik ozodlik degani emas ekan. Bekorchilikdan ko'ngilimni g'ariblik hissi chulg'ab oldi. Demak, ozodlik – kamdan kam his qilinadigan narsa va u albatta qandaydir serma'no faoliyat bilan qo'shilsagina ma'no kasb etadi.

Uyimga qaytdim. Uyim meni xo'mrayibgina kutib oldi. Buning boisi bir sutka yolg'iz tashlab ketganim emas shekilli. Mening jinoyatimdan faqat shu uygina voqif. U mendan ranjiganga o'xshardi...

Joyimga yotib, gazeta varaqlay boshladim. Yozuvlarga ko'z yugurtirayotib, biror gap bormikan, deb o'yladim. Va butun boshli maqolani ko'rib, sapchib ketdim. So'z men haqimda ketayotganiga ishongim kelmasdi.

„Bankdagi talonchilik“ – yirik salavha shunday bong urardi. Yonida bank binosining surati. Bu qanday nodonlik o‘zi! Qanaqa talonchilik! Bor-yo‘g‘i tuynukka qo‘l tiqdim, arzimagan to‘rt-besh yenga shuncha vahimami? O‘pkasi yo‘q gazetchilarga gap topilibdi. Yo‘q, bunaqasi ketmaydi. Meni ahmoq qilishlariga yo‘l qo‘ymayman!

236-moddada shunday yozilgan: „Zo‘ravonlik yoki qo‘rqitish yo‘li bilan o‘zganing mulkini o‘zlashtirgan shaxs talonchilikda ayblanadi va besh yilgacha og‘ir mehnat tartibdagi jazoga tortiladi“. Axir men hech kimga zo‘ravonlik qilganim yo‘q-ku, deraza oynasiga tosh otib, moddiy zarar yetkazganimni aytmasa, boshqa nima qildim. Zo‘ravonlik ostida birovga nisbatan kuch ishlatish ko‘zda tutiladi. Men bo‘lsam, hatto qo‘riqchini turtganim yo‘q. Bu yolg‘onchi, meni zo‘ravonga chiqargan jurnalistga qarshi norozilik bildirishni istar edim. Ammo qanday qilib norozilik bildiraman? Har holda menga berilajak jazo kamida besh yil katorga rejimi. Tez qochish kerak. Bu uyda bir daqiqa qolish ham xavfli. Maqolada aytilishicha, o‘tkinchilar moped mingan „vaxshiy“ni ko‘rishgan. Mopedning raqami aniqlangan 3448, uning haqiqiy egasi qidiruv ishiga jalb qilingan. Xayriyatki, hozircha moped davlat raqamisiz sassiq hovuz ostida orom olmoqda, rulida barmoq izlari ham yo‘q.

„Jinoyatchining bo‘yi 165 sm, chorpaxil, biroz bukchayganroq, qora ko‘z oynak taqib olgan, egnida mallarang jemper, ko‘rinishidan ishchiga o‘xshaydi...“

Aftidan, men qochib qutuldim... Lekin, turli ko‘ngilsizliklardan saqlanish uchun, tezda boshqa joyga ko‘chib o‘tdim. Ismimni Xarado Ken‘iti deb o‘zgartirdim. Mening haqiqiy ismi sharifim – Murato Sindzi. Ammo bugundan boshlab Yaponiyada Murato ismli shaxs yo‘q.

Demak men, o‘z-o‘zimdand, noma‘lum tarafga qarab qochyapman. Men endi hech kimdan maktub kutmayman. Birov menga qo‘ng‘iroq ham qilmaydi. Butun Yaponiyada mening na biror do‘stim, na tanishim bor. Bundan boshqa yo‘l yo‘q. Omon qolishimning birdan bir chorasi shu.



Tun cho'kdi. Ko'chaga chiqdim va avtomat telefonda Mariga qo'ng'iroq qildim.

– Bu men, Muratoman.

Bu mening so'nggi bor o'z nomimdan so'ylashim edi. Meni tutib olishmas ekan, umrimning oxirigacha Xarado bo'lib qolaman, qaytib hech qachon Murato bo'la olmayman, deb o'yladim.

– Vokzaldan qo'ng'iroq qilyapman.

– Biron yoqqa ketyapsizmi?

– Shoshilinch yurtimga jo'nayapman. Xonamni topshirdim, narsalarimni ham allaqachon jo'natishga ulgurdim.

– Nima gap o'zi? Qaytib kelasizmi, yo'qmi?

– Qaytishim gumon. Shuning uchun sen bilan xayirlashay dedim.

– Qiziq. Bundan chiqdi menga uylanish haqidagi so'zlaringiz yolg'on ekan-da?!

– Yo'q, yo'q, yolg'oning nimasi. Vaziyat shunaqa bo'p qoldi deyapman-ku!

– Yolg'on, – yig'lamsirab dedi Mari. – Hozir vokzaldaman, deganingiz ham yolg'on. Nega bo'lmasa poyezdlar shovqini, e'lon tovushlari eshitilmayapti?.. Balki, menikiga birrov kirib o'tarsiz?

– Ilojim yo'q, poyezd ketib qoladi.

– Shundaymi? Tushunaman... Qachonlardir shunday bo'lishini bilardim. Meni boplab laqillatdingiz, bundan shodsiz. Nima ham derdim, alvido. So'nggi o'tinchim, endi mening nomimni unuting.

– Yaxshi. Men tushundim.

– Menga qarang, biror yomon ish qilib qo'ymadingizmi ish-qilib?

Men jim edim. Eh, bu ayol qalbi, ayol qalbi! Qiziq holatda qoldim. Bankda qilgan ishimga guvoh bo'lgan hozirgacha faqat o'zim edim. Endi, o'ylashimcha, guvohlar soni ikkita bo'ldi. Ruhim tushib ketdi. Telefon budkasidan chiqdim-da, oshxonaga kirib ustiga o'tkir dorivor solingan guruchli ovqat buyurtirdim. Stolda kechki gazeta turgan ekan. Endi men haqimda yozishlari dargumon, o'yladim men va beixtiyor yangiliklar sahifasiga

ko'z yugutirdim. Xato o'ylabman. Men haqimda yangi xabar. Bu safar kassir ayol ko'rsatmasini chop etishibdi.

„Shundoq ortimizdagi deraza oynasi jaranglab sindi. Ixtiyorsiz ravishda burilib qaradim. Lahza ichida jinoyatchi tynukdan qo'lini tiqdi-yu, stolimda turgan bir bog'lam pulni olib qochdi. Yuz-ko'zini yaxshi eslolmayman. Ko'zida qora ko'zoynak bor edi. Burnining chap tomonida kattagina xolga ko'zim tushdi“.

O'zimni yomon sezdim. Haqiqatan ham chap yuzimda katta xolim bor. Endi qo'lga tushdim.

Bu tun birinchi marta yolg'izligimga achindim. Men pulning qudrati oldida arziyas bir zarra ekanimni endi angladim. Axir pulning ortida davlatning o'zi, qolaversa, qonun turibdi. Men shunday dahshatli kuchga qarshi bordim. Undan qutulishning o'zi bo'lmaydi endi!

Men ismimni, joyimni o'zgartirdim. Faqat qiyofam oldingidek. Ishxonamdagilar meni qiyinchiliksiz taniydi. Mariga esa hammasi kunday ravshan. Mana mening pishiq-puxta rejaming ahvoli. Kassir ayol qandaydir ko'z qiri bilan yuzimdagi xolni ilg'ashga ulguribdimi, vaziyat o'ta halokatli.

Endi elektirichkada yura olmayman, yuzlab odamlar yuzimdagi xolga shubha bilan qarashadi. Xuddi shu vajdan avtobusda yurishim ham mumkin emas. Hatto kunduz kuni ko'chaga chiqolmayman. Boshi berk ko'chaga kirib qoldim. Ovchilar qurshovidagi yolg'iz bo'riga o'xshayman. Chin ma'nodagi yolg'izlik o'ylaganimdan ko'ra dahshatliroq ekan. Men yolg'izlikni o'yin deb o'ylabman. Xayolimda yolg'izlik yuki qaddimni egib tashlaganga o'xshardi. Qo'rquv vujudimni shunchalik o'rab olganki, orqaga qarashga qo'rqaman. Har lahza ortimdan kimdir izma-iz kelayotganini, qandaydir nigohlar yelkamga qadalayotganini his qilaman. Hazilakam ahvolda emasman. Ayni paytda menga qarshi aniq dalilning o'zi yo'qligini ham bilaman. Chap yuzida xoli bo'lgan kishilar son mingta.

Ko'chaga chiqib, taksi ushladim. Haydovchi keksaroq kishi ekan. Orqa o'rindiqning yon oynaga ko'rinmaydigan joyini

tanlab o'tirdim. Qo'lga tushadigan bo'lsam, faqat shu jin ulgur xolni deb tushaman, shu xoin xolni deb. Shu xolni deb xavf-xatarga duchor bo'ldim, shu xolni deb oyog'i kuygan tovuq holiga tushib o'tiribman.

Taksi haqqini to'lab, shifoxonaga kirdim. Dori-darmonlarning o'tkir hididan boshim aylandi. Qabulxona tuynigidan bir ayolning yuzi ko'rindi.

– Men plastik operatsiya qildirmoqchi edim.

– Qayeringizni? – shunday der ekan, ayol menga allatovr, go'yo aynan mening tashrifimni intizor kutgandek sinchkov tikildi. Qiziq. Yoki politsiya bularni ogohlantirishga ulgurganmikan...

– Qayerimni bo'lardi... Ko'zim va burnimni.

Qabulxona devorida o'nlab basharalarning operatsiyagacha va undan keyingi holatlarini aks ettiruvchi rasmlar iliingan edi. O'zgarishni qarang! Bunga qaraganda odamlar o'z hayotlari davomida so'zsiz ikki qiyofa sohibi bo'lishlari mumkin ekan-da. Agar ota-onangdan meros qiyofa senga yoqmasa, marhamat, jarroh stoliga yot-da, boshqa yuzni ol...

Loaqa, unda joniga tekkan yuzini o'zgartirish imkoni bor ekan, odamzot bekorga shuncha yashamabdi-da. Qiziq, hamma yaponlar birdan qiyofalarini o'zgartirish fikriga tushib qolishsa-ya, qarindosh-urug', tanish-bilish masalasi nima bo'lar ekan? Erlar xotinlarni adashtirib qo'yar, ota-onalar farzandlarini taniyolmas edi. Daf'atan, biror-bir qiyofa hammaga yotib, modaga aylanib ketsachi, yon-atrofdan faqat bir xil qiyofali ayollarni uchratarmidik. Ana unda ko'rardik yakka nikohga doir qoidalarining holini. Ahloq qoidalarining hammasiga biryo'la tukurarmidik.

Vrach o'rta yoshli, qotmadan kelgan kishi ekan. Men undan qisq ko'zlarimni kengaytirishni, qirrador burnimni yassi shaklga keltirib berishini iltimos qildim.

– Bir hafta kasalxonada yotishingizga to'g'ri keladi.

– Mayli, qancha yot desangiz yotaveraman.

Men la'nati xolim haqida hech nima demadim. Bu yerga aynan u sabab kelganimni sezdirgim kelmadi. Yaxshisi, operatsiya paytida xolimni ham olib tashlashlariga ishora qilaman.

Shunday qilib, kasalxonadaman. Politsiya bu yerda ekanligimni qayoqdan bilsin? Bir haftani eson-omon o'tkazsam bo'ldi. Politsiya zotiga tupuraman.

Shu kechani o'zidayoq meni operatsiya qilishdi. Tishimni tishimga qo'yib og'riqqa chidadim. Ichimda, hammasi ko'n-gildagidek bo'lishini tilar edim. Axir men butun insoniyatni aldamoqchiman, vrach esa mening sherigim.

– Xolingizni olib tashlayverayinmi, nima deysiz? – so'radi vrach. – Yoki qoldirganim yaxshimi...

– Xolnimi... Olib tashlagan yaxshiroqmi deyman, – tepamda engashib turgan jarrohga yotgan joyimdan javob qildim.

– Xolingizni kesib tashlasak, yuzingizda biron dog' qolmaydi. Ammo-lokigin juda ko'zga tashlanadigan xolda o'ziyam.

Nafasim ichimga tushib ketdi. U jinoyatim haqida biladigan-ga o'xshaydi-ku. Ammo meni politsiyaga topshirishdan vrachga nima naf, qaytanga operatsiyasi, yotgan kunlarim hisobiga mendan mo'maygina foyda oladi

„Yuzingizda biron dog' qolmaydi?..“ deganda u nimani nazarda tutdi. Menimcha, bu bilan endi ko'cha-kuyda bemalol yuraverasan, demoqchi bo'ldi. „Juda ko'zga tashlanadigan xolda o'ziyam“ so'zlarini „bu xolni ko'tarib yurishda xayr yo'q“, deb tushunmoq kerak chamasi. Taqdirim uning qo'lida edi. Men barchasiga qo'l siltab, ixtiyorimni jarrohga topshirdim. Umu-man olganda, operatsiyaning o'ziyoq menga bir jazo. Operatsiya tugashi bilan vrachni o'ldirish, kasalxonaga esa o't qo'yish eng to'g'ri ish bo'lar edi. Shunda yopig'lik qozon yopig'ligicha qolaverardi.

Ko'zlarimni doka bilan bog'lab, ikkinchi qavatdagi palataga o'tkazishdi. Bir necha kun kunduz bilan tunning farqiga bormay yotdim.

Endi yuz ko'rinishim qanday bo'larkan? Meni vahima bosar edi. Lekin, behuda qayg'udan nima naf? Odam uchun qiyofa shunchalar muhimmi? Axir qiyofa degani mutloq tasodifdan boshqa narsa emas-ku? Yuzning go'zal yoki xunukligi nima degani o'zi?! Yetar-e, befoyda mulohazani bas qilish kerak!

Odamlar o'zaro uch jihatdan farqlanadi: jins, ism, qiyofa. Jins masalasi qiyin. Yaxshisi bu masalani ochiq qoldirgan ma'kul. Ismim bilan qiyofamni esa o'zgartirishga ulgurdim. Demak, bundan keyin mening faqat erkakligimgina qoldi, boshqasi yo'q. Endi men haqimda aniq ma'lumotga ega bo'lish uchun tibbiyot ko'magiga tayanish; qon gruppamni aniqlash, tanam tuzilishini o'rganish, tishlarimni, boshimdagi bolalikdan qolgan belgilarni tekshirish va, nihoyat, plastik operatsiya sirini ochishga to'g'ri keladi.

Xullas, yangi, boshqacha hayot boshlashim kerak. Agar kasalxona vrachi chaqib bermasa, endi ozodman. Har holda tug'ma dog'larini oldirib tashlaydigan odamdan ko'pi yo'q. Vrachning aytishicha, bu odatiy operatsiyalardan biri, xolos. Demak men, birato'la ham jinoyatdan, ham o'zimdan qutildim. Men bo'lajak Xarado Ken'itiman, boshqa Murato Sindzi emasman va Xarado ekanman, Muratoga sira aloqam yo'q.

Ikkinchi, yangi hayotim boshlanmoqda. Endi yangi bir ish qidirish lozim bo'ladi. Hamma gap shunda...

Xarado ismli odamning tarjimayi holi qanaqa o'zi? Demak, xizmat qog'ozini ham yolg'on ma'lumot bilan to'ldirishimga to'g'ri kelarkan-da. Agar ishga kirmoqchi bo'lganim korxonaga tug'ilganlik haqida guvohnomamni so'rab qolsa-chi, u ham yasama bo'ladimi? Chunki mening na tug'ilganlik haqida guvohnomam, na xizmat kartochkam, na ota-onam va na vatanim bor. Qay go'rdan kelgani tayinsiz bir odamman. Mana gap qayoqqa qarab boryapti...

Axir hamma narsa birdan hal bo'lmaydi-ku! Eng muhimi, men endi bankni urgan jinoyatchi emasman. Men jinoyatdan, o'z-o'zimdan ozod bo'ldim. Endi bu yurtida menga sira aloqasi bo'lmagan ism bilan yashayman. Yolg'izligi kafolatlangan bir kasga aylandim, mana gap qayerda...

Bir haftada hammasi tayyor bo'ldi va yuzimdagi bog'ichni yechishdi.

– Marhamat, oynaga qarang. Qanday chiroyli yigit bo'ldingiz. Endi ayollardan ehtiyot bo'lasiz.

Ko'zlarimni ochib o'zimni tanimadim. Menga navqiron, bejirim bir yigit qarab turardi. Faqat uning tusi murdaniki-ga o'xshardi. U shunchaki qiyofa, qiyofaning o'zi edi, xolos. Oldingi qiyofamda mening qalbim aks etar, qalbim bilan yuzim hamohang yashardi. Bu qiyofaning esa yuragimga hech bir aloqasi yo'q. O'zimni niqobda yurgandek his qildim va shu lahza ich-ichimdan asl qiyofamni qo'msadim.

Afsus, o'z qiyofamdan bir umrga ajragan edim. Men qiyofamni yo'qotdim, shuning barobarida yuragimni ham his qilmay qo'ydim. Barmoqlarimni asta yuzimga tekkizganimda go'yo birovning yuzini ushlagandek noxush his qamrab oldi. Begona ko'zlar, begona burun...Faqat manglayimgina sal-pal o'zimni-kini eslatar, meni achinish hissi iztirobga solardi. Eh, g'aribgina yuzim! O'ttiz yil men bilan yaxshi-yomon kunlarni baham ko'rgan badbaxt yuzim. Yangi qiyofam navqiron,chiroyli, lekin uning hayotimga sira daxli yo'q. Asl qiyofamdan hech vaqo qolmadi, hatto biror surat ham. Endi o'zimni Xarado emas, Murato ataganimda ham menga birov ishonmaydi. Men qiyofamni emas, o'zimni yo'qotdim. Mening na ajdodlarim, na ota-onam, na do'stlarim va na vatanim bor.

Odamlar bilan aloqam mutloq uzilgan. Yorug' dunyoda bir o'zim,yolg'iz qoldim.

Palatamga qaytgach, yuzimni yana devordagi oynaga sol-dim. Yuzlarimga nadomat yoshlari quyilar, chiroyli ko'zlarim jiqqa yosh edi. Naqadar kulgili, go'yo begona bir odam mening qismatimga yig'laydi. Go'yo qalbimdan sizib kelayotgan og'riq o'zganing ko'zlaridan yosh bo'lib to'kilardi.

Men qandaydir g'alati ikkilikni mujassam etgan niqobda-gi odamman. Shu dam shuurimni g'alati his chulg'adi. Af-tidan, endi men har qanday jinoyatni qilishga tayyor edim. Aftidan qiyofamga qo'shib vijdonimni ham boy berdim. Go'-yo ko'rinmas odamga aylandim. Men istagancha jinoyat qi-lishim mumkin, ammo buni men qilganimni birov bilmaydi. Men ulkan, inson zoti uchun beimkon bo'lgan imkon sohibiga aylandim...

Kasalxonani tashlab ko'chaga otlandim. Endi hech narsadan qo'rqmasdim. Axir chap yuzimda xoldan asar ham qolmagan. Millionlab odam bir bo'lib tikilganda ham aslida kim ekanimni bilib bo'пти. Men hozirgina dunyoga kelgan yangi odamman.

Kim bilan bo'lmasin suhbatlashgim, birga o'tirib choy ichgim kelar edi. Tanish-bilish, do'stlar orttirmoqni istardim. Albatta, biror kas meni ko'kragimdan itarmaydi. Chunki ular meni o'zlariga o'xshash, bandayi ojiz, deb o'ylashadi. Aslida esa men – ko'rinmas odam, tutqich bermas asliyat sohibiman.

Yuziga qalin qilib buyoq chaplagan sotuvchi qizdan sigareta xarid qildim.

– Aytolmaysizmi, uchinchi mavze, o'n to'qqizinchi uy qayerda? – so'radim undan.

– Uchinchi mavzemi, shundoq ko'prik ortida. Ammo o'n to'qqizinchi uyni...

– O'n to'qqizinchi uy o'n sakkizinchi uyning yonida bo'lsa kerak?..

– O, shunday, shunday, menimcha o'n sakkizinchi bilan yigirmanchi uyning o'rtasida, – valaqladi qiz go'yo yangi amerika ochgandek.

– Sizni choyga taklif qilmsam, nima deysiz, – so'radim men.

– Minnatdorman, ammo afsuski...

Sigareta tutatib qizdan uzoqlashdim. Men erkin, ustiga-ustak ko'rinmas odam edim. Shunday odam edimki, begona ko'zlar ikki dunyoda ham meni taniy olmasdi. O'zirniki bo'lmagan qiyofa sohibi edim va men qanday uyatli ish sodir etmay, bundan yuzim qizarmasdi.

Chorrahada yosh politsiyachi yo'l harakatini tartibga solib turardi. Dadil qadamlar bilan uning yoniga bordim. Qiziq u biror narsani sezarmikan? Nima bo'lsa bo'lar, tavakkaliga so'z qotdim:

– Ma'zur tuting, uchinchi mavze, o'n to'qqizinchi uy qayerdaligini aytolmaysizmi?

U menga yalt etib qaradi va qo'li bilan ishora qilganicha javob berdi:

– Ko'prikdan o'tib keyingi chorrahagacha borsangiz daf-

tar-qog'ozlar sotiladigan do'kon bor. Shundan o'ngga qarab yurasiz.

Xursandligimdan yorilib ketay dedim. Axir bankni o'margan jinoyatchi haqida barcha ma'lumotlar politsiyaga ma'lumku? Demak, chap yuzida yirik xoli bo'lgan Muratoning yuzlari silliq Xaradoga hech bir aloqasi yo'q. Men ozodman, ustiga-ustak ko'rinmas odamman, meni hatto politsiya ham topolmaydi! Ayni damda, xuddi shu hisning o'zidan ko'nglim bo'm-bo'sh bo'lib qoldi.

Har ne bo'lganda ham, insoniy jamiyatning chuchmal tartib-qoidalari ustidan g'olib keldim. Men yengilmas hisoblanmish o'sha qonunshunoslarni aro yo'lda qoldirib ketdim. Alhol, bu qanday tartib-qoidaki, uni oyoq osti qilish shunchalar oson bo'lsa!

Kechga yaqin o'zim o'margan, bank binosini ziyorat qildim. Ko'chada xotirjamlik hukm surardi. Ish kuni tugagan, temir zanjirlar tushirilgan edi. Temir eshiklarning ho'mraygan qiyofasi kulgimni qistatardi.

Bank yonidagi kichik restoranga kirib bifshteks buyurdim. Stolda kechki gazeta turardi. Olib varaqladim. Endi o'g'irlik haqida hech narsa yozilmas edi. Ha, unuta boshlashibdi. Vaqt o'tadi. Jinoyatdan asar ham qolmaydi. O'yinni ko'ringki, jinoyatchi bemalol piva ichib, bifshteks yeb o'tiribdi. Buni birov bilmaydi, bilishni ham shart emas. Ochofat vaqt har qanday jinoyatni yeb bitiradi. Ammo qor yog'ib, izlar bosilganda ham mening jinoyatimdan bir belgi qoladi – bu mening yangi qiyofam. Mana shu daliliy ashyodan o'lgunimcha qutula olmayman, endi.

Uyimga qaytishga qaror qildim. U yer nisbatan tinchroq. Qolaversa, hali ancha ishlarim bor. Murato ismiga kelgan xatlarni, manzillarni, unga tegishli nimaiki bo'lsa, yo'q qilishim kerak. Bank daftarchisida saqlanayotgan pulni olib, guvohnonmani yoqib yuborishim, chamadonimdagi ismim yozilgan belgini yo'qotishim lozim.

Kamzul va plashimni diqqat bilan ko'zdan kechirib, cho'ntaklarida lotinchada bitilgan ismi sharifimning bosh harflarini o'chirib tashladim. Endi kitoblarga navbat yetdi. Barcha kito-



blarim muqovasini o‘z dastxatimdan tozaladim. Yana nima qoldi? Ishdan bo‘shaganligim haqida ma’lumotnoma va ish haqqim jo‘natilgan eski konvert... Men stol g‘aladonlari va qutilarni ag‘dar-to‘ntar qilib shubhali tuyulgan narsa borki, barini to‘pladim. Kundalik tutmagan edim. Yig‘ilgan qog‘ozlarni uy orqasidagi axlat yoqadigan pechkaga tiqib, gugurt chaqdim.

Endi mening Murato ekanimga dalil, Xarado ekanimga esa guvoh yo‘q. Unda bu xona kimniki? Hozir birov kelib „Bu mening uyim yo‘qol ko‘zimdan“, deb quvlasa, bir narsa deya olmasam kerak.

Go‘yo mavjudligim mohiyatini yo‘qotgan, bo‘shliqda suzib yurgandek edim. Endi mening Xarado Ken‘iti, boshqa hech kim emasligimga dalil kerak. Demak, hammasini boshdan boshlashga to‘g‘ri keldi. Shlapam gizzagiga K va X harflarini yozdim, chamadonimdagi belgini o‘zgartirdim. Kitoblarim muqovasida ham „Xarado Ken‘iti“ yozuvi paydo bo‘ldi. Keyin Xarado nomiga otkritka yozdim, uni pochtaga tashlanmoqchi edim. U o‘zimga qaytib kelganida Xarado ismli odamning mavjudligiga dalil bo‘ladi. Ertagayoq do‘konga chiqib, biror narsa sotib olishni va xaridimni uyimga eltib berishlarini buyurishni dilimga tugdim. Har holda bu ham bir dalil. Men u bo‘lib tanilishim, jamiyat meni Xarado deb tan olishi kerak.

Uydagi ishlarimni tartibga keltirib, sartaroshxonaga yo‘l oldim. Sochimni kaltalatib, tashqi qiyofamni yanada o‘zgartirmasam bo‘lmaydi. Sartarosh kursisida, butun gavdam oppoq choyshabga o‘ralgan holda o‘tirar ekanman, ko‘zguda faqat yuzimgina aks etar edi. Notanish. Meniki emas. Yassi burun va katta-katta chiroyli ko‘zlar. Har qanday dog‘dan xoli bashara. Eng mohir izquvar kelib ko‘rganda ham hozir meni tanimagan bo‘lardi. Tuqqan onam tanimaydi-yu, unga yo‘l bo‘lsin..

Ezgin qayg‘u yukidan og‘irlashgan ko‘zlarimni yumdim.

Satarosh qo‘lida qaychi raqs tushar, qirqilgan soch tolalari yelkamni qoplagan edi. Hechqisi yo‘q, soch degani tez o‘sadi. Erkak kishi sochni kalta qo‘yishi kerak, madaniyatli millatlar-da shunday qabul qilingan. O‘stirish, qirqtirish – umr so‘nggi-

gacha davom etadigan jarayon. Bekorchi ishning o'zi bu. Biroq hamma sochini qisqartirib turadi. Kal bo'lib qolishganda esa mutaxassisga chopishadi. Bu ham keyin qirqirish yo'lidagi bir bema'ni tashvish. Odamlar shunday, bema'ni mashg'ulotlarsiz yasholmaydi chog'i. Mening esa yo'rig'im boshqa. Men qiyofamni o'zgartirish uchun soch oldiryapman. Buni har oy takrorlashim kerak. Chunki sochlarimning o'sishi bilan mendagi Xarado yo'qolib, uning o'rmini Murato egallaydi. Bu go'yo karatati daraxtini eslatadi. Unga boshqa har qanday daraxt novdasini payvand qilmang, baribir karatati yaprog'i o'sib chiqaveradi.

Yo'lning narigi betidagi deraza oldida kirxona xizmatchisi ko'ylakka dazmol bosadi. Bunday bema'ni ishni nega qilyapti? Axir ko'p o'tmay ko'ylak yana kir bo'ladi, taxi buziladi, uni yana yuvishga to'g'ri keladi. Mato ishdan chiqquncha bu jarayon davom etaveradi. Sartarosh yana o'sib chiqishini oldindan bilsa ham, soch olishini, kirxonadagilar yana kirga botishidan voqif holda, kir yuvishini qo'ymaydi. Shuningdek, politsiya bir o'g'rini tutib qamasa, boshqa o'g'rilar paydo bo'ladi. O'g'irlik ham politsiyachilik kabi bir kasb, o'lmaydigan mashg'ulot. Abadiy qochdi-quvdi. Qochdi-quvdi intiho topishining yagona sharti bor – jinoyatchining mutloq tutqich bermasligi. Jinoyatchi bunday saodatga faqat bir yo'l bilan – o'zini o'ldiribgina erishuvi mumkin. U o'zini mahv etar ekan, davlat va qonun qo'li yetmaydigan oliy maqomni egallaydi. Agarda talonchi-jinoyatchilar qonun posbonlari qo'liga tushib qolishsa, ularni aniq o'limga hukm etishadi. Joniga qasd qilgan jinoyatchi esa, avvalo, boshini qonun sirtmog'idan xalos etadi. Boshqa tomondan o'ziga o'zi hukm chiqarib, uni o'zi amalga oshiradi. Qonunni dog'da qoldiribgina qolmay, jalllodni ham bosh kesish lazzatidan mahrum etadi. Bu qonunlarning nochorligidan dalolat emasmi?

Yaxshisi, o'z ishlarim haqida o'ylayman...

Uzoq yillar Xarado Ken'iti bo'lib yashadim ham deylik. Xaradoning kimligi, qayerda tug'ilganni hech kimsa bilmaydi. Nomning yaponcha ekani aniq, ammo u o'ylab topilgan-da!

Ehtimol, Xarado yapon emas, koreys, tayvan yo, deylik xitoy bo'lsa-chi?! Ana, uning qaysi davlat fuqarosi ekani ham aniq emas, shunday ekan, nega unga yapon qonunlari kor qilsin. Agar o'zimni xitoy millatidan deb tanitsam-chi, unda meni sud qilganlari uchun yapon-xitoy xalqaro janjali boshlanib ketadi-ku!

Xayolga g'arq ekanman, sartarosh o'z ishni tugatishga ulguribdi. Oynadagi aksimga qarab, o'zimni artist, dunyoni esa sahna, deya tasavvur qildim. Menga Xarado Ken'iti rolini berishgan, men bu rolni o'ynashim shart. Kim o'zi bu – Xarado deganlari? Uning kelib chiqishi, tarbiyasi, tabiati, did va kayfiyati qanaqa?.. Axir u odamzot naslining asli va ziddini o'zida mujassam etgan, boshqacha aytganda, har bir foniyo singari o'zining takrorlanmasligini anglamagan mavjudot-ku! Har tugul, shunday noyob nusxaning o'z-o'zicha paydo bo'lishi mumkinmi? Aftidan, bu ish o'z jinoyatidan qochish kabi oson emas...

Sartaroshxonadan chiqib, pochta yashigi tomon yo'nalдим va unga Xarado Ken'iti nomiga yozilgan otkritkani tashladim. Unda shu so'zlar yozilmish edi: „Hozirgina Kiotodan qaytdim. Sen bilan uch yil burun bu yerlarda sayohat qilganmiz xotiramga keldi. Fursatdan foydalanib, senga Kiotoning eng mashhur pechenyesidan yuborishga qaror qildim. Do'stligimizni xotirla. Pechenyelarni tatib ko'r. Mazza qil“. Imzo: Okamoto Sin'ikiti. Endi bu otkritka menga boradi va uch yil burun ham Xarado bo'lganimga guvohlik beradi.

Qaytayotib ichkilik ichdim, biroz tatingan bo'ldim. Soat sakkizda uyga yetib keldim. Uyda o'zimni mutlaq bekor-chidek his qildim. Haqiqatan, menda na biror mas'uliyat va na huquq bor edi. Men birovlar uchun nimanidir qilish vazifasidan ozod bo'lganimdek, boshqalarning ham men bilan na ishi bor edi, na dardi. Vaqt esa umuman o'z mohiyatini yo'qotgan, endi men hech qayoqqa shoshilmas, tegramda hayot nafasi-datingan edi. Munitsipaliltetdagi xizmatim naqadar ayanchli bo'lmasin, u mening ertangi kunim va kelajagimdan umid bor-

ligini eslatib turardi. Hozir esa kelajak haqida o'ylashdan ham qo'rqar edim. Yo'q, yo'q, mening orzularga to'la yangi hayotim hali boshlanmagan, hozircha bor-yo'g'i o'zimni izlayapman, xolos.

Taltayib yotganча sigareta tutatar ekanman, xayolim Kyusyu yoki Xokkaydoga qochib ketishda edi. Kyusyumi yoki Xokkaydo – nima farqi bor? Bari bir hech qayerda ishonadigan, meni qo'llab-quvvatlaydigan odamim yo'q. Qochadigan bo'lsam, hozir – pulim ko'p, belim baqquvvatligida qochishim kerak.

Birdan eshik taqqillab qoldi. Hurkkan vahshiy singari sapchib ketdim. Bu kim bo'lmasin, bir narsa aniqki, meni so'rab kelgan. Lekin kimni? Axir men hammaga ma'lum Murato emas, Xaradoman-ku? Eshik ortidagi kim bo'lishidan qat'i nazar, hamma uchun men Xaradoman. Endi nima bo'lsa ham o'z rolimni qoyil-latib o'ynashim kerak. Eshik yana va yana taqqiladi.

– Kim u?

Savolimga hech kim javob qilmadi. O'zimni bildirib qo'y-masligim kerak. Men Xaradoman. Shu o'y bilan eshikni ochib yubordim. Ne ko'z bilan ko'rayki, qarshimda kulrang ko'ylak kiygan Mari Tomson turardi. O'zimni yo'qotib qo'ydim, nafasim bo'g'zimga tiqilib qolay dedi.

– Kimsiz?

Xarado Ken'iti uchun, butun mamlakat odamlari begona bo'lganlaridek, bu ayol ham begona edi. Mari yuzimga termilganча qotib qoldi.

– Sizga nima kerak?

U qoshlarini chimirib olgan, mendan nigohini uzmasdi.

– Bu yuz, – dedi zo'rg'a u. – Bu yuz... Nima qilib qo'ydingiz!

Tilim lol bo'lib qoldi. Bir qarashdayoq Mari hammasiga tushungan edi.

Hunarim Mariga o'tmadi. U meni tuqqan onamdek tanirkan. Taniganda ham borimча, bo'lganimча tanirkan. Mari meni turtib yuborgudek shiddat bilan ostona hatladi-da, zarb bilan eshikni yopdi. Shu bilan barcha qutilish yo'llari bekilgan edi.

U xonani xotirjam kesib o'tib, to'shamcha ustiga horg'in cho'kdi va menga sinovchan tikildi.

– Siz biror jinoyat sodir etgansiz. O'shanda qo'ng'iroq qilganingizdayoq ko'nglim sezgandi buni. Keyin bankdagi o'g'irlik haqidagi maqolaga ko'zim tushib qoldi. Maqolada jinoyatchining chap yuzidagi xol haqida so'z ketar edi. Shundan keyin o'sha siz ekanligingizga shubham qolmadi. Surishtirib ko'rsam ishdan ketibsiz, boshqa xonadonga ko'chib o'tibsiz. Sizni ko'p qidirdim. Aftingizni qarang, Xudoyim-ey, nima qilib qo'ydingiz. Hali qochishni ham mo'ljallayotgandirsiz?

– Nega kelding? – so'zini kesib o'shqirdim unga. Men so'nggi lahzada yana Maratoga aylangan edim. – O'z holimga qo'y meni. Qilgilikni qilib, seni ham yonimga tortishni istamayman. Ket!

Mari boshini egdi, tizzasiga qo'yib o'tirgan qo'llariga yosh tomchilari quyildi. U meni hech qachon sotmasligini qalban his qilib turardim. Lekin Mari barcha rejalarimni barbod qilay degan edi. Men qiyofamni o'zgartirdim, sochimni oldirdim, joyimni, ismimni almashtirdim, ammo u meni topib keldi, bir ko'rishdayoq tanidi. Bu esa mening butun insoniyatni dog'da qoldirdim, degan xom xayolimni tullagan tovuq patlaridek to'zg'itib yubordi.

– Rostini aytsam, o'zim ham bilmayman nima uchun... – tilga kirdi u. – Axir siz bilan bir umrga xayrlashgan edim. Lekin meni aldab, shu ahvolda tashlab ketishingizga ishonolmadim. Faqat shuni bilish uchun keldim: bankni siz o'mardingizmi? Agar siz bo'lsangiz hammasi ravshan... Albatta, o'zim ahmoqman, sizdek odamga ishonarmidim bo'lmasa... Mayli, hozir bu gap ortiqcha. Sizga naqadar rahmim kelayotganini bilmaysiz. Oh, qanday hissiz, qanday bema'ni qiyofa...

Men shu daqiqada yana o'zimni topgandim, qo'yib bersa Mariga tashlanishga ham tayyor edim. Sigareta tutatdim. Har ne bo'lganda ham meni burchakka siqishdi. Ayni holatimda uchta yo'l bor. Birinchisi, mag'lubiyatni tan olish va gunohkorlarcha

bosh egish. Lekin mening bor budim bu qarorimga isyon sifatida so'rrayib turardi. Keyingi chora, hech narsaga qaramay qochish. Buning uchun Marini yo'ldan olib tashlash kerak. Ha, uni o'ldirishga to'g'ri keladi. Chunki undan o'zga hech kim sirimdan voqif emas. Marini o'ldirsam, bemalol qochib keta olaman. U holda politsiya Xarado ismli qotilni qidirib, butun Yaponiyani ost-ust qiladi. Oqibat bu nomdan ham voz kechish, boshqa – uchinchi nomni ko'tarib yurishga majbur bo'laman. Unda o'zimdanda juda ham uzoqlashib ketaman... Toki Marini o'ldirish mumkin emas ekan, u bilan kelishishim, o'zimga sherik qilib olishim lozim. Qanday bo'larkan? Zotan, hozirgi holatim havas qilgulik emas.

– Senga to'g'risini aytmoqchiman, – dedim men u tomon burilib. – Ertaga Kyusyu yoki Xokkaydoga qochib ketmoqchiman. Sen bilan bugunoq ajrashmasak bo'lmaydi. Garchi bu gaplarim endi hech narsani o'zgartirmasa ham, yuragimdagini senga to'kib solaman. Senga chindan ham uylanmoqchi edim. Menga ishon. Lekin mening maoshim bilan oila tebratib bo'larmidi? To'g'ri, sen ham ishlashing, menga yordam berishning mumkin edi. Faqat bunday oila menga ma'qul emasdi. Shuning uchun ko'p pul topmoqchi bo'ldim, tavakkaliga harakat qildim. Rejam amalga oshadimi yo'qmi, endi menga bari bir edi. Bu ishga qo'l urayotib, qimorga hayotimni tik-kandim.

O'zimni muhabbat yo'lida qurbon qildim deya olmayman. Axir bu yolg'on, qalloblik-ku! Lekin senga bo'lgan sadoqatimga shubha qilma. Boshqa nima ham deymen. Xohlasam o'zimni tavbago'y qilib ko'rsatishim ham mumkin. Lekin angladimki, gunohim, butun og'irligi bilan ko'z o'ngingda turibdi. Vijdonim azobda, o'zimni qo'ygani joy topolmayman.

Mening yurtimga qaytishim haqidagi yolg'onlarim, sen bilan vidolashganim bir maqsadga – seni turli noxushliklardan asrashga qaratilgan edi. Shu sabab o'zga qiyofaga kirishga majbur bo'ldim, ismimni, turar joyimni o'zgartirdim. Lekin bu tadbirlarim meni qutqaza olishiga ishonmayman. Men endi

hamma narsaga tayyorman. Saodat onlari qisqa bo'ldi, biroq men uning bir umr xotiramda saqlanib qolishini istayman.

Jinoyat qilganimga ham to'qqiz kun bo'ldi. Shu vaqt orasida menda birov bilan uchrashish, birov bilan suhbatlashish imkoni bo'lmadi. Ha, bu dahshatli holat, bu yolg'izlik edi. Jinoyatchi-ning naqadar yolg'iz ekanini hech kim tushunmaydi. Sen kel- ding, senga yuragimni ochdim-u yana o'zimni odam his qildim. Endi esa ket. Seni o'z gunohlarimga sherik qilishni istamayman. Barcha og'irlikni, misqoligacha, o'z yelkamda olib yurishim kerak. Umid qilmanki, qo'lga tushmasam hayotimni izga solib olarman.

O'z rolimni mahorat-la ijro etdim. Men tavba-tazarru qi- lar, ko'zlarimdan tinmay yosh quyilar edi. Rolimni oxrigacha o'ynashga erishdim, bunda yangi qiyofam ish berdi. Asl qiy- ofamda bunday qilolmasdim. Demakki, vijdonim va asl qiy- ofam o'rtasidagi bog'liqlik uncha mustahkam emas ekan... Ayni paytda esa niqobda edim. Qarangki, niqobni yuzimga tutishim hamono vijdonning ham uni o'chdi. Shunchalar o'jiz ekan me- ning vijdonim.

– Ketdik bu yerdan, – dedi Mari, tizzasida turgan sumka- chasini qo'lga olib.

Daf'atan, uning nima demoqchi ekanini tushunmadim.

– Ketamiz? Qayoqqa?

– Bu yerda qolish xatarli. Tez ketishimiz kerak. Kamzulin- gizni kiying.

– Qayerga ham borardik? Boradigan joyning o'zi bo'lmasa.

– Men... men... – der ekan, Marining lablari burilib ketdi. – Men hammasiga ko'ndim. Ko'z oldimda sizni qamashlarini is- tamayman... O'tinaman. Sikokuga qarashli Kotis boshqarmasida amakim yashaydi. O'sha yoqqa borasiz. Bu haqda hali gapla- shamiz. Hozir bu yerdan tez ketaylik.

Ish bunaqasiga aylanib ketishini, to'g'risi, kutmagan edim. Kelishuv amalga oshdi. Hammasi ko'ngildagidek hal bo'ldi. Eh ayol qalbi, ayol qalbi, uni shunchalar oson zabt etish mumkin. Birdan Mariga achinib ketdim. Uning ko'ma-

gi bilan tez kiyindim, hovliqib ko'chaga chiqdik. Marinikiga borishga ko'nmadim. Bu bilan Marini xatarga qo'ymoqchi emasdim. O'ylay-o'ylay shahar markazidagi mehmonxonaning hashamatli bir bo'lmasini band etdik. Meni bu yerdan izlash politsiyaning yetti uxlab tushiga ham kirmaydi. Bunday qimmat mehmonxonada faqat ishratparast kiborlargina turishi mumkin.

Bu hayotimdagi birinchi va eng so'nggi shohona kecha edi. Mehmonxonaning bir kecha-kunduzlik bahosi olti ming yen turardi. Marining ko'nglida haqiqiy drama hukm surar, men uchun esa bularning hammasi komediyaga o'xshardi. Ammo vaziyat Mari uchun tragik rolni o'ynashga undardi. Zotan, niqob ortidan bu rolni o'ynash u qadar qiyin emasdi. Mari o'ziga xos bo'lgan jiddiylilik bilan men to'g'rimda amakisiga xat yozdi, keyin esa mendek bir yovuz jinoyatchiga yordam berayotganidan qalbi o'rtandi chog'i, boshini qo'llari orasiga olgancha o'tirib qoldi. Shuning uchun maktubni mayda-mayda qildim-da, kuldonga tashlab yoqib yubordim.

– Sen bu bilan amakingni ham, o'zingni ham xavfga qo'yasan. Ayb qilgan menman, javobi ham menga tan. Bugundan e'tiboran meni hayolingdan chiqarib tashla. Men izsiz yo'qolishga harakat qilaman, – dedim.

Illo, bu so'zlarim ham hali o'ynayotgan rolimning davomi edi.

Biz xayrlashuv qadahlarini ko'tardik. Mening kulgim qistar, Mari esa tinimsiz yosh to'kardi. Ayol zoti buncha ko'zyoshini sevmasa? Sira tushuna olmayman. Yoki ko'zyoshlar ayolning erkakka bo'lgan jinsiy ehtiyojini alangalatarmikan? So'ngra Mari boshidan ipak sharfini oldi-da, u bilan yuzimni beozorgina o'rab qo'ydi. Uning uchun shu holatda aslimni tasavvur qilish oson bo'lsa kerak. Marining sochlaridan keladigan yoqimli bo'yni tuyishimga sharf halal berdi. Men bekitilgan yuzim bilan Marini bag'rimga bosdim.

Shu lahzaga qadar Mariga butkul ishonardim. Mening ko'nglim esa yolg'on bilan limmo-lim edi. Yolg'on meni ke-



mirib borardi. Men Xarado Keniti qiyofasidagi Xarado Ken'iti edim. Ayni damda menda ikki odam yashardi. Axir men Mari uchun ham oldingi men emas, begona edim. Lekin bu tun Mari ana shu begona odamga o'zini bag'ishladi. Demak, u ham ilk bor o'z-o'ziga xiyonat qildi.

Tong otdi. Marini uyg'otib, mendan ilgariroq mehmonxonadan chiqib ketishiga majbur qildim. U ishga borishi kerak. Rostini aytsam, Marining menga boshqa keragi yo'q. Hozir u faqat oyog'imga tushov bo'lishi mumkin. Bugunoq Kyusyuga qochmoqchi edim. Nima bo'lishidan qat'i nazar, tezda qochishim kerak.

Soat birdan oshganda, uyimga qaytdim. Zinadan ko'tarilayotib, ortimda ikki nusxa paydo bo'lganini payqadim. Shu dam mayin ovoz eshitildi:

– Kechirasiz, janob Murato siz bo'lasizmi? Murato Sindzi?

Hammasi jo'ngina yuz berdi. Men shovqin ko'tarishga urindim, ammo xom xayol qilibman. Ular meni qanday topishganini bilmayman-u, lekin ularga hammasi ma'lum ekan: qiyofamni o'zgartirganimdan tortib, boshqa ism olganimgacha.

Mashina meni noma'lum tomonga olib ketar ekan, o'tkazgan kecham xotiralari bilan band edim. O'ylab ko'rsam, kecha menga kulgili tuyilgan bu tun, hayotimning eng yorqin tuni bo'lgan ekan. Hayhot, men uchun o'tgan tunim ozodlikning so'nggi, qimmatli lahzasi bo'lganini tushundim. Qalbinga Mariga nisbatan mehr va achinish tuyg'ulari oqib kirdi. Ayol mehridan bahramand bo'lish endi menga qachon nasib etadi.

Tushunolmayman, jinoyatchi zotiga jazo berilar ekan, nima uchun uni qarama-qarshi jinsdan mutloq ajratib qo'yishadi. Bu inson huquqlarini paymol etuvchi vaxshiyona yo'l emaskiman? Jinoyatchini faoliyat erkinligidan to'sganlari yetmagandek, uni jinsiy ozodlikdan ham mahrum qilishadi...

Mashina kunning qoq o'rtasida shahar markaziy ko'chasi bo'ylab o'rmalar, men esa qo'llarimda kishan, rindona xayollarga bandi edim. To'g'risini aytsam, meni sarosima ezar, kallamda hamma narsa qorishib ketgandi...

Garchi matbuot talonchilikdan bong urgan bo'lsa-da, mening jinoyatim oddiy o'g'irlik sifatida baholandi. Sud zalida Mari bilan yana bir bor uchrashishimga to'g'ri keldi. Men sudlanuvchi, u guvoh. Bilmadim, bu tasodifmidi yoki yo'q, har holda Mari o'sha tundagi kulrang ko'ylakda edi. Sud zalining g'ira-shira yorug'ida uning badani haddan ziyod oppoq ko'rinardi. O'sha kuni Mari o'zini qoyilmaqom tutdi.

– Sudlanuvchi bilan tanishmisiz?

– Bunday odamni bilmayman, – Mari sud raisi tomonidan berilgan bu savolni dadil qarshiladi.

Sudya savolini yana qaytardi;

– Murato Sindzi ismli odamni bilasizmi?

– Ha, bilaman.

– U bilan qanday aloqangiz bor edi?

– Mening u bilan biron aloqadorlik joyim yo'q edi. Murato Sindzi shunchaki bir tanishim, xolos.

– Qarshingizda turgan sudlanuvchi Murato Sindzi emasmi?

– Yo'q, u emas, – qat'iy ohangda javob berdi Mari.

– Unda Xarado Ken'iti ismli odam sizga tanish bo'lishi kerak?

– Yo'q, bunday odamni bilmayman.

– Sizga yaxshi ma'lumki, jinoyatchi Murato Sindzi o'z izini yashirish maqsadida plastik operatsiya qildirib, qiyofasini o'zgartirgan. Tug'ma xolini oldirib tashlagan va o'ziga Xarado Ken'iti deb nom bergan. Siz qora kursida o'tirgan shaxs qiyofasini o'zgartirgan Murato Sindzi ekaniga guvohlik berasizmi?

– Yo'q, bunday odamni sira ko'rmaganman.

– Demak, Murato Sindzining bank pullarni o'g'irlab ketgani ham sizga ma'lum emas?

– Yo'q, ma'lum emas.

U guvohlik berishdan bosh tortdi. Bu uning sud ishiga munosabatini bildirmas, balki shu yo'l bilan Mari menga bo'lgan muhabbatini so'nggi bor izhor qilayotgan edi. Undagi qat'iylikdan endi bizni bog'lab turadigan rishtalar uzilib bitganini angladim. Endi undan na biror narsa, na biror xabar kuta olaman.

Bizning ajralishimiz Marining foydasiga bo'ladi. Hozir men uchun Mari bilan o'tkazgan so'nggi tunimdan shirinroq xotira yo'q. U bo'lsa, o'ylashimcha, hammasini unutishni istaydi. Men bilan o'tkazgan kunlari Mari uchun qayg'u-iztirob kunlaridan bo'lak narsa emas. Mari yashab ketishi uchun o'sha xotiralarni unutishi, men esa faqat o'sha kunlar uchun yashashim mumkin.

Ayni damda biz ikki qirg'oqda edik.

Men hukmning yengil bo'lishidan umid qilardim. Shu bois aybimni og'irlashtirmay dedim. Miq etmadim. Sud zalidagi mahkum kursisida o'tirib zerikdim. Prakuror meni bir ovozdan aybdor topdi, oqlovchim ham uning yoniga o'tdi. Men loqaydlik va umidsizlik bilan ularni tinglab o'tirdim. Qonun vakillari ustimdan kulayotgandek edi.

Ularning har biri o'z ishning ustasi edi: sudya ham, prokror ham, oqlovchi ham: biri qoralash, boshqasi oqlash bilan kun ko'rardi. Bir so'z bilan sud korporatsiyasining ustasi faranglari. Avvallari sud imperator nomidan olib borilardi, endi esa xalq nomidan olib boriladi. Farq faqat nomda, undan ortiq emas.

O'ylashimcha, bu kimsalarni boshidanoq men ham, mening jinoyatim ham qiziqtirgan emas. Qiziq, nahotki, mening taqdirimni shu o'ziga ham begona, loqayd odamlar hal qilsa? Buni sira hazm qilolmayman. Ayni paytda, sud degani bu davlatni boshqarishning bir quroli. Axir bu janoblar men haqimda, mening jinoyatim xususida ham so'z yuritishadimi o'zi? Ularning ahmoqona so'zlarini tinglaganim sari, o'tgan ishlar tasavvurimdan uzoqlashib borardi.

Na sud raisi, na prokuror, na oqlovchi, loaqal ulardan bi-rortasi, jinoyat sodir etilgan joyda bo'lishmagan. Ustiga-ustak ular jabrlanuvchi ham emas. Bir so'z bilan bular menga, mening ishimga mutloq yot odamlar. Bu yerda to'planib olib, mening o'tmishimni titkilashdi, meni ayblash uchun qandaydir jinoyat izlarini qidirishdi, qandaydir adolat haqida so'zlashdi. Qanday yuzaki, qanday subutsiz sud bu!

„Jinoyatchining eng og'ir gunohi shundaki, u o'z jinoyatini amalga oshirib oq kasalxonga yotgan. Va eng yomoni o'zini ta-

nimasliklari uchun muhim daliliy ashyo – tug‘ma xolini oldirib tashlagan, bu ham yetmagandek, yuz qiyofasini o‘zgartirgan. Aynan shu ishi sabab sud uning aybini og‘irlashtirilgan, deb hisoblaydi“.

Shu nodonlar mening ustimdan hukm chiqardimi hali?! O‘zimga achinib ketdim. Axir qiyofamni o‘zgartirishga meni vaziyat majbur qildi. Qutulish uchun boshqa choram yo‘q edi. Qutulishga chora axtarish, jinoyatchi uchun eng tabiiy harakatku! Yoki o‘z qiyofamni o‘zgartirib, birovga zarar keltirdimmi? Bu o‘lim xavfi oldidagi so‘nggi chora edi, xolos. Nega bu „aybni og‘irlashtiradigan harakat“, deb belgilanadi? Bunday bir yoqlama yondashuv sud xodimlarining siyosatiga putur yetkazmaydimi? Aftidan ishning yengil ko‘chishiga umid bog‘lab bo‘lmaydi.

Shunday qilib, mening jinoyatim aniq isbotini topgan. Qonuniy jazo muddati esa o‘n yilgacha. Yaqinda menga mahbuslar kiyimini berishadi, bir kishilik kameraga o‘tqazishadi, yeyishimga guruch va yana gurdibalolar beriladi, baland ovozda so‘zlash, qo‘shiq kuylash, chekish man etiladi. Shu tariqa kun tunga, tun tongga ulanadi. Besh olti yillab o‘z xayollarim, ko‘rgan kechirganlarim bilan yolg‘iz qolaman.

Sabr-matonat, to‘g‘rirog‘i, yashalmaydigan hayot yillari. Qamoqxonadagi hayotim sakkiz-o‘n yilga cho‘zilganda ham menga nima beradi? Bundan keyin men yaxshiroq bo‘lib qolamanmi? Mahbuslik bor-yo‘g‘i meni yangi jinoyatlardan to‘sis turadi, shu xolos.

Har holda yana bir tomoni ham bor. Mening hibsonadagi oy va yillarim imillab o‘tar ekan, bu vaqt mobaynida balki, yangi qiyofamga ko‘nikarman, uni o‘zimmiki qilib olarman. Balki, shunda bu yuz niqob emas, faqat mengagina tegishli bir bo‘lagim bo‘lib qolar.

Holbuki, o‘tgan o‘ttiz yil o‘z qiyofamda yashadim, boshqa qiyofa to‘g‘risida o‘ylab ham ko‘rganim yo‘q. Demak, shu qiyofa asliyat va u faqat menikigina bo‘lgan. Balki, yillar o‘tib yangi qiyofamga ko‘nikarman, uni o‘z qiyofamdek qabul qilarman, ammo o‘shanda ham asl qiyofam xotiramdan butunlay yo‘qolib ketmay-

di. Bu xuddi xotini vafot etib, ikkinchi bor uylangan, ammo o'sha marhuma ayolini unuta olmagan erkakning xotirasidek muqaddas xotira bo'ladi.

\* \* \*

Men hamon sudlanuvchi bo'lib turar, Mari Tomson esa suvga tushgan toshdek beiz ketgan edi. Hammasi o'zim o'ylagandek bo'ldi. Meni faqat Marigina emas, barcha do'stlarim, tanishlarim, kasbdoshlarim ham eslashmadi. Dunyo mendan yuz o'girdi. Butun Yaponiya – yuz milliondan iborat vatandoshlarim – ularning barcha-barchasi men mansub dunyoning tashida qoldilar.

Men yolg'iz edim. Devorga suyanib, o'z-o'zimga mixlab tashlangandek o'tirardim.

Oradan bir oy o'tdi. Meni hukm e'lon qilish uchun sud zaliga olib borishdi. Sud raisi, o'sha qozixona ulug'i, topilmas avliyo mening taqdirimdan bashorat berdi.

„O'g'irlik sodir etgani va davlatga moddiy zarar yetkazgani uchun sudlanuvchi to'rt yillik og'ir mehnat lageriga hukm qilinadi...“

Sud raisining so'zlari go'yo uzoq-uzoqlardan eshitilardi. To'rt yil... Bu ko'pmi, ozmi hisobiga yetolmasdim... Birdan ko'zlarimda yosh qalqidi. Bu nadomat yoshlari emasdi. Axir men ularning qarshisida niqob kiyib o'tirardim. Birgina armonim ushbu hukmni niqobsiz o'zimning asl qiyofamda eshitish edi...

**Dino BUTSSATI**

## **EYNSHTEYN BILAN IBLISVACHCHA**

Kuz oqshomlarining birida Albert Eynshteyn Priston (Nyu Jersi shtati) yo'lkalari bo'ylab kezib yurar ekan, bir g'ayritabiiy voqeani boshidan kechirdi. Uning o'z holiga tashlab qo'yilgan o'y-fikrlari bu damda zanjiridan xalos bo'lgan it misoli daydisher, o'z sohiblarini nazar-pisand qilishmasdi. Qizig'i shundaki, ayni befayz va behalovat lahzalar Eynshteynni umr bo'yi intilgan-u, ammo ro'yobiga umidi so'ngan orzusi bilan qovushtirdi. Kiprik qoqqudek fursat ichida u makon evrilishiga guvoh bo'ldi, uning nigohi, xuddi siz ushbu varaqni chor tarafdin ko'rib turganingizdek, o'zga olamni ko'rdi.

Garchi, insoniyat ko'zlari ilg'ay oladigan makondan o'zga o'lchamda ham olamlar mavjudligi allaqachonlar isbotini topgan bo'lsa-da, bunga hamon inson tafakkuuri uchun jumboq bo'lmish voqelik deya, shubha bilan qarab kelinadi. Go'yoki o'sha olam bilan biz yashayotgan olam o'rtasida ko'rinmas bir devor bordek o'zining uchqur tafakkuri qanotida tobora ko'kka yuksalib borayotgan inson nogahon shu devorga peshonasini uradi-da, parvoz nihoya topadi. Na Platon, na Pifagor, na Dante bugun hayot bo'lganlarida ham, ushbu devorni ishg'ol qila olishmagan bo'lardi, illo, bizning miyamiz bunday haqiqatlarni sig'dirishga qodir emas.

Illo, dunyoda o'sha begona olam sarhadlarini tajriba va uzluk-siz riyozat orqali egallash mumkin, deya fikr qilguvchilar topiladi. yer yuzida paravozlar suron solib kezar, domna pechlari guvullar, urush va o'lim vahshati davom etar, so'lim xiyobonlar oshiq-ma'shuqlar bo'salari tovushiga some'lik qilar, bir so'z bilan hayot oqimi o'z yo'lida oqar ekan, qandaydir darveshnamo olimlarning

milsiz riyozatlari orqasida bir lahza o'sha makon chegaralariga qadam qo'yganlari, uning sir-sinoatlaridan voqif bo'laroq, kiprik qoqar vaqt orasida ortga qaytganlari, inson oyog'i yetmagan cho'qqini zabt etganlari haqida afsonalar yuradi.

Biroq ushbu buyuk hodisotdan kimsa xabar topmaydi, birov u qahramonni tabriklamaydi ham, na tantanalar, na intervyular uyushtiriladi, na qahramonga biror nishon berishadi. Chunki bunday noyob hodisalar hammabop emas. Qahramon bu haqda bor-yo'g'i „Men u dunyoga borib keldim“, deyishi mumkin, vassalom. Axir unda o'zga olamda bo'lganini tasdiqlovchi na biror surat, na hujjat-dalil bor.

Voqean, shunday hodisa ro'y berib qolgudek bo'lsa – o'z tafakkurimiz vositasida o'sha o'zga olamga tirqish topa olsak – biz uchun mavhum bir formuladan boshqa narsa bo'lmagan, bizdan tom ma'noda tashqarigi olam ayni chog'da hayotimizning o'ziga aylanadi. O! U lahzalarda o'zligimizdan, qayg'u, quvonch, tashvish atalmish yuklarimizdan bir yo'la xalos bo'lamiz. Inson tafakkuri naqadar bepoyon-a!

Xuddi shunday voqea, osmon billuriy ranglarga chulg'angan, shahar chiroqlari go'yo Zuhro yulduzi bilan bahs boylashgandek, u yer, bu yerda miltillay boshlagan ajoyib kuz oqshomlarining birida professor Albert Eynshteyn bilan ham sodir bo'ldi. Uning qalbi – o'sha sir-sinoatga boy bir parcha go'sht – Xudoning marihamatini his qildi. Zero, Eynshteyn donishmand odam edi. Dunyo havaslariga parvo qilmasdi. Ammo ayni lahzalarda u o'zini odamlar izdihomidan yuksaklarda his qildi. Non ushog'iga intizor gado favqulodda bir xumcha oltin topib olgandi go'yo.

Go'yo Eynshteynning nomunosib o'ylariga jazodek, sirli haqiqat qanday paydo bo'lgan bo'lsa, shunchalik kutilmaganda, daf'atan ko'zdan yo'qoldi. Ayni damda professor hozir bo'lgan makonining o'ziga tamomila notanish ekanini anglab qoldi. U chetlari jonli devor bilan to'silgan uzun yo'lak bo'ylab ketib borar, atrofida imorat tugul biror tirik jon ko'rinmasdi. Yo'lak oxirida sariq-qora zebra tusida bo'yalgan, shiftini sharsimon chi-

roq yoritib turgan benzakalonka ko‘rinardi, xolos. Yon tarafdagi skameykada, chamasi mijoz yo‘qligidan zerikibgina bir zanj o‘tirardi. Uning egnida ish kombinizoni, boshida esa beysbol shapkasi bor edi.

Eynshteyn uning yonidan indamay o‘tib ketmoqchi edi, biroq zanj o‘rnidan turib u tomon odimladi.

– Janob! – dedi u.

Zanji o‘rnidan turgach, barzangi kelbati, xushbichim yuzi, bor bo‘y-basti bilan mukammal bir afrikalikni o‘zida mujassam etgani bilindi. Tun qorong‘usida jilmayar ekan, marjondek tishlari yarqirab ko‘rinardi.

– Janob, – dedi u, – sizda gugurt topilmaydimi? – va cho‘g‘i so‘ngan sigareta bilan unga yaqin keldi.

– Chekmayman, – Eynshteyn javob bera turib to‘xtadi, to‘g‘rirog‘i uni qiziqish va hayronlik to‘xtatgan edi.

Shunda zanj so‘radi:

– Balki, menga aroq puli berarsiz?

U mirzaterakdek naynov, navqiron, ustiga-ustak surbetgina edi.

Eynshteyn cho‘ntaklarini timiskiladi.

– Bilmadim-da... Yonimda sariq chaqa ham topilmasov... Sayrga pul olib chiqadigan odatim yo‘q...Rosti gap afsusdaman... – der ekan ketishga chog‘landi.

– Shunisiga ham qulluq, – dedi zanj, – ammo, ma‘zur tutasiz...

– Yana nima? – malollandi Eynshteyn.

– Siz menga keraksiz. Bu yerga asli sizni deb kelganman.

– Men kerakman?! Nima gap o‘zi?!

– Menga keraksiz, – takrorladi zanj, – bir muhim ish yuzasidan. Buni faqat qulog‘ingizga aytishim mumkin.

Ayni damda tun pardasi yanada quyuqlashgan, bunga sari zanjining tishlari oldingidan ham oppoqroq ko‘rinardi. Zanj Eynshteynning qulog‘iga engashdi.

– Men – jon olguvchi farishtaman, – shivirladi u, – joningni olgani keldim.



Eynshteyn bir qadam ortga chekindi.

– Menimcha, – dedi u ovozi jiddiylashib, – menimcha, ko‘proq ichib qo‘yganga o‘xshaysan, og‘ayni.

– Men – o‘lim farishtasiman, – ta‘kidladi zanji, – qara...

U jonli devordan yam-yashil bir novdani sindirib oldi. Oradan lahza o‘tmay uning qop-qora qo‘llarida yashnab turgan barglarning rangi siniqdi, so‘lishga tushdi, so‘ng esa kulga aylandi. ZANJI bir puflab kaftidagi kulni ko‘kka sovurdi.

Eynshteyn boshini egdi.

– Jin ursin. Demak, kunim bitibdi-da... Qanday qilib – shu ahvolda, tun qorong‘usida, yo‘lning qoq o‘rtasidami?!..

– Menga shunday buyurilgan.

Eynshteyn atrofiga olazarak boqdi, tirik jondan nishon yo‘q edi. Hammasi avvalgidek: uzun yo‘lak, pastlikda chiroqlar mo‘ltiraydi, chorraha tomondan avtomobillar qizil ko‘zlarini tikadi.

Falak gumbazida yulduzlar jimiri, Zuhro yulduzi quyi ingan.

Eynshteyn chuqur tin olib dedi:

– Menga qara, birodar, bir oy muhlat berolmaysanmi? Tugata olmagan bir muhim ishim bor, shuni yakunlagan kunim kel-sang degandim. O‘tinaman faqat bir oygina...

– Kashf etmoqchi bo‘lgan narsangni, – ta‘kidladi „zanji“, – men bilan boradigan joyingda so‘zsiz topasan.

– Bu boshqa-boshqa narsalar: u dunyoda mehnatsiz topilgan kashfiyotning qiymati nima bo‘lardi. Mening kashfiyotim esa odamlar uchun koni foyda. O‘ttiz yildan beri shuning ustida ter to‘kaman. Orzuyim ushalay deganda-ya...

„ZANJI“ ishshaydi.

– Bir oy deysanmi?... Mayli, ammo muddating yetgandan so‘ng qochib qolishni xayolingga ham keltirma. Osmonga chiqsang oyog‘ingdan, yerga kirsang qulog‘ingdan tortib olaman.

Eynshteyn yana nimadir demoqchi bo‘lib boshini ko‘targanida, „zanji“ning soyasini ham topmadi.

Bir oy deganlari hijrondagi oshiq uchun qancha ko‘p bo‘lsa, ajalini kutayotgan bechora uchun bir damdan-da qisqa ekan. Dam nima bo‘pti „chirt“ etgan tovushdek shiddatkor va aniq.

Mana u o'tdi-ketdi. Eynshteyn va'dasiga vafo qilib, belgilangan joyga yo'l oldi. O'sha benzakalonka, o'sha skameyka, unda „zanji“ o'tiribdi. Faqat bu safar u kombinizoni ustidan harbiylar kamzulini kiyib olgan: axir havo sovib qolgan-da.

– Men keldim, – dedi Eynishteyn uning yelkasiga turtib.

– Qalay, ishlaringni bitirdingmi?

– Yo'q, tugata olmadim, – og'ir xo'rsindi olim, – menga yana bir oy muhlat kerak! Qasam ichaman. Bu safar tugataman. Ishon, kun-u tun quldek ishladim, baribir ulgurmadim. Ammo arzimagan ish qoldi.

„Zanji“ orqa o'girib o'tirgan holatida yelka qisdi.

– Siz – Odam bolalari, hammangiz bir go'rsiz. Sizga mudom nimadir yetishmaydi. Sira birovdan minnaddor bo'lmaysiz. Bir soniya ortiqroq yashash uchun tiz cho'kib oyoq o'pishga-da tayyorsiz. Bahona topishga-ku suyagingiz yo'q.

– Men qilayotgan kashfiyot o'ta murakkab. Hali inson zotiga nasib etmagan...

– Bo'ldi, bilaman, bilaman, – gapni shart kesdi „zanji“, – hikmat toshi yaratmoqchisan, shundaymi?

Shundan so'ng har ikkisi jim qolishdi. Sertuman, sovuq kuz oqshomi etni junjukturadi. Bunday tunda uyda yotganga ne yetsin.

– Men nima qilay endi? – so'radi Eynshteyn.

– Bo'pti ketaver... Lekin bir oy ko'z ochib yumguncha o'tib ketadi.

Chindan ham bir oy ko'z ochib yumguncha o'tib ketdi. Vaqtning bu qadar ochofatligi shunda bilindi.

O'sha dekabr tunida izg'irin esar, yakkam-dukkam chirindi xazonlarni o'ynatar, olimning bosh kiyimi ostidan chiqib turgan oppoq sochlariga changal solardi.

O'sha benzakalonka, bu safar skameykada boshiga qalin salla o'ragan o'sha „zanji“ sovuqning zo'ridan dildirab o'tirardi.

Eynishteyn unga yaqin kelib, dadil turtdi.

– Men keldim.

„Zanji“ning sovuqdan tishlari takirlar, kamzuliga o'ranib olgandi.

– Ha, senmisan?

– Men.

– Demak, tugatibsan-da?

– Xudoga shukur, tugatdim.

– Yuz yillik o‘yini intiho topibdi-da! Har holda armoning qolmagandir? Boqiylik sirini ochgandirsan?

– Ha, – Eynshteyn jilmayib javob qilar ekan, yo‘talib qo‘y-di, – nafsilamrini aytganda hammasi joyiga tushdi.

– Ketdikmi bo‘lmasam? Safarga tayyormisan?

– Albatta, kelishganmiz-ku.

„Zanji“ ilkis sakrab turdi va shunday qah-qaha otdiki, faqat iblisgina bunday kulishi mumkin edi. Keyin o‘ng qo‘lining ko‘rsatkich barmog‘i bilan Eynishteynning qorniga bir turtgan edi, u muvozanatini yo‘qotib, oyog‘ida zo‘rg‘a turib qoldi.

– Yaxshi, yaxshi keksa qaroqchi...uyingga jo‘na, tez bo‘l, yugur, bu sovuqda o‘pkangni oldirib qo‘ymasingdan... Hozircha menga keraging yo‘q.

– Meni qo‘yvorasanmi?! Unda bu ko‘rsatgan hunaringni qanday tushunish kerak?

– Bularning barisi ishingni tezroq tugatishing uchun edi, vassalom. Men maqsadimga erishdim...Seni shunday qo‘rqit-maganimda, kim bilsin yana qancha cho‘zar eding?!

– Mening ishim?.. Buning senga nima qizig‘i bor?

„Zanji“ tirjaydi.

– Menga-ku kerak joyi ham yo‘g‘-a... Ko‘rmaysanmi, rahbariyat, yer osti dunyosining hukmdori – otam iblis... Uning aytishicha, avvalgi kashfiyoting ham shaytanat dunyosi uchun katta foyda bergan. Bunda shaxsan sen aybdor bo‘lmasang ham, shunday bo‘lgani rost. Senga bu yoqadimi, yoqmaydimi ixtiyoring o‘zingda, janob professor, lekin kashfiyoting jahannamga mislsiz foyda olib keldi... Endi yangi kashfiyotingdan foydalanishni o‘ylayapmiz.

– Bo‘lmagan gap! – norozi chinqirdi Eynishteyn. – Dunyoda undan bezararroq narsa bor ekanmi? Bu shunchaki formula, mutloq mavhumiyat xolos...

– Yashshavor, – qichqirdi iblsvachcha, yana olimning qorniga turtar ekan. – Yashshavor, azamat! Seningcha meni bu yoqqa o‘ynagani yuborishganmi? O‘ylaysanki, ular xato qilishganmi?.. Yo‘q-yo‘q, sen yaxshi ishlading. Zulmatdagi og‘alarim sendan xursand bo‘lishadi endi!.. Eh sen bilganingda edi!..

– Nimani, nimani bilganimda edi?

Ammo iblsvachcha g‘oyib bo‘lgan, atrofda na banzakalonka, na skameykadan nishon bor edi. Yolg‘iz tun zulmati, izg‘irin shamol va uzoq chorrahadagi avtomobil chiroqlarigina ko‘zga tashlanardi...

Abe KABO

## BOLALAR XONASI

– Qarang. Ho-o-v ana u yoqda... Yo‘q, bugun ko‘rinmaypti... Havo ochiq kunlari xuddi o‘sha tomonda teleminoraning uchi ko‘rinadi...

Bayram yoki dam olish kunlaridan biri. Elektropoyezd bekatini yaqinidagi qahvaxonaning achimsiq hidlar va tutundan yorilish darajasiga yetgan diqqan nafas burchagi. Deraza oldidagi omonatgina stolning ikki tomonida erkak bilan ayol o‘tirishibdi. Ayolning oldida shokoladli muzqaymoq. Erkak esa ketma-ket sigareta tutatadi. Og‘zidan pag‘a-pag‘a tutun chiqarib, onda-sonda tutundan bo‘shagan og‘zi bilan qahva ho‘playdi. Ayol nigohida qandaydir begonasirash bor. Aftidan ular, odam yangi kiyimga moslasha olmaganidek, bir – birlariga hali uncha ko‘nikishmagan. Erkak tortingan ohangda davom etadi:

– Bilasizmi? Qachonlardir shu minora tepasiga chiqib, „Neft zaxirasi“ degan yozuvni ilib qo‘yishni orzu qilaman, bilasizmi? Osmon kun sayin og‘irlashib boryapti, ko‘p o‘tmay shahar ustiga qulab tushsa ham ajabmas. Shunda butun shahar kattakon neft dengiziga, o‘simliklar ko‘mirga, jonzotlar neftga aylanadi. Kelajagidan g‘ofil jonlarning ko‘cha to‘ldirib yurishlarini qarang. Shuning uchun men bolalarimni yalang bir narsaga – neft ishlab chiqarishga o‘rgatmoqchiman.

Ayolning ko‘z qorachiqklarida kulgi jilvalanadi. Lekin u tili bilan muzqaymoq yuqi lablarini qimtib yalar ekan, go‘yo muzqaymoqqa qo‘shib kulgisini ham yutib yuboradi. Ayol uzrxohlik bilan deydi.

– Dugonalarim menga hazilni tushunmaysan deb ta‘na qilishadi. Menimcha, hazil qilyapsiz.

– Shamollaganmisiz deyman? – so‘raydi erkak yo‘tal aralash. Ayni damda ayol ham unga qo‘shilib yo‘talar ekan, qoshiqcha tutgan qo‘li bilan og‘zini to‘sgancha javob beradi.

– Yo‘q, tutundan bo‘g‘ildim chog‘i.

– Unda hechqisi yo‘q. Illo, og‘riq tamoqqa muzqaymoq, olovga moy purkash bo‘lardi.

Ayol nigohi erkakniki bilan tutashadi. Bir lahza o‘sha nuqtda turib qoladi, so‘ng o‘zga nigohda yengil titroq qoldirgancha deraza tomon qochadi.

– Rostdan ham teleminora ko‘rinmayapti...

– Ha ko‘rinmayapti. Bu zaharli tutundan.

– Dahshat!

– Qiziq, odamlar namuncha beparvo, loqayd? Siz bu tutun o‘lgurning qanday jiddiy muammo ekani haqida o‘ylab ko‘rganmisiz.

– Ehtimol, – ayol odob yuzasidan sezilar-sezilmas jilmayadi.

– Aslida tutun va odamning jinsi bir, har ikkisi ham zaharlaydi.

Erkak chalishtirgan qo‘llarini stol chetiga qo‘ygancha, qad rostlab o‘tiribdi. Qahvaxona chirog‘i uning iyagi, bo‘yinlarini yoritadi. Sinchikov ayol nazari erkakning soqoli chala olingan qanshariga tushadi. Buni payqagan erkak qo‘llarini bo‘yinbog‘i tuguniga olib boradi va chuqur xo‘rsingancha so‘zida davom etadi:

– Har na bo‘lganda ham, siz bilan ochiq gaplashishib olishimiz kerak, to‘g‘rimi? Uyaladigan yoshda emasmiz...

– Men ham shuni aytaman.

Chehrasi yorishgan ayol boshini ko‘targancha, qo‘llarini kastumi yoqasiga eltadi. Ochiq yoqa bo‘ylab g‘imirlayotgan barmoqlarni och pushti rangga bo‘yalgan uzun tirnoqlar bezab turadi. Qiziq, buni erkak ko‘rdimikan?!

– Menimcha, kishi o‘zini har qanday xijolatpazliklarga oldindan tayyorlab borishi kerak.

– Shunday deng?

– Siz bilan nikoh tashkilotining ma'lumotnomasi orqali topishdik, – bu dalildan hech qayoqqa qochib bo'lmaydi... Lekin hadeb xijolat bo'laversak...

– Meni bu sira ham tashvishga solayotgani yo'q, agar...

– Rosti bilanmi?

– Bizda shunchaki dadillik yetishmayapti, xolos.

– Nahotki? Bu bilan meni xotirjam qildingiz, – erkak ko'kragiga chalishtirgan qo'llarini yoyib, yonboshiga egiladi. Yon cho'ntagini titkilab sigareta qidiradi. – Ochig'i bu meniham sira tashvishlantirgani yo'q. Qolaversa, gap oila qurish haqida ketar ekan, kartotetakalarning ashaddiy ixlosmandiga aylanam. Oilam mustahkam bo'lsin desang, har qanday muhabbat va boshqa mayda-chuydalardan oldin, aqlni ishga solish kerak. Fikrimga qo'shilarsiz?

– Biz shunchaki ko'nikolmayapmiz.

– Ha, albatta, siz haqsiz, – finjonga egilgan erkak bir ho'plab qahvani tugatadi. Shoshilib sigaret tutatar ekan, bo'sh qo'li bilan bo'yinbog'ini to'g'irlaydi. – To'g'risini aytsam, tezroq javobingizni eshitgim kelyapti...

– Javobimni?

– Agar sizga yoqmasam to'g'ri kelmaysiz deng, qo'ying. Xafa bo'lmayman.

– Bilasizmi men... Ya'ni men o'ylagandimki, siz bilan uchrashuvimiz qiziqarliroq bo'larmikin, deb...

– Nega? Axir siz, so'rovnomaga yozgan javoblarim bilan yaxshilab tanishmaganmisiz?

– Albatta tanishganman, hatto yod bilaman, desam bo'ladi.

– Men yolg'on yozmaganman.

– Meni yaxshi tushunmadingiz... Gap shundaki, ba'zi savollarga bu tarzda javob topib bo'lmaydi. Axir biz imtihon topshirayotgan talaba emasmiz-ku.

– Qanaqa imtihon? – erkak tizzalariga to'kilgan kulni qoqa-qoqa bosh silkidi. – Ha, ha, ajoyib tashbeh, xuddi maktab o'qituvchisiga o'xshaysiz. Albatta, siz haqsiz, bor boricha, yo'q holicha. Siz jo'ngina imtihon javoblaridan ko'ra ko'proq narsa kutgansiz.

Demak, men imtihondan yiqildim. Ko‘rib turganingizdek bor-yo‘g‘i bir firma xizmatchisiman, so‘rovnomada yozganlrimdan ortiq, hech narsa yo‘q menda. Qidirib ovora bo‘lmang, kunduzi chiroq yoqib topolmaysiz.

– So‘rovnoma ko‘p narsani hal qiladi, deb o‘ylaysizmi? Demak, mening so‘rovnomam ham...

– Shunday desam ham bo‘ladi. Men sizga aytsam, so‘rovnomangiz ko‘glimdagidek bo‘lib chiqdi.

Ayol nigohini yerga olganicha pastki labini tishlaydi. Ovozidagi sarosimani yashira olmaydi.

– Xulosa chiqarishga biroz shoshilmayapsizmi? Qaysi odam o‘zi to‘g‘risida bor haqiqatni yozsin.

– Nima bo‘lganda ham, shunisi aniqki, siz aynan men qidirgan, ayolsiz.

– Xo‘sh, keyinchi...

– Keyinmi, menga kerak odamsiz. Yana nima deyishim mumkin?

Ayol qimtilgan lablari oralatib uf tortar ekan, oyoqlarini chalishtiradi, egilgan qomati biroz rostlanadi.

– Bularning barisi odamovligingizdan, buning ustiga biroz beparvoligingiz ham yo‘q emas, shundaymi? Sizning pokiza, oqko‘ngil odamligingizni darrov payqagandim. Shuning uchun ham sizda to‘xtadim...

– Qo‘ysangizchi, – erkak gugurt chaqib ayol lablarida mual-laq turgan sigaretga tutadi. – Firmada nima ish qilishimni bilasizmi o‘zi?

– So‘rovnomadagi javobingizga ishonadigan bo‘lsam, par-doz buyumlari ishlab chiqarish bo‘yicha tadqiqot olib borasiz.

– Bo‘lmag‘ur narsalarni tadqiq etaman.

Ayol birinchi marta yayrab kuladi. U chekishni ham qiyib qo‘yardi.

– Bu qadar ko‘nglimni ochgan odamga begona deb qaray olmayman!

Erkak boshini xiyol egib, sigaretasini o‘chirar ekan, ayolga savolomuz tikiladi.



– Pardoziy buyumlari nima ekanini bilasizmi? Reklama bo‘limidagilar uchun balki, ular ayol qiyofasining ko‘rki hisoblanar. Ammo biz, ishlab chiqarish bo‘limidagilar uchun, bu – tana uchun zararsiz, arzon, ko‘plab ishlab chiqarish mumkin bo‘lgan turli yog‘lar, polimer birikmalardan boshqa narsa emas.

– Shunday gaplarni gapiryapsizki...

– Shunday deb o‘ylaysizmi?

– Balki, siz haqdirsiz, ammo, shunga qaramasdan... – Ayol kuldonda tutab yotgan sigareta qoldig‘i ustiga bir necha qoshiq erigan muzqaymoqni to‘kadi. – Gaplaringiz odamda qandaydir noxush his uyg‘otadi, bilasizmi?..

– Mening esa parvoyim falak, jon-jahdim bilan ishlayveraman, vijdon azobini bilmayman.. Shuning uchun ham zaharli tutunlar xususida bir narsa demayman. Siz meni juda oq ko‘ngil dedingiz... Xohlardimki bizning oramizda anlashilmovchilik bo‘lmasin. Ha, men yolg‘on-u munofiqlikni, soxtakorlikni bilaman, bilib turib shu axlatga qorishib yurgan odamman.

– O‘ta serhayajon odam ekansiz...

– Biroz adashyapsiz, bilmaysizki, men haqiqiy qotilman?

– Qotilsiz?

– O‘n sakkiz murda – buni aniq bilaman. Va ular meni tunlari sira bezovta qilishmagan.

Ayol tag‘in sigareta tutatadi, ichiga chuqur tortadi bir pas tutunni chiqarishga shoshilmaydi, so‘ng cho‘zib tepaga puf-laydi.

– Demak, qo‘limni so‘rayotgan kimsa, u haqda gazetalarda yozayotgan, vahshiy ekan-da?

– Bilmadim, balki, bu sizning hafsalangizni pir qilar, lekin vahshiy deganingiz bor-yo‘g‘i sobiq askar, xolos.

– Ha, endi bildim, siz urushda qatnashgansiz.

– Shundayku-ya, ammo urushda odam o‘ldirish qotillik emasmi?

– Menimcha, omon qolmoq uchun odam o‘ldirishdan qochib bo‘lmaydi urushda.

– Bu urushni orqavarotdan eshitgan yoki kinolarda ko‘rgan-

larning fikri, go'yo urushda o'zni himoya qilish vajidan odam o'ldiriladi, aslida na otishga hozir turgan qurol, na uni siqib turgan qo'l bunday o'ylamaydi. Urushda hujum eng yaxshi himoya. Ya'ni urush degani qonun bilan himoyalangan qotillikdir.

– Mening ham urushni oqlash niyatim yo'q, aslo!

– Nega endi? Shaxsan men urushni hecham qoralamoqchi emasman. Garchi o'zimni qotil atab boshingizni qotirayotgan bo'lsam-da, gap bor-yo'g'i arzimasa sanoq – o'n sakkizta murda haqida ketyapti. Baxtingami, baxtsizligimgami, bilmadim, men oddiy bir askar edim, ustiga ustak juda yomon otar edim. Bu gaplarni qo'ying, yaxshisi tashqariga nazar soling. Mana shu olamon izdihomi urushda qatnashgan qancha o'qchilarni, qanchalab to'pchilarni olib ketmoqda. Ularning o'zlari bo'lmasa, bolalari, aka-ukalari urushni ko'rishgan. Xo'sh, aytingchi, ulardan qaysi birining meni ayblashga haddi sig'adi?

– Albatta, hech kimning. Ayblashga haqlari ham yo'q.

– Xuddi shu sabab men ham ularni ayblolmayman.

– Chamamda shuncha vaqt bo'ydoq yurganingizni anglagandekman.

– Men esa nega so'qqabosh hayotimga chek qo'yimoqchi ekanimni tushunishingizni xohlardim.

– Jonim bilan tushunishni isitardim-u, lekin...

– Sizga aytayapmanku, aynan menga kerak odamsiz.

– Men o'ziga bino qo'yganlardan emasman.

– Albatta, bunga shubham yo'q.

– Siz bilan men tortinchoq odamlarmiz. Sizning naqadar shikasta, yumshoqko'ngil odam ekaningizni sezib turibman... Shunga qaramasdan, nega aynan men, sizga kerak odamligimni tushunolmayman... Ochiqroq aytolasizmi? O'ylaymanki, biz siz bilan anchayin do'stlashib qoldik...

– To'g'ri aytasiz. Aniqroq tushuntirsam ham bo'ladi. Mening qarorim shunchaki jo'n bir qaror bo'lganda edi, nikoh tashkilotiga murojaat qilib o'tirmasdim? Yo'q, qarorim qat'iy va aniq. Mana shu shaloq stol ustida kuldonning turgani qanchalik rost bo'lsa, so'zlarim ham shu qadar haqiqat.

– Ajoyib odam ekansiz, Xudo haqqi. Sizdan mamnunman! Ammo men o‘zimni go‘zal ayollar sirasiga kiritolmayman. Iyagim xuddi erkaklarnikidek, lablarim g‘azabnok odamnikiga o‘xshaydi.. Quloqlarim ham antiqa...

– Ammo siz bola tarbiyalashni qoyil qilasiz, men bu borada iste’dodingizni payqadam.

– Xuddi bolaga o‘xshaysiz-a. – Ayol qiyqirib kuladi. Aftidan suhbat unga yoqa boshlagan, uning qiyofasi labirint yo‘lakchalari bo‘ylab yo‘l izlayotgan o‘yinchini yodga soladi.

– Lekin bolaga o‘xshash kishi bilan bola o‘rtasida katta farq bor. Men aynan bolalar haqida gapiryapman. Nahotki, zaharli tutunlar ostida neftga do‘nib borayotgan bolakaylar olidida o‘zingizni aybdor sezmasangiz? Ularni shu rutubat olamidan qutqazib olishni nahot o‘ylamasangiz?

Ayol o‘zini stul suyanchig‘iga tashlab chalishtirilgan oyoqlarini namoyish qiladi.

– Taqvodor qariyaga o‘xshab gapiryapsiz. Men taqvodor emasman, ammo shuni bilamanki, hatto o‘ta erkatoy bolalar ham o‘zlariga nasib etgan tabiiy sharoitdagina o‘sislari lozim. Qolaversa, pedagogika ham bolalarni vaakum sharoitida o‘stirishni ta’qiqalaydi. Har ne bo‘lganda ham, oila qurishdan murod avvalo o‘z huzuringni o‘ylash.

– Sizni to‘g‘ri tushungan bo‘lsam, bolalarimizning vabo muhitida yashashidan zarracha tashvish tortmaysiz, shundaymi?

– Bolalarimizning?

– Xuddi shunday, bizning bolalarimiz. Nima deb o‘ylovdingiz, axir men yetim qo‘zi asrash darajasida taqvodor emasman.

– Eldan burun bu haqda gapirish, qadaydir g‘alati tuyulyapti...

U so‘zi oxiridagi tovushlarni ayollarga xos nazokat bilan yutib yuboradi. Go‘yo bu bilan ko‘ngli to‘lmaganini ifodalaydi. Erkak buni ilg‘aydi, ovozida norozilik ohanglarini yashirishga tirishib, qat’iy suratda deydi:

– Noto‘g‘ri tushundingiz. Men o‘z bolalarimni nazarda tutayapman.

Ayolning yuzlari ko'karib ketadi.

– Qiziq. So'rovnomangizni diqqat bilan o'qib chiqqanman.

Unda bolalarim yo'q, deb yozgansiz.

– So'rovnomadami?.. – Erkak bo'sh finjonga qarab tamshanib qo'yadi. – Ha, rostdan ham, so'rovnomada...

– Nima, to'g'risini yozmaganmisiz?

– Yo'q, buni butunlay yolg'on ham deb bo'lmaydi.

– Qarang-a? Naqadar umri sabil yolg'on...

– Sizga qanday tushuntirsam ekan? So'z siz o'ylagandek, so'rovnomada zikr etiladigan bolalar haqida emas...

– „Tilla bolakay“ haqidami bo'lmasam?

– Ha, shunday desa ham bo'ladi...

– Balki, siz hozircha tan olmagan, nikohsiz tug'ilgan boladir?

– Sizga nima deyapman, so'z tan olingan yoki tashlandiq bola haqida ketayotgani yo'q.

– Hech narsaga tushunmayapman.

– Nafsilamrini aytganda, ular bu olamda yo'q, ayni paytda, ularni yashamayapti deyish ham to'g'ri emas...

Ayol nigohini erkakka qadagancha boshini egadi, tishlarini namoyish etib kulimsiraydi, o'z xayollaridan qutilmoqchi bo'lgandek, boshini ortga silkiydi.

– Tushunarli... Agar siz shuni nazarda tutayotgan bo'lsangiz, men tushundim.

– Nimani tushuna qoldingiz?

– Shunchaki siz ularni tushingizda ko'rib turasiz.

– Tushimda ko'raman, desam ham bo'ladi. Faqat ro'yoda emas. Ular nafas oladilar, qo'l-oyoqlarini qimirlatadilar... Ha, ha ochiq ko'z bilan ko'riladigan tushda...

– Juda qiziq, hikoyangiz juda qiziq...

– Sizga aytdim-ku, yana qaytarib aytaman, ular hamma bolalarga o'xshash bolalar. Biologik nuqtayi nazardan ham, tip-pa-tirik bolalar. Agar sizni ishontirolgan bo'lsam...

– Ular qayerda yashashadi?

– Albatta, mening uyimda, aniqrog'i, uyimning yerto'lasida. Ammo men yerto'la atagan u joy shunday jihozlanganki, bo-

lalar o'zlarini juda yaxshi his qiladilar. Olamdan tom ma'noda ajratib qo'yilganini mustasno etganda, havas qilarlik joy u...

– Juda qiziq, davom etaveringchi...

– Gaplarimnig bari rost.

– Gaplaringizni o'ta jiddiy qabul qilyapman.

– Bolalarim ikkita: kattasi o'n uch, kichigi to'qqiz yoshda... Bilasizmi meni nima tashvishga soladi: mana siz ular bilan do'stlashib keta olasizmi, bunga misqolchalik bo'lsa ham umid qilsa bo'ladimi? Jilla qursa, umid qilishimga ijozat bering.

– Nima desam ekan, sizning, chindan ham, xohishingiz shu bo'lsa...

– Xayriyat-e! Sizga yana bir savolim bor, ma'zur tuting... Agar siz ularning o'rnida bo'lsangiz... Yo'q, bu gaplarni be-korga aljiramayapman. Har holda, savolimni mazmuni shunga o'xshashroq...

– Mening bir uzoq qarindoshim, xolam bo'lardi. Uning ko'p mushuklari bor edi...

– Mushuklari?

– U to'rt avlod mushuklarini saqlab kelardi, o'ttiztacha. Qizig'i shundaki, ularni hech kim ko'rmagandi.

– Nima meni telba xolangizga o'xshatyapsizmi?

– Xolam hech qanaqa telba-pelba emasdi. Yaqinidagi baliq do'konining xo'jayini har kuni o'ttiz mushukka yetarli ovqat olib kelardi. Mushuklar rosti bilan bor edi. Men bunga sira shubha qilmaganman. Kim uchundir, o'ttiz mushukning borli-giga ishonishim zarur ekan, nega uni xursand qilmay.

– Buni qarang-a, siz shak-shubhasiz menga kerak odamsiz. Endi savolimni bermasam bo'lmas. Bolalarimiz uchun qanday osmonni ravo ko'rardingiz? Demoqchimanki, shu zaharli os-mon o'rniga...

– Dengiz yoqasidagi, ko'zni olar darajada tiniq zangori os-monni.

– Nima uchun?

– Yoki kuz osmonini. Kuz – go'zal fasl, salqinlik, mevalar g'arq pishgan...

– Bunga ishonib bo‘lmaydi.

– Shunday deb o‘ylaysizmi?

– Mening bolalrimga, qachonlardir, o‘likka aylangan yer sharida yashashga to‘g‘ri keladi. Ular uchun hech qanday faslning ahamiyati bo‘lmaydi. Hozir ular uchun shunday muhit yaratish kerakki, keyinchalik har qanaqa g‘ayrioddiy sharoitlarga o‘rgana olsinlar.

– Zaharli tutunga hammi?

– Yo‘q, tutun va odamlar bundan mustasno, payti kelib ular bir-birlarini yeb bitirishadi. Shu bois ham men, dastlabki paytlardan boshlab, ular uchun sahro osmonini tanlaganman. Albat, bu o‘rinda, iqtisodiy imkoniyatimning ham dahli yo‘q emas.

– Bolalar uchun sahro osmoni, axir bu o‘ta shafqatsizlik emasmi?

– Ammo ularga yaqin joyda suv havzasi ham bino etdim. Bilasizmi, shunda nima yuz berdi?

– Nima yuz berdi? Bu nima deganingiz?

– Bolalar haqiqiy yovvoyi jonzotlardek... suvni hididanoq topib olishdi.

– Ajabo!.. Tomog‘im ham qaqrab ketdi, men uchun choy buyura olmaysizmi?

– Balki, choyni mening uyimda icharmiz? Xushbo‘y choylarim bor, damlab berardim. Qolaversa, bir qarorga kelishingizdan oldin, bolalar bilan uchrashsangiz yaxshi bo‘lardi...

– Uyingizga bordim ham deylik, u yerda sahro osmonini ko‘ramanmi?

– Yo‘q. Sahroni yo‘qotdim. Hozir bolalarimni jungliga, uchinchi muz davriga ko‘chirdim. Hozir unda katta-kichik dinozavrlar sayr qilib yurishibdi, shu bilan birga, o‘simliklar ko‘mirga, jonzotlar neftga aylanish jarayonini boshdan o‘tkazishyapti. Ushbu davr ko‘p tomonlama bizning zamonamizga o‘xshaydi.

– Shunday ekan, qachonlardir bolalaringiz ham bizning davrimizga yetib kelishmaydimi? Qachonlardir bizning ajdodlarimiz dinozavrlar mavsumini ham yashab o‘tishgan-ku...

– Yanglillasiz. Mening bolalarim insoniyatning yovvoyilik davrini boshdan kechirishmaydi. Axir bizning fan-texnikaga doir bilimlarimiz bor. Ustiga-ustak, siz ularning tizimli bilim olishlari uchun yordamingizni ayamasangiz, bolarning madaniylashuv jarayoni yovvoyi ajdodlarimiznikidan albatta boshqacha bo‘ladi.

– Bugungi zamon haqida ularga nima deysiz?

– Nega ularga bu haqda gapirishim kerak?

– Axir ularni tashqi dunyodan mutloq ajratib qo‘yish mumkin emas-ku. Tashqaridan avtomobillar shovqini keladi, savdogarlar eshik qoqib, nimalarnidir taklif qilishadi...

– Yerto‘la devorlari shunday ishlanganki, tiq etgan tovushni o‘tkazmaydi. To‘g‘ri, bir marta toza bo‘larim bo‘lay degan. O‘shanda yerto‘la devori bo‘ylab o‘tgan suv quviri yorilib ketgandi. Yerto‘lani suv bosay dedi. Shunda bolalarni sandiqqa qamab, ustani chaqirishga to‘g‘ri kelgandi. Lekin bolalar sandiq tirqishdan hammasini ko‘rishgan ekan. O‘zimni yo‘qotib qo‘ygandim o‘shanda. Voqeani qanday izohlashni bilolmasdim.

– Ular sizni bilishadi, demak, odamzot haqida ma‘lum tasavvurlari bor. Shunday ekan quvurchi-ustani ko‘rish bilan tasavvurlari ostin-ustun bo‘lib ketmagandir, deyman.

– Yo‘q, men ularni uchalamizdan boshqa odam zoti yo‘q, degan fikrga ishon tirganman.

– Buning uchun yangi tarix to‘qib chiqarishingizga ham to‘g‘ri kelgandir?

– Quvurchi-usta haqida bolarga shunday dedim: diqqat bilan eshitinglar, siz ko‘rgan jonzot ajdar – ruh bo‘ladi. U har qanday qiyofaga kira oladi, hatto otangiz qiyofasiga ham.

– Bundan chiqadiki, siz bolalarning tasavvurlarini cho‘p-chakka aylantiribsizda?

– Ha, siz haqsiz. Yana ularga aytdim-ki, ajdar goh ko‘rinib, goh g‘oyib bo‘lib turadi... Bu men uchun juda qulay izoh bo‘ldi... Bunga qadar ularga oziq-ovqat olib kirar ekanman, yemishlarning qanday paydo bo‘lganini tushuntirishga juda qiynalardim. Endilikda ajdar – ruh xohlasa sosiska, xohlasa xitoycha ugra, boringki istalgan ovqat qiyofasiga kiraveradi...

Ayol kulimsiragancha oyoqlarini uzatib yig'ib, tizzalariga qo'lini qo'yadi. Favqulodda diqqatbozlik o'rnini ayolga xos nazokat egallaydi. O'zini bo'sh qo'yadi, chehrasida xotirjamlik zuhur etadi.

– Yuring, bolalardan xabar olamiz... Bola tarbiyalayman degan odam faqat ularning o'qishlarini emas, o'yinlarini ham kuzatib turish kerak!..

– Darvoqe, hov anavi ko'cha to'ldirib o'tayotganlarni haliam odamlar deb o'ylayapsizmi?

– Yo'q ajdar – ruhlar deb, yoki... bo'lajak neft quyqalari deb... Atrofimizni esa tosh davrning ko'mir konlari qoplagan...

Ular o'tirgan joylaridan xuddi kelishib olgandek bir paytda turishadi. Ammo qahvaxona haqini erkakning o'zi to'laydi. Lift-da tushishar ekan, ayol erkakning keng yelkalarini o'z yelkasiga chog'lab ko'radi, so'ngra uning yuziga ko'z tashlab, mayingina kulimsirab qo'yadi. Erkak javob qilish o'rniga ko'zlarini biroz qisganча, ayolning tirsagidan tutadi. Ular yana o'sha zaharli bug' va tutunlarga chulg'angan ochiq havoga chiqishadi. Ortdan qaraganda har ikkisi kiygan kiyimining aynan bir joyi bujmayib qolgani ko'zga tashlanadi. Go'yo ular o'n yillab birga yashashgan, uzoq vaqt yagona suyanchiqqa tayanib o'tirishgandek...

Elektrichkada to'rt bekat keladigan manzil taksida bir-ikki daqiqachalik yo'l, xolos. Odatda u avtobusda yuradi, ammo bugun o'zini bunday hashamatdan tiymagani ma'qul.

Erkakning rostdan ham uyi bor. Bu oddiy, yirik g'ishtdan qurilgan uy shahar tashqarisi atalgan hududda, kichkina, shinnam yer maydoniga ega hovlilardan birida joylashgan. Uy hatto tomining rangi bilan ham, qatordagi uylardan farq qilmaydi. Yashilga bo'yalgan tunika tom, tom ostidan o'tkazilgan suv quviri ham shu rangda. Ammo hozir ayolni uyning haqiqatan mavjudligidan boshqa narsa qiziqtirmaydi. Unga shuning o'zi kifoya.

Erkak va ayol yana stol atrofida qarama-qarshi o'tirishibdi. Faqat bu safar choy ichishyapti. Stol qahvaxonanikidan ko'ra boshqacharoq ko'rinishda bo'lsa ham, shaloqligi bilan o'shani



eslatadi. Ayol bo'shagan sigareta qutisini buklab, likkilayotgan stolga qo'yadi.

– Bolalar hozir nima qilishyapti ekan?

– Soat nechchi bo'ldi?.. – Erkak qo'l soatiga tikilib o'ylana-di. – Ular ov qilishyapti.

Ayol kuladi va stul sunchig'iga o'zini tashlab sochini to'g'rilaydi. Keyin xonada hukm surgan besaranjomlikka qarab deydi:

– Siz, rostdan ham, yakka o'zingiz yashaysizmi?

Erkak ayolga sinchikov nigoh tashlaydi, uning yonidaligidan ko'ngli to'lgandek bo'ladi.

– Ochig'ini aytsam, nikoh tashkilotiga boshqa borishni xohlamasdim. Bolalar, men sizga aytsam, rosa ov qilishyapti hozir.

– Bugun nima ovlashadi. O'ljalari katta bo'ladimi yoki kichkinaginami?

– Ulkan dinozavr – bu aniq.

– A, ajdar – ruh ularni ajablantirmaydimi?

– Siz haqingizda ularga ko'p gapirganman.

– Men ham aqli bola bo'laman.

Ayol cho'qishtirmoqchidek piyolasini baland ko'taradi, erkak unga ergashadi. Shunga qaramasdan, ularning harakatlari-da biroz begaonasirash seziladi. Go'yo beg'am-u betashvishlik ularning yoshlariga yarashmaydigandek.

– Ammo bolalarim o'ta ta'sirchan, shuning uchun...

– Bo'lmasamchi, – shoshib ma'qullaydi ayol. – Bugun bir daqiqaga kirgandim... Endi qaytsam... Hammasi o'z vaqti bilan... Men bilan uchrashish uchun ularga biroz vaqt kerak.

– Yo'q, keling yaxshisi bolalarning o'zlaridan so'rab ko'ramiz. Agar ular sizni yaxshi qarshilasa, uchrashuvni ortiq cho'zish-ga hojat yo'q.

– Ha, albatta. – Ayol shu qadar uyalib ketadi-ki, hatto ko'zlarida yosh ko'rinadi. – Mayli, o'zlaridan so'rang. Agar qorinlari och bo'lsa, ularga ovqat tayyorlab beray.

– Yo'q, ovqatlanishlariga hali erta.

– Bo‘lmasa men nima qilay?

Ayol yanada qizarib ketadi, erkak esa buni sezmaydi ham. Piyolani qo‘liga olib xo‘rillatib choy xo‘plarkan, deydi:

– Yaxshi, ulardan hoziroq so‘raymiz... Choyni ichamiz-u so‘raymiz...

Ular xuddi don cho‘qiyotgan qushlardek, birvarakay choy ho‘plashga tushib ketishadi.

Erkak kutilmaganda qo‘lining orqasi bilan og‘zini artib o‘rnidan turadi, biroz sarosimaga tushgan ayol unga ergashadi. Erkak oldinda – izidan ayol.

– Bu oshxona.

– O‘h-ho‘!

– Bunisi yuvinish xonasi.

Erkak eshikni lang ochib, devoriga kafel terilgan yuvinish xonasiga kiradi; ayol ortda qolmaydi, biroq kirgan joyida to‘xtaydi. Qiziq. Kafel terilgan xona polining bir chetidan kafellar ko‘chirib olinib, yerto‘laga tushish uchun yo‘l qilingan, tuynuq og‘zidan qo‘pol qilib yasalgan shotining uchi ko‘rinib turardi.

Ayol savolomuz kuladi va shunday javob kutib alanglaydi. Erkak kulmaydi. Axir, qulingo‘rgilsin hazillar jiddiy turib qilinadi.

– Chiroqni yoqing, iltimos, eshikni yopishni ham unutmang.

Ayol eshikni yopar ekan, go‘yo qulog‘i tom bitganini his qildi. Aslida gap uning qulog‘ida emas, eshik yopilgan zamoni atrofni qabr sukunati qoplagandi. Eshikka qalin ovozyutgich mato qoplangan edi.

– Bolalar xonasi pastda.

Ayol erkakning „bolalar xonasi“ degandagi tovush ohangiga lol qoldi. Bu ohang haddan tashqari sirli, iliq, shu bilan birga tantanavor eshitalardi. Aftidan hozircha tashvishlanmasa ham bo‘ladi... Ehtimol hamma uylar shu kabi bolalar xonasiga egadir. Ayol bilmaydi, bolalar xonasi balki, shunday bo‘lishi kerakdir.

Zinaning yarmiga yetgan erkak mutlaqo tabiiy, xotirjam holatda ayol tomon qo‘l cho‘zadi.

– Boshingizni urib olmang.

Zina tugagan joyda hayvon terisi qoplangandek serjun, qalin yana bir eshik ko‘rinadi. Erkak yo‘g‘on ilgakni surib, eshikni ochadi.

Ostona hatlash bilan mavjlanayotgan tund yashil rang ko‘zga tashlanadi... Qoramtir-yashil nur chiziqlari o‘ynab turadi. Keyin dengiz qirg‘og‘ida sudralgan yog‘ochnikiga o‘xshash g‘ichirlagan ovoz eshitiladi.

– Toshko‘mir davri junglisi, – pichirlaydi erkak. – Bu tovush sudralayotgan dinozavrniki bo‘lsa kerak?

– Qandayin bepoyon jungli-a?

– Sizga shunday tuyulyapti. Aslida bu shaffof ekranlardan taralayotgan yorug‘likning soyasi, xolos. Ammo uni rostdan ham „bepoyon“ desa bo‘ladi.

– Yaxshilab qaralsa, balki, kedr daraxtlari ham ko‘rinar?

– Hu anov yoqda botqoq ham bor. Ustida suv yaltirayaptiku, ana...

– Buncha dim bo‘lmasa, bu yer.

– Topgan-tutganim shu xonaga ketgan... Ilgari yuramiz.

Kutilmaganda qandaydir mahluqning o‘kirigi eshitiladi.

– Nima bu?

– Argozavr. Yirtqich dinozavrlarning bir turi.

– Bunga qanday erishdingiz...

– Magnit lentasiga yozib olganman. Albatta, tan olishim kerak, haqiqiy dinozavr qanday o‘kirishini hech kim bilmaydi. Ularga biroz yaqin turdan faqat chinqiroq-echkiemar saqlanib qolgan, ammo uning chiyillashi dinozavr o‘kirigi bo‘larimidi.. Ko‘proq qurbaqa sayrog‘ini eslatadi. Lekin yaxshi tarbiya haqiqatdan ustun turadi. Ekrandagi yirtqichning gavdasiga, har holda, bu tovush to‘g‘ri keladi. Hozir eshitganlaringizning bari-si televizordan yozib olingan... O-o, bu yo‘lning davomi yo‘q, u yog‘i yo‘lning devordagi aksi... Bu yoqqa keling.

– Bolalar qani?

– Hozir birdan sapchib qolishadi. Kutilmaganda tashlanish ularning odatlari.

– O‘h-ho‘...

Bu ayol boshini qimirlatgan lahzada ro'y berdi. Ayolning chap yonidagi ulkan kedr shoxlari ilkis silkindi, yaproqlar oralab yastangan moviy osmon bag'ridan ikki bola mo'raladi. Ular qanday qilib bu joyda yashirinib olishgan, tushunarsiz edi.

Bolalardan biri, ehtimol kattasi bo'lsa kerak, ayolga kamon o'q talib turardi. Ikkinchisi saqich chaynar, shu asnoda darhol akasiga peshlash maqsadida bir qo'lida kamon o'qini tutib olgandi. Yuzlari murdanikidek, hatto undan-da battarroq, ko'karib ketgandi. Boshlariga go'yo kigiz qoplangan, suv ko'rmagani-dan bo'lsa kerak, uvadaga o'xshardi.

Erkak o'zini unutib qichqiradi, ammo bu harakati hayf ketadi, u kechikadi va kamondan birinchi o'q otilib chiqadi... Paykon g'uvvilagan ovoz chiqarib, ayolning bo'ynini yalab o'tadi. Agar ayol g'ayrishauriy tarzda chap berib qolmaganda naq bo'g'ziga sanchilardi. Paykon borib devorga urilar ekan, atrofni vahshiyona, vayron qiluvchi kuchning yovvoyi tovushi tutadi, bu sira ham bolakay otgan o'q-yoy tovushiga o'xshamaydi... Ayol yashil nur to'shalib yotgan yo'l bo'ylab qochar ekan, erkakning jon holatdagi chinqirig'ini eshitadi:

– Nima qilyapsizlar, mumkin emas!

Ingichka, chiyildoq, ovoz shunday javob qiladi:

– Ajdar – ruh!

– Yo'q, yo'q, bu axir onangiz-ku! U sizlarga sanashni o'rgatadi.

– Yolg'on. Ajdar – ruh.

Ayol yoldor eshikni qarsillatib yopgancha, zina bo'ylab qochishda davom etar ekan, unga ko'ylagining shitirlashi-da ta'qib bo'lib tuyuladi. U yuvinish xonasidan o'tib, ko'chaga otiladi. Shundan keyingina biroz sekinlaydi. Endi unga murdarang bolalar yetib olisholmaydi. Ammo, ayni paytda ayolni ta'qib etayotgan narsa na xavf-xatar, na qo'rquvga o'xshaydi.

Ayol tushgan elektirichka zaharli bug' va tutunlar buluti oralab, shahar markaziga tomon shoshadi. Vagonda bo'sh joylar ko'p, ammo u tutqichga yopishib olgan, dam-badam oynadan qarab qo'yadi. Oyna ortidan, bosmaxona mashinasidan chiqa-

yotgan gazetaga o'xshab, manzaralar safi tizilib o'tadi. Manzara oralab ayolning qimtilgan labi, yuzlari ko'rinadi. Daf'atan, oynada aks etgan qo'rquv izlari harakatga keladi. Bu paytda elektrichka vagoni maktab binosi ustidan oshib o'tardi. Dam olish kuni bo'lgani uchunmi, yoki bayram sabablimi bolalar siyrak ko'rinar, borlari ham maktab hovlisida g'imirlab yurishadi.

Ayol kulrang samoga qaraydi. Parishon nigohini enkaygan, zerikkan, tussiz osmondan ololmaydi. Yuragi avvalgidek tepa boshlaydi. U qo'lidan boshqa ish kelmaydigandek, labini yanada qattiqroq tishlaydi. Og'izini ochmasligi kerak, shundagina u, garchi osmoni bolalar xonasidagi singari tussiz bo'lsa ham, bugungisiga egiz yangi kunni kutib olishi mumkin.

Latsuko TAKAXASI

## KAPALAK MAVSUMI

Janob Nakamuraning xotini kapalakka aylanib qoldi.

Ba'zi og'ziga kuchi yetmaganlar Nakamura xonim erini tashlab boshqasi bilan qochib ketgan deb yurishibdi. Janob Nakamura esa bunaqa gap yo'q deydi. Men unga ishonaman.

Tongda uyqudan turgan Nakamura qarasa yonida xotini yo'qmish. To'shakda tungi ko'ylagi yotganmish. U xotini chaqiradi. Shunda oshxonadan mittigina, chiroylikkina kapalakcha uchib kiradi. Ko'kragiga qo'nib mo'jaz qanotchiliri bilan uni silab-siypaydi. Kapalakcha uning xotini bo'ladi. Nakamura dahshatdan o'zini yo'qotib, uy boshqaruvchisi yoniga chopib chiqadi. Shifokor chaqirishini iltimos qiladi. Ammo janob Nakamura hayojondan qaltirar, gaplari poyma-poy chiqarkanki, bundan bir narsa anglamagan boshqaruvchi shifoxona o'rniga politsiya raqamini terib yuboradi. Oradan uch daqiqa o'tarotmas deraza ortini politsiya mototsikllarining vag'-vug'i tutib ketadi, uyda qiyomat qo'pgandek bo'ladi...

Shu kuni izquvar janoblar uyimizga bostirib kirishdi-da, so'roq boshlashdi. Nima bilsam ularga ro'y-rost aytib berdim. Kecha kechqurun Nakamura xonim bilan zina maydonchasida uchrashib qolgan edik. Biror g'ayritabiiy narsani sezganim yo'q edi. To'g'ri, biz gap sotishgacha bormadik. Ammo Nakamura xonimning rang-ro'yi, gaplari hamishagidek edi. Qayoqdan kelayotgan edi? Menimcha, bozor-o'char qilib kelayotgandi. Biroq qo'lida katta yukxalta yo'g'idi. Soat o'n ikkilarda uyiga qaytayotgan janob Nakamurani ko'rdim. Uning bir yomon odati bor: har safar ishidan shirakayf, quvnoq holatda keladi. Cho'ntagida kaliti bo'lishiga qaramasdan eshik oldida uzoq tu-

rib qoladi. To xotini kelib, o‘z qo‘llari bilan eshik ochmaguncha qo‘ng‘iroq tugmasini bosib turaveradi. Qo‘ni-qo‘shni bilan ishi yo‘q. O‘sha kuni ham shunday bo‘ldi. Nakamura xonimning eshik ortida turib eriga javob berganini ham eshitdim. Keyin nima bo‘ldi? Bilolmadim.

Aftidan izquvarlar Nakmuraning o‘zi jahl ustida xotini o‘ldirmaganmikan, degan shubhaga borishyapti. Bo‘lmagan gap. Nakamura xonim yuvvoshgina xotin edi. Eri bilan sira aytishmasdi. Qonunshunoslarning fikricha, dim havo janob Nakamuraning miyasini aynitgan. Shuning uchun kapalak haqida cho‘pchak to‘qib o‘zini ham, boshqalarni ham ishontirmoqchi bo‘lib yuribdi. Izquvarlar shunday deb kulishga tushdilar. Menga esa buning sira kulgili joyi yo‘q. Men janob Nakamuraning gaplariga o‘sha zahotiyoq ishonganman. Nega uning xotini kapalakka aylanadi? Buning nimasi tushunarsiz?.. Masalan men voqeani eshitishim bilan sariq kapalakchani tasavvur qilganman. Albatta men haqman! Axin Nakamura xonim sariq rangni juda sevardi-da. O‘ziyam sariq rang uni rosa ochib yuborardi. Ko‘ylagi-yu boshqa kiyimlari ham sap-sariq bo‘lardi. Balki, Nakamura xonim shaharning oppoq, baland devorlaridan bezib, ozodlikni, osmonni qo‘msab qolgandir. Bu uydan allatovur sovuq nafas ufurib turadi. Har bir xonadon kar-soqov – qafasning xuddi o‘zi. Ular hayot nafasini to‘sib turadi. Yolg‘izlatib qo‘yadi. Kechqurun, uy egalari to‘p-to‘p bo‘lib uyga qaytishganda bu uyga ham bir lahza hayot nafasi kirgandek bo‘ladi. Ammo uzun kunlar yolg‘izlikda, g‘arib xayollar quchog‘ida yorilib ketay deysan.

Izquvarlar bir ish chiqara olmay, ortlariga qaytib ketishgach, yon qo‘shnimdan hol so‘ray deb Nakamuralarnikiga chiqdim.

Eshik ochiq ekan. Uni ohista ochib kirganimda janob Nakamuraning tovushi eshitildi:

– Xayriyat, o‘zimiz qoldik. Endi tashvishlanmasang ham bo‘ladi...

Qo‘rqib ketdim. Janob Nakamura oshxonada, stolga egilib yolg‘iz o‘tirardi. Bu qanday o‘tirish, qanday g‘alati ovoz – tanta-

navor, sirli. Qo'yingki, monologini takrorlayotgan aktyor. Unga bir gap bo'lganmi o'zi?.. Ammo lahza o'tmay men barini tushundim. Stolda sariq kapalakcha qo'nib turardi. Shunday nafis, shunday beozorki! U o'zini namoshish qilayotgandek qanotlarini goh yoyar, goh yig'ar edi. Xotiniga mahliyo bo'lib qolganidanmi, janob Nakamura mening shu yerdaligimni sezmedi ham.

– Nima deysan?.. Aytaver, iltimos! O'z yostiqdoshingdan ham uyalasanmi?..

Birovlarning ko'ngil siriga o'ch emasman. Ammo hozir shunchalik hayratga tushgandimki, tilim tanglayimga yopishib, turgan joyimda qotib qolgandim.

– Bo'ldi asalim, tushundim, tushundim...

Janob Nakamura quv nab bosh silkdi va qo'lini cho'zib kapalakchani oldi. Uni yuziga yaqin keltirib, shiringina pichirlashga tushdi.

– Go'zalim... Asalim... Sevgilim mening...

Hayajondan biroz bo'g'ilgan erkak ovozi. Ehtirosli pichirlash, hansirash, yana shivirlash... Go'yo boshqa dunyoga kelib qolgandekman. Birdan janob Nakamura qandaydir g'alati, kutilmagan harakat bilan yuzini kaftiga bosdi.

Avvaliga nima gapligini bilolmay baqrayib qoldim, keyin hammasini tushundim-u orqamga qaramay qochdim.

Uyimga uchib keldim. Ammo ancha paytgacha o'zimga kelolmadim. Yuragim g'o'yo quturgan itdek o'z-o'zini tishlar edi. Qaynoq nafaslar... Olam unutgudek ajobtovur chehra... Titrayotgan taram-taram oq badancha... dirillab turgan sariq qanotchalar... Jilov bilmas ehtiros... Ha, ha u bor-yo'g'i zig'ir-dekkina, erkak kaftida zo'rg'a ko'rinib turgan kapalakcha edi. Men bir lahzagina mardona erkalashdan erib borayotgan ayolni mikroskop ostida ko'rgandek bo'ldim. Oqibatini tasavvur qilolmadim. Yuragim qinidan chiqib ketay dedi.

Nima bo'lsa ham men juda baxtiyorman. Go'yo bu mo'jiza menga atalgandek. Axir yaqindagina xususiy uylarda turmush kechirayotgan uy bekalari haqida material tayyorlash uchun televedeniyadan buyurtma olganman-da! Gapni nimadan bosh-



lashni bilmay kalovlanib yuruvdim! Mana mavzuning o‘zi kaf-timga qo‘nib turibdi. Yozilajak pyesam sarlavhasi miyamda chaqindek yilt etdi. Albatta, albatta „Kapalak mavsumi“! Dar-hol bosh muharrirga sim qoqdim:

– Sarlavha tayyor!

– Nima, nima?.. Kalalak?..Bu haligi uchib yuradiganmi? Hm... Qanday yozmoqchisiz?..

– Qanday yozishim bilan ishingiz bo‘lmasin. Tashvishlan-mang, o‘zingizni bosing. Bu safar antiqa asar yozishimga ishonaman! – shu so‘zlarni aytib, go‘shakni qo‘ydim.

Yer yutkur tanqidchilar shu paytgacha nima yozmay: „sxema-tik“, „obrazlilik yo‘q“, „hissiyot yetishmaydi“, „hayot haqiqati aks etmagan“ degan tuzsiz gaplar bilan asarimni yerga urishadi. Endi hammasi a‘lo bo‘ladi. Faqat boricha yoza olsam bas. To‘qib-bi-chish shart emas. „Kapalak mavsumi“... Bu mavzuni bir umr kutib yashagandekman. Faqat yilt etgan chaqin yolqini: so‘z yomg‘iri qaqrab yotgan qog‘oz betini gullarga burkagay.

Tonggi sayrni sevadigan erimning qaytishini sabrsizlik bi-lan kutar edim. U eshikdan krar-kirmas hamma gapni aytib ber-dim. Ya‘nikim, ko‘rganlarimni qo‘shib-chatmasdan suratdagidek chizib berdim. So‘nggi manzarani tasvirlash xiyla og‘ir keldi. Erimdan uyaldim. Aftidan biron so‘zimga ham ishonmayotgandi. Barini ichidan to‘qib chiqaryapti deb o‘ylardi.

– Negadir ishongim kelmayapti... Qanday qilib odam kapa-lakka aylanib qoladi?

Bu odamni nima qilsa bo‘ladi, axir! Uning qo‘ni-qo‘ni bilan ishi yo‘q. Axir bu: falon qo‘shni yangi ko‘ylak sotib olibdi, pisma-don qo‘shnining ayolini begona erkak bilan ko‘rishibdi degandek mayda gap emas-ku! Men borini gapirdim. Aftimdan cho‘pchak aytmayotganimni sezdi chog‘i, erim o‘ylanib qoldi. Keyin so‘radi:

– Qiziq, qanday qilib u ayol kapalakka aylanib qoladi!

Qanday qilib? Nimaga? Nega u gapni tushunmaydi-a! To‘g‘-risini aytsam, ko‘rganlarimga o‘zim ham ishonolmayapman. Ammo Nakamura xonimga ishonaman. Bunday holatda „nima-ga“ deb savol berish murdadan „nega o‘lding“ deb so‘raganday

gap. Joniga qasd qilmoqchi bo'lgan odam uchun minglab sabablar bo'ladi. Ammo hech kim ularni dastak qilib o'zini o'ldirishga jazm etmaydi. Aqli bor odam doimo hayotni tanlaydi. Joniga qasd qilgan odam borki yo telba yo ko'r bo'ladi. Orsiz o'lim unga ozodlik sari yo'l bo'lib ko'rinadi. Kapalak bo'lish o'zini o'ldirishdi osonroq emasmi? Bunda tamom yo'qolmaysan, boshqa shaklda yashayverasan. O'lim esa yo'qlikdir.

Esimda, bir safar avval bolasini keyin o'zini o'ldirgan ayol haqida yozishgandi. O'limi oldidan ayol shunday xat qoldirgan ekan: „*Mudom uyda yolg'iz o'tirish jonimga tegdi. Erimning qo'li ishdan bo'shamaydi. Doim kech qaytadi. Men kechki ovqatga jam bo'lib o'tirgan oilalarga havas qilaman...*“

Bu ayolni sira tushunolmayman, Nakamura xonim bo'lsa boshqa gap. Bir fransuz yozuvchisining shunday so'zlari esimda (ismi Bovazar xonim edi shekilli): „Uy bekasi misoli pillaqurti. Har kuni ovqat qiladi, kir yuvadi, uy supuradi – tinimsiz qobig'iga o'raladi. Ayni damda qobig'ini yorib chiqib, erkin, mo'jaz kapalakchaga aylanishni orzu qiladi“.

Kapalakka aylanish juda ajoyib bo'lsa kerak! Ajib kunlarning birida kapalak bo'lib uyg'onasan. Kuni kecha rutubat ichra qovog'ini solib turgan osmonning quyosh nurlariga cho'milayotganini ko'rasan. Dala-dasht, dov-daraxt yam-yashii. Gul bo'ylari mayin epkin aro taralib yotadi. Tasvirlashga til ojiz. Bepoyon o'rmonlar, yuksak cho'qqilar, toshqin daryolar – bari – bari seniki. Kuni kecha seni yerga mixlab turgan zildek tana o'mini sohir yengillik olgan. Harir qanotchalarini silkitib – silkitib o'ynaysan. Zangori ummonda charx urasan. Shunda asl vatan mehri-yu chin hayot sehrini his etasan... Cheksiz samo bag'riga singgib ketasan. Borgan sari ko'ngling ichra ishq olovi gurullaydi.

Bolaligimdagi bir voqea sira esimdan chiqmaydi. Shom arafasi edi. Sariq gullar mavjlari ichra kapalak quvib yurardim. Sariq kapalaklar shafaq rangi bilan qo'shib ketgan, ularni tugayotgan kun rangidan ajratib bo'lmasdi. So'ng quyosh ena boshladi. Osmon och tillarang tusga kirdi. Shundan so'nggina men tepam-

da uchib yurgan kapalaklar o'ynini ilg'adim. Ular ko'z o'ngimda raqs tushishar, go'yo yashil tabiat ham o'z tusini kapalak sayriga yo'llagandek edi. Havoda ajib bir uyg'unlik, gul va kapalaklar bazmi hukm surardi. Butun olam bazmgohga do'ngandi go'yo. Boshim aylanib o'tirib qolganimni, tomirlarimdagi qon gupurib osmonga – kapalaklar bazmiga oshiqqanini elas-elas xotirlayman. Shunda tanam vaznini yo'qotib, yo'qlik dunyosiga singgayotganimni his etganman. O'sha holatimni hamon tushunolmayman. Hozir ham eslayman – u vujud-vujudimni o'tkir, zavqli, yoqimli bir og'riq qamrab olganini tuyaman.

Xayol olib qochibdi. Birdan eshik taqilladi. Janob Nakamura ekan. „Qo'ng'iroq qilib olsam maylimi“, deb so'radi.

– Uy boshqarmasidan qo'ng'iroq qilishni xohlamasdim. Yana noto'g'ri tushunishadi deb qo'rqaman, – izoh berib dedi u.

– Marhamat, bemalol, – uni ochiq yuz bilan uyga kiritdim.

Aftidan, mavzedagi oshxonaga yemak buyurmoqchi. G'ala-g'ovur bilan bo'lib tuz totmaganga o'xshaydi. Oshxona xodimlari bo'laricha chaqqon, ishchan. Hademay yemakni yetkazib kelishadi. Turmushi qanchalik to'kis bo'lmasin, odam degani ba'zi noxushliklarga ham tayyor turishi kerak. Ayniqsa xotining kapalakka aylanib qolgan bo'lsa... O'z xayolimdan o'zim xotirjam tortdim. Janob Nakamura bilan gaplashayotib, ko'nglimda to'fon uyg'otgan u narsalar haqida o'ylamaslikka tirishdim:

– Kechirasiz, gul do'konining raqamini bilmaysizmi?

– Gul do'konining?.. Kutilmaganda berilgan bu savoldan talmovsirab qoldim.

– Shunday... Yaqinda xotimni qishloqqa olib ketmoqchiman. Ungacha uyimda gullar tursin degandim. Xotimni gul desa jonini beradi...

Nakamura gul do'koniga qo'ng'iroq qilib, ko'p va xilm-xil gullarga buyurtma berdi. Ha, Nakamura xonim gullarni jada sevardi. Hatto bozor qilib qaytayotganida ham, xo'jalik xaltasidan mavsumbop gul yaprog'i mo'ralab turardi. Uning bir marta eridan xafa bo'lib gapirgani esimda: „Gul sotib olganimni ko'rsa, erimning jahli chiqadi. „Bo'lar-bo'lmasga pul

sarflama“ deydi. Ichkilik desa pulni ayamaydi. Ichmay kelgan kuni yo‘q... „Turmush – musht deganlari shu bo‘lsa kerak. Er-xotin umr bo‘yi birga yashashadi-yu bir-birlarini ilg‘ashmaydi. Musibat keldi deguncha boshlarida parvona bo‘lib qolishadi.

Nakamura choyga taklifimni ham rad etib, shosha-pisha uyiga jo‘nadi. Uyda yolg‘iz qoldirgisi kelmadi chamamda.

– O‘ylab ko‘rsam, to‘ydan keyin birinchi marta xotanim bilan birga o‘tirishim ekan... Qanday ajoyib... – dedi u eshikdan chiqayotib. Ayni lahzada ko‘z qarog‘ida bir nima yiltilladi.

Agar men ham kapalakka aylanib qolsamchi?..

Erimning ro‘parasiga o‘tirdim-da tomdan tarasha tushgandek dedim:

– Birdan kapalakka aylanib qolsam, nima qilasan? Xafa bo‘lasanmi yoki yangi model paydo bo‘lganidan suyunib rassimimni chizasanmi?

– Qanaqa model?..

– Ha, ha! Ajib bir kapalakchaga aylanib qolsam...

Shu lahzada kapalak bo‘lgim kep ketdi. Faqat kapalakka aylanibgina o‘z qobig‘imdan qutulishim mumkin. Biroq erim bunday nafis tasavvurni sezgudek holatda emasdi. Aft-angoridan „yana boshlandi“ degan ifoda akslandi. Erim qo‘polgina qilib javob berdi:

– Kapalak chizishdan nima ma‘ni?

Erim rassom. Har kuni tushdan keyin uyimiz yaqinidagi ustaxonasiga jo‘naydi. Uning na an‘analarga ruju qo‘ygan akademik doiralarda, na omma orasida tuzuk-quruq muxlisi bor. Ammo san‘atga oid jurnallar, ellik yosh ostonasida ham izlanishdan tiyilmagan, Kenkiti Saymurani qadrlashadi.

– Meni sevmaysan, shundaymi?.. – ko‘zlarimdan beixtiyor yosh quyildi.

U menga so‘zsiz tikildi. Yuzida norozilik alomati sezildi. Turmush qurganimizga ikki yil bo‘ldi. Uning oldida birinchi marta ko‘zyoshi qilishim. Odamlar bizni baxtli oila deb bilishadi. Men esa baxtimni boy berishdan qo‘rqaman.

Kenkiti Saymuraning ikkinchi oilasiman. U Sibirda asrlikda ekanida birinchi xotini vafot etgan. Yaponiyaga qaytgach, bir oshnasinkida yashab turgan. O'sha joyda rassomlik ustaxonasini ochgan. O'shanda men o'ttizni qoralab qolgan ayol edim. Radio, televedeniye uchun turli materiallar tayyorlab yurar, ishxonamdagilar meni iste'dodli sanashmasa-da, yugur-yugurlardan charchamasligim, beminnat dastyorligimni yaxshi ko'rishardi. Men ham najzorlikni orzulagan maymundek duch kelgan joyga burnimni tiqaverardim: qissa, hikoya yozishmi yoki yoki kulgili ko'rstuvlar qilishmi men uchun farqsiz edi. Aytilgan muddatida eplardim. Albatta, oladigan maoshim havas qilarli emasdi. Ammo bundan xafa emasdim. Erkinligim, kechirayotgan hayotim menga yoqar edi. Faqat bugun bilan yashardim. Yorqin kelajak degan xomxayolni yonimga yaqinlatmas edim. Ishimning o'lda-jo'lda, yuzakiligini bilib tursam-da, o'zimni „hali boshlovchiman-ku“ degan yolg'onga ishontirib yashardim. Shu yoshimda boshlovchi jurnalistlar safida bo'lishdan uyalmasdim.

Tadzima ham shu guruhda edi. U ham mendek odamovi bo'lib, hech kimga qo'shilmasdi. Biroq odamovilar ham tirik jon-ku! Ular ham boshqalarga o'xshab yashay deydi... Alqissa, ikki yovvoyi do'stlashib qoldik. Men markazga yaqin turardim. Shahar chetida yashaydigan Tadzima markazga ish bilan kelganida har safar menikiga kirib o'tardi. Oshig'ing chikka yoki pukka turganda him seni tinglaydigan bir tekin quloqqa ehtiyoj sezasan. Chamasi men Tadzima uchun shu vazifani bajarardim. Shunisiga ham xursand edim. Chunki yolg'iz yashardim-da. U deyarli har hafta kelardi. Torgina xonamda u bilan soatlab valaqlashib o'tirishni yaxshi ko'rardim. Tadzima ham so'nggi elektirichka jo'naydigan vaqtgacha o'tiraverardi. Yo'q, yo'q, oramizda hech gap bo'lmagan. Hatto o'pishmaganmiz. Ba'zan u ota-onasi, qarindoshlari o'ziga kelin qidirayotganlari, ular topgan qizlar haqida gapirib berardi. Men ham uni tezroq xotinbop bir qizga uylanib olishga undardim.

Bir kuni rassom hayoti haqida telepyesa tayyorlashga buyurtma oldim. Kasbdoshlarim mashhur musavvir haqidagi bir roman-

dan foydalanishni maslahat berishdi. Tirik rassomni ko'rmagan bo'lsam, qinday yozaman. Shunda Tadzima amakisi – musavvir Saymura oldiga borishni taklif etdi. Tadzima bu uchrashuvdan menga naf bor deb o'ylarkan. Shu-shu Tadzima tushmagur meni amakisiga tashlab, qaygadir yo'qoldi.

Saymura, yoqimtoy, og'ir-bosiq, kamgap odam bo'lib chiqdi. U mening jurnalistga xos shoshqin savollarimni sabr bilan tinglar, jo'yali javoblari bilan hayratimni oshirar, chehrasi goh ishonchsizlik, goh majhullik, goh sarosima, goh istehzo soyasini akslantirardi. Ammo bu ko'zlar ma'yus iztirob va mehrga to'la edi. Bu ko'zlar o'lik so'zlardan ko'ra ko'proq narsalarni hikoya qilardi. Bu ko'zlar o'lik tasavvurlarimga jon bag'ishlardi go'yo... Nihoyat o'rta yoshli musavvir hayotini ssenariyga muhrlashga erishdim.

Meni hayronlar qilib, ezma tanqidchilar ham pyesamni yoqladilar. Ektranda chiqqanidan hafta o'tkazib, bir shisha ichkilik bilan Saymura ustaxonasiga kirib bordim. Minnatdorchiligimning cheki yo'q edi. Tadzima ishni bahona qilib, sheriklikdan bosh tortdi.

Saymura pyesani ko'rganini aytdi. Ammo taassurotini sir tutdi. U qandaydir boshqacha edi. Hamishagi Saymuraga o'xshamasdi. Ko'rsatuv tufaylimikan degan xayolga bodim. Darrov izimga qaytmoqchi bo'ldim. Ammo u meni kechki ovqatga taklif qilib qoldi. Uning ustaxonani supirib-sidirish, ovqat tayyorlash uchun yollagan xizmatkori bor edi. Uni bozor-o'charga buyurib, Saymuraning o'zi ovqat qilishga kirishdi. Aksiga kuydi-pishdiga no'noqroqman. Istasam ham bu ishda Saymuraga yordamim tegmadi hisob. Yolg'izlikda yashayverib, taom lazzi nima ekanini ham unutmaganman. Boshqalardek qornim ochsa ovqatlanaman, uyqim kelsa uxlayman, ish kerak bo'lsa ishlayman. Ammo na ovqat, na uyqu, na o'yin-kulgi, na ishim menga lazzi beradi. Hatto hayot yo'lida ham o'zimni bir boshlovchi deb bilaman. Go'yo bularning bari ro'yo. Chin hayotim hali oldda. Unga qanday borishni esa bilmayman.

– Bilasizmi, menimcha, erga tegishingiz kerak. Shunda hayotingiz qiziqroq, mazmunliroq bo'ladi... – kechki ovqat ustida go'yo shunchaki gapirayotgandek dedi Saymura.

Ayni damda men Tadzima haqida, uning ingichka, asabiy chehrasi haqida o‘ylab o‘tirardim. Tadzima torfe‘l, beqaror odam. Bo‘lar-bo‘lmasga asabiylashaveradi. Yorqin nur taratuvchi devor lampalari unga haddan tashqari yomon ta’sir qiladi. Telestudiya muharrirlari bilan arzimas gap bahona eshik tepib chiqib ketishlari ko‘p. Oqibat ishdan qoladi, topganida baraka bo‘lmaydi...

Tadzimani o‘ylab o‘tirardim... Har holda bo‘yniga tizimcha solinsa bas, fe‘liga bir amallab chidasa bo‘ladi...

– Siz turmushga chiqib, ijodiy ish bilan jiddiy shug‘ullanishingiz kerak, – davom etdi Saymura. – Iqtidorni arzimagan ishga sarflab, pul uchun yelib-yugurish yaramaydi...

O‘zim kutmagan bunday gaplardan dovdirab, ovqatdan qo‘l tortdim. Saymuraga qaradim. U beparvo kovshanib o‘tirardi.

– Siz bilan chiqishib, yashab ketamiz... Tashvishlanishga o‘rin yo‘q. Kap-katta odamlarmiz axir, o‘zaro hurmat bo‘lsa bas-da... Balki, ishlaringiz ham yurishib ketar...

Saymura menga turmush qurishni taklif etardi. Bu ikki yil oldingi gap.

Turmush ham qurdik, omadimiz kulib ham boqdi. Uyli bo‘ldik. Yangi uyda yangi turmush boshladik. Saymura ajoyib er chiqdi. Biror marta qosh qayirganini ko‘rmadim. Ta‘m-tuzsiz ovqatlarimni ham miq etmasdan o‘zi suzib yeyaveradi. Har kuni tushdan so‘ng ustaxonasiga yo‘l oladi.

– Senga yoqmay qoldim-a?!

Muhabbat haqida o‘y surganim sayin ko‘zimdan yosh quyilardi. Sezishimcha erim mendan xafaga o‘xshardi. Axir xotin bo‘lib birinchi bor diydiyo qilishim-da. Nahot bizlarni muhabbat bog‘lab turgan bo‘lsa! Saymura bilan turmushimiz qanchalar totuv, tinch bo‘lsa, shuncha siqildim. Nihoyat ikki yil deganda yuragimda maddalab yotgan iztirob ko‘z qarog‘idan toshgan-cha yuzimni kuydirmoqda. Nahotki endigina yolg‘izlik niqobini yechgan mendek ayol sevgidan ko‘p narsa kutgan bo‘lsam?! Men sevgi deganlari totli narsa bo‘sa kerak deb o‘ylardim. U mening turmush tarzimni emas, ko‘nglimni ham o‘zgartirishiga umid bog‘lovdim. Muhabbatning sirli olamida meni kapalak-

ka do'ndiradigan kuch bor deya xayol qilardim. Qarang, men bo'lganimcha qoldim. Hech narsani o'zgartira olmadim. Avval qanday bo'lsam o'sha-o'shaman: qobig'imga o'ranganча „haqiqiy hayot hali oldinda“ degan xomxayol bilan yashayapman. Axir erga tegsam, hamma orzularimga erisharman deb o'ylagandim...

Turmushga chiqsam bo'ldi, chin hayot boshlanadigandek edi go'yo...

– Kim bilsin, balki, men ham kapalakka aylanib qolarman...

Bu so'zlarni hazilga o'xshatib aytmoqchi edim. O'xshamadi. Ko'zyoshlarim menga xiyonat qildi.

Kapalakka aylanib qolishimga o'zim ham uncha ishonmasdim. Ammo shu so'zni aytdim deguncha o'zimga rahmim kela boshlar, yuragim xunga aylanardi.

– Ahvolingni tushunaman, – hamdardlik bilan dedi Saymura, – katta ish oldidagi asabiylashish bu. Tashvish tortma, yozishni boshlading deguncha hammasi o'tib ketadi.

U hech narsani tushunmadi. Ko'zyoshimni ham o'z biligicha ta'bir qildi.

Saymura ishiga jo'nadi. Uni kuzataturib, munkaygan chol yelkasiga ko'zim tushdi. Keksaygani yuzidan bilinmaydi. Ammo yelkasi... Dard-u dunyoyim qorong'ilashib ketdi.

Nega uni ayblayman axir?! Yo'g'-e, ayblayotganim yo'q-ku. Turmush qurishga rozilik berayotib, hammasi shunday bo'lishini segandim. Bariga o'zim aybdorman. Oila qurgunimcha o'ttiz yil qobig'im ichida yashadim. Bosh chiqarsam yarador bo'lishdan qo'rqdim. Qobiqcham silliqqina, yumshoqqina edi. Tepasidan xiragina yorug'lik tushib turardi.

Tashqaridan qaragan kimsalar uchun jo'n bir ayol edim. Ular men bilan ezilishib hazil-huzul qilishar ekan, aslida o'zim bilan emas, bir qobiq bilan gaplashayotganlarini bilishmasdi. To'g'rirog'i ular mening o'zimga ham qobig'imga ham tupurishardi. Ha, men jo'n bir inson edim. Aslida esa shu qobiq ichida oqayotgan qonli ko'zyoshlarim lahza sayin po'rtanaga evrilib borar, yuragim madda bog'lab yovvoyi tuyg'ulardan kuch olib yotar edi. Ammo



ular qobiq devorlari osha sharqiroq kulgi, mayin so‘z bo‘lib quyilar, o‘zim esa qobiq ichra mislsiz azob tortardim. Ha, qobiq ichida ekanman men uchun biror xavf yo‘q, degan yolg‘onlarimga ishonardim. Aslingni yashirib yursang bo‘ldi, senga biror jarohat yetishidan xavf yo‘q. Lekin buni hayot desa bo‘larmikan? Bilmayman. Bir narsani bilamanki, bu qobiqni boshqa emas faqat o‘zim sindirishim mumkin. Buning uchun o‘zim o‘zim bilan qonli jangga kirishmog‘im kerak.

Xuddi shu joyda Saymura paydo bo‘ldi. Birdan quvonib ketdim. Jang-u jadalsiz shunday qo‘rg‘onni egallaganim qanday yaxshi bo‘ldi. Kimdan, nimadan bekinmoqchi edim? Tund yolg‘izlikdanmi? Ehtimol. Yoki ayanchli turmushim, g‘aribona maoshim, arzimas ishimdanmi? Ehtimol. Ulkan sabab Tadzima edi menimcha.

U paytlar Tadzimaga turmushga chiqishni o‘lardek xohlardim. Qo‘l uzatishiga, meni shu sovuq qobiqdan sug‘urib olib, bag‘rida isitishiga intizor edim. Afsus uning qobig‘i menikidan ham qulayroq, baquvvatroq bo‘lib chiqdi. Tadzima meni deb o‘z qobig‘ini tark etolmadi. Aftidan harakat men tomondan bo‘lishi lozim edi. Men esa asabiylashishishdan boshqasiga yaramadim. Qalbiga quloq solsam bo‘lardi, ammo eplolmadim. Xohlamadim yo loqaydlik qildim. Bunga ba‘zi sabablar ham bor edi. Avvalo Tadzima mendan ancha yosh edi. Otasi kim, onasi kim bilmasdim. Injiqligini esa ko‘tarolmasdim. Topish-tutishidan qoniqmasdim. Ha, bularning bari bir bo‘lib ro‘paramda baland devordek turar, qobig‘iga bandi, hayotdan qo‘rqquvchi ayol uchun bu bir oshib bo‘lmas tog‘ edi. Buni his qiliboq barcha umidlarimni ko‘mgan edim. Ha, men tog‘larni zabt etish uchun yaratilmaganman. Zotan, ravon yo‘lda sayr etib yurgan odamning yuksak cho‘qqilarni tasavvur qilishi og‘ir. Ilk cho‘qqi naqadar yuksak va qo‘rqinchli bo‘lmasin bor-yo‘g‘i keyingi dahshatning ibtidosi, xolos. Cho‘qqini orzu qiladigan darajada dovyurak emasdim, tog‘ men uchun bir tilsim edi. Shu bois o‘z orzularimdan yuz burishim farz edi. Mening xohishlarim qobiqda tug‘ilib, qobiqda jon berardi. Yorug‘ dunyo ular uchun harom edi. Ular mudroq ichida bijg‘ib yotar, qobig‘im

havosini almashtirib turishni esa xayol ham qilmasdim. Mehr-muhabbat, shon-shuhrat, mol-mulk ismli murdalar qobig'imda chirib, yo'qlik sari singib borardi. Kimdir tashqaridan turib bu qobiqni sindirganda edi. Oh, qanchalar yengil tortardim-a! Afsus bu ishni birov qilmadi. O'zim esa murdalardan oqqan yiring-u fatonat ichra biqsinib yotardim...

Zinada qadam tovushlari eshitildi. Janob Nakamura buyurtma bergan gullarni olib kelishgan bo'lsa kerak. Zanjir solib sudragudek yozuv stolimga yaqin bordim. Oq qog'oz oldim. „Kapalak mavsumi“... Bu shunday lahzaki, unda ayol ruhi birdan jaranglab ketadi. Qalb mash'ali lovullab yonadi. Bu olov rangi kapalaklar rangi bilan qo'shilib ketadi. Ehtiros qanotida ko'k bo'ylab suza boshlaydi. Bu mavsumning kulrang ufunat anqib turgan azob-uqubat qaynab-toshgan turmushga sira daxli yo'q...

Shu payt ertalabki politsiya mototsikllarining vag'-vug'i eshitildi. Nahot yana birov kapalakka aylanib qolgan bo'lsa?! Kapalakka aylanmagan ayol qolmaydi chog'i. Kapalak mavsumi eshik qoqmoqda! O'sha, bolaligimda ro'y bergan voqeani esladim. Gul ummoni uzra kapalak mavji...

Ko'p o'tmay ko'nglimdagi chinga aylandi. Kechga yaqin bozor-o'char qilib uyga qaytar ekanman, uy boshqaruvchisini uchratib qoldim. Chol meni to'xtatib, yigirmatacha ayol kapalakka aylanganini aytdi. Ularning sirli ravishda qochib ketganligi haqidagi mish-mishlar ham barham topadi endi. Bir paytning o'zida yigirma ayol erini tashlab qochib ketishi mumkin emas-ku!

– Sizdan o'tinaman, – qo'shimcha qildi uy boshqaruvchisi, – mana shuni 47-xonadondagi Asay xonimga berib qo'ysangiz. Kapalak g'avg'osi chiqqardan beri uyga yaqinlashishga qo'rqib qoldim. Qanotlar changiga toqatim yo'q. Undan yengiltak ayollar foydalanadigan upa hidi keladi.

Qariya xira ko'zlari pirpirab uy tomonga qarab qo'ydi. U qip-qizil bo'ydoq. Ustiga ustak dalli-devona. Aytishlaricha, yosh payti qo'li gul duradgor bo'lgan. So'ng uni taqdir yengiltak bir ayolga ro'para qilgan. O'rtada shunday gaplar o'tganki, oqibat birgalikda

jonlariga qasd etmoqchi bo'lishgan. Ayol o'lgan. Erkakni qutqazib qolishgan. Shundan beri ayol zoti desa rangi o'chadi.

Chol bergan narsani olib, uy tomon yurdim. Qorong'i tushgan, barcha xonadonlar chirog'i yoniq edi. Elektr yorug'i menga xotirjamlik beradi. Peshingi quyosh nuridan yoqimliroq, nafisroq tuyuladi. Nur sochib turgan derazalarga qaradim, qora iztiroblarim mungli bir xo'rsiniqqa aylandi. Iztirob quchog'i yoqimli edi. Men o'z qobig'im ichida g'am chekar, tirqish aro o'zgalar turmushiga mo'ralar edim. Bu yorqin derazalar ortida nima gap ekan? Yuragimni hasad to'ri chirmadi. Shu derazalar ortida bir-birlarini sevgan odamlar yashayapti. Hayot guldonlarida muhabbat ekib, muhabbat o'stirishyapti. Ajabo, kapalakka aylangan ayollar baxtlimikan?!

Kiraverishda janob Asayni uchratdim. U qo'limdagi narsani olar ekan, qayg'u bilan dedi:

– Demak, mening Mariginam o'ziga yangi ko'ylak buyurtiribdi-da! Ayol zotining tanglayini shu bilan ko'tarishganmi deymanov?

Asaylar yarim yil ilgari oila qurishgan. Shu uydin kvartira olishgan.

– Mayli, yasan-tusanini qilaversin, – davom etdi u. – Harna kapalakka aylanganidan peshroq. Uni ranjitadigan so'zni og'zimga olmayman. Bilsangiz, uning kapalakka aylanishini sira xohlamaiddim. Biz baxtlimiz. Turmush qurganimzga atigi olti oy bo'ldi. Mari turmush mushtidan bezib ulgurmad hali. Kapalak bo'lishni esa xayoliga ham keltirmaydi. Ammo men juda hushyor bo'lishim kerak. Axir ayol zotini tushunib bo'ladmi...

Janob Asay bilan xo'shlashib, uyga keldim. Erim hali qaytmagan ekan. Bugun ham odatdagidek kech kelsa kerak. Chiroqni yoqsam ham ko'nglim yorimadi. Nazarimda xona jihozlari-da, g'arib ko'nglim singari xo'rsinib qo'yardi. Polga bemajol cho'kdim. Ovqat qilishga qo'lim bormadi. Nega o'zgalar derazasidagi shu'la jozib ko'rinadi-yu, xonamni charog'on etgan chiroq ko'nglimni yoritmaydi?.. Xona ichi buncha xira, ranglar bunchalar sovuq, o'lik mavsum hukm surayotgandek. Yonim-

dagi xonadonlarda biryo'la ikki baxtli ayol yashaydi: Nakamura xonim kapalakka aylangan, Asay xonim esa hozir yangi ko'ylagini kiyib ko'rayotgandir. Qarshisida lolu behol tikilib qolgan eri. Men esa huvullagan uyda yolg'iz o'tiribman. O'zgalar hayotidan meni ikki narsa to'sib turadi: uyim devorlari va qobig'im. Saymura qaytganida ham hech narsa o'zgarmaydi. Agar pichoqni olib ko'ksimga sanchsam-chi (bunga jur'atim yetarmikan)! Axir ko'p hashoratlar o'z qobiqlarida bo'g'ilib o'lishadi-ku! Shunda o'limimsababi sirligicha qolardi. Titrab ketdim...

Ko'chaga chiqib, tungi shahar aro tentirashga tushdim. Yo'q, men yolg'izlikda, ko'zda pana joyda o'lishni istamayman.

Ajoyib kunlarning birida ko'pdan qorasi ko'rinmagan Tadzima paydo bo'ldi. Aftidan kapalak mashmashasi unga ham yetib borgan. U menga tashvishli qarab dedi:

– Men hali kapalakka aylanib ketgansan deb sevinib yuribman...

– „Kapalak mavsumi“ degan pyesa yozyapti, – mening o'rnimga javob qildi Saymura, – shunday bo'lgandan keyin o'zi kapalakka aylanishi mumkin emas.

– To'g'ri, to'g'ri, bilaman! Shunday bo'lsa ham achinarli! Kapalaklar haqida pyesa yozsang-u o'zing bu baxtdan mahrum bo'lsang!... Menga qolsa hamma ayolllar yaltiroq, nozikkina, jajjigina kapalaklarga aylanib qolsa. Ularga qarab ko'zing quvnasa.

Bu so'zlar tig'i aniq menga qaratilgan edi. Saymuraga tekkanimdan beri Tadzima menga kinoya qiladi. Kinoya ohangi kun-kundan dag'allashadi. Uning nigohida nafrat va ayanch rangi qorishib boradi. Men miq etmay qahva tayyorlashga ketdim. U nega keldi o'zi? Albatta, Tadzima erimning jiyani bo'lgach, keladi-da, menga qolsa kelmaganiyam yaxshi edi.

– Kapalak bo'lishning nimasi yaxshi, – qarshilik bildirdi erim. U kapalaklarni yoqtirmasdi. – Yengiltak, o'tkinchi bir jonzot. O'zgalar sevgisi, erkalashiga aldanib umr o'tkazadi. Nimasiga mahliyo bo'lasan? Kapalak deganlari ayol noz-firog'i, makrining soyasi, xolos.

– Erkaklar makr-hiyla sanagan narsa ayollikning ayni o‘zi emasmi? Axir o‘ziga bino qo‘yish, beqarorlik, noz-firoq ayol zotining quroli-ku. Ayol degani jism va aqlda erkak bilan bo‘ylasha olmaydi. Ammo shu noz-firog‘i, beqarorligi bilan muhabbat janglarida doimo g‘alaba qozonadi. Manaman degan daholar, dunyoni zir titratgan zo‘rlar uning to‘riga tushib halok bo‘lishgan. Bu tarix haqiqati. Har doim, Sharqda ham, G‘arbda ham shunday bo‘lgan. Amakijon, nega endi siz kapalaklarni buncha yomon ko‘rasiz? Yo shunchaki qo‘rqasizmi? Yumi menga sizdek erkakni rom etishga judayam mayli borligi haqida so‘zlagandi. O‘ylashimcha, siz ham unga befarq emassiz.

Qahva olib kirganimda Saymura jilmaygan ko‘yi trubkasini tozalardi. Tadzima esa menga bir qarab olib, vaysashda davom etdi. Juda haddidan oshib ketdi-ku!

– Sizni nima qilsam bo‘ladi amaki. Xotin topsam, naturachi qizlarni olib kelsam. Meni o‘ylaydigan odam ham bormi o‘zi?.. Lekin aytib qo‘yay, hamma ayol ham xotiningizdek og‘irkarvon bo‘lolmaydi.

Yumini yaxshi bilardim. U Tadzima topgan naturachi qiz edi. Yosh, durkun, og‘zi kulgidan bo‘shamaydi. Peshonasi-yu yelkalari bo‘ylab mavj urib turadigan sochlari o‘ziga juda yarasadi. Ba‘zan keksa xotinlar singari parishon, o‘ychan bo‘lib yuradi. Yumi hammani o‘ziga mahliyo qilib o‘rgangan. Biznikida o‘zini boshqa tanishlarimizdan ko‘ra erkaroq tutadi. Qiliqlari bizga sira og‘ir botmaydi. Bir kuni yaqinda bo‘lib o‘tgan ko‘rgazma haqida qizg‘in suhbatlashib o‘tirgan edik. Yumi gapimizni bo‘lib, shart turdi-da uyiga ketishini aytdi... Uning tili juda o‘tkir edi. O‘zi tengi yigitchalarni kalaka qilishni xush ko‘rardi. Bunday sarguzashtlari haqida gapirib berganida, ichagimiz uzilib kulardik. Ochiq ayta qolay: bu qizaloq rosa ichimni kuydirardi.

– Menimcha, birinchi bo‘lib Yumi kapalakka aylanishi kerak...

Kutilmaganda ichimdagi gapni aytib yubordim.

– U qiz kapalakka aylanib nima qilsin? Shunday ham kapa-

lakdek yayrab yashasa. Uning qanotlari butun, – qat’iy ohangda dedi Tadzima.

Men tilimni tishladim.

– Qomatchasi yomon emas...

– Oh, amaki, amaki! Qomat degani o’tkinchi narsa. Xudo bilsin Yumi o’sha qomatchasi bilan yana qancha kerilib yurarkan.

Ular meni bor demay Yumi haqida gap sota ketishdi. Tadzimaning qomat haqidagi gaplari ham menga tegizib aytilgan edi. Keyingi paytlarda semira boshlagandim. Tadzima esa tashbeh bilan bo’lsa-da, buni menga eslatmasa bo’lmaydi. To’lisha boshlagan ayol qomati, albatta, kimlar uchundir payrovga aylanadi. To’lishish ko’ngil saltanatini boy berish, vujud qo’rg’oniga bandi bo’lish degani. Endi ayolning tanasinigina emas, yuragini ham yog’ bosadi. Bir kuni nogoh uyg’onasan – u tana ko’ngling ustidan g’alaba qilganiga guvoh bo’lasan. Shunda hammasi barbod bo’lganini anglaysan. Qo’lingdan hech narsa kelmaydi. Har qanday aql, tajriba bu mag’lubiyat oldida ojiz qoladi. Ochofat tana o’z-o’zini lazzatbaxsh bayramlar bilan bezantirishga tushadi.

Tadzima Yumi bilan qachondan tanish ekanini bilmayman. Bir kuni u oshnasining ofatijon singlisi haqida gapirgan, xiyol o’tmay o’sha Yumini boshlab kelgan edi. Yo’q, men Yumini yomon ko’rolmayman. U kelsa uyimizni yoshlik, quvonch nafasi tutib ketadi. Yumi sal-pal Asay xonimga ham o’xshab ketadi. Yumi turmushga chiqsa suqsurdekkina kelin bo’ladi. Asay xonim menga yoqadi. U bilan jon deb gap sotib o’tiraman. Asay xonim bilan gaplashish oson. Nakamura xonim bilan esa... U bilan ham kapalakka aylanguniga qadar gaplashib turardik. Gaplashganda yuragim ezilib ketardi. Unga qarab gapirasan-u so’zlaring go’yo sahro havosiga singib ketgandek. Hech qanday aks-sado bermaydi. Xijolat qilasan. Aftidan, Nakamura xonim menga o’xshaydi.

Eshik qo’ng’irog’i chalinib, Asay xonim kirib keldi. Birrovga chiqibdi. Har safar eshik tepib kirib kelsa ham, bundan birov malollanmaydi.

– Mumkinmi! O, mehmoningiz bor ekan-ku! Saymura amaki ham shu yerda ekan, qanday yaxshi!

Erimni rasmiy qilib „amaki“ deyishlarini yoqtirmayman. Shaldir-shaldur Asay xonimdan esa xafa bo‘lmayman. Ammo hozir uning beg‘ubor-u betashvish chehrasiga qarab g‘ashim kelgandek bo‘ldi. Buni o‘tirganlarga sezdirmaslikka tirishdim. Marini ochiq chehra bilan qarshiladim.

Biznikidan xotining tovushini eshitib janob Asay ham kirdi.

– Nima qilib yuribsan Mari! Kuta-kuta ko‘zim to‘rt bo‘ldi.

– Syun, bu nima yurish! Dahshat! – Mari qah-qah urib kuldi, janob Asay xijolat tortib qoldi. U ovqat qilayotgan bo‘lsa kerak, oldiga peshband tutib olgan, qo‘lidagi tovani qayerga yashirishini bilmasdi.

– Yur, Mari, ketdik. Ularning mehmonlari bor. Biz xalaqit beryapmiz.

Ammo Mari bir maslahat bilan chiqqanini aytdi. Ularga Tadzimani tanishtirdim.

– Juda yaxshida! Bir kalla yaxshi, ko‘p bo‘lsa undan yaxshi. Sen ham, azizim Syun yaxshilab o‘yla, – Mari universal magazin qog‘oziga chiroyli qilib o‘ralgan narsani avaylab stolga qo‘ydi.

– Yana nima xarid qilding? Senga cho‘ntagimda yelvizak aylanib yurganini aytgandim-ku!

Mari erining tanbehini eshitmagandek qog‘ozdagi narsani ocha boshladi.

– Do‘stlar, yordam bering, Syunchik, oxirgi so‘z sendan. Kallangni ishlat, yaxshilab o‘yla.

Janob Asay Marining nozik barmoqchalari orasida shitir-layotgan nafis qog‘ozga asabiy nigoh soldi. Nihoyat qog‘oz o‘ramasining so‘nggi qati ham ochildi va... kapalaklar kolleksiyasiga ko‘zimiz tushdi. Jajji vitrina oynasi ortida o‘nlab quritilgan kapalaklar ignaga sanchilib turardi.

– Qalay, sizlarga yoqdimi? Ayniqsa manabunisi. Go‘zal-a, shundaymasmi?!

Mari mittigina, tepasida „Asagimadra“ yozuvi turgan kapalakchani ko‘rsatdi. Asagimadraning nafis qanotchalari-

ni egri-bugri qora chiziqlar bezab turardi. U o'ta zamonaviy ko'rinardi.

– Menga qara, Syun, agar shunday ofatijon kapalakchaga aylanib qolsam, baxtiyor bo'lasan, shundaymi?

– Nimalar deyapsan, kapalakka ishqing tushdimi? Seni-ya!?

– Nega ishqim tushmasin, bo'lmasamchi! Uyimizdagi qancha ayol kapalakka aylandi. Mening boshqalardan nimam kam?

– Ey Xudoyim! Axir men jon-jahdim bilan harakat qilyapman-ku! Ovqat qilaman, uy tozalayman, hatto kirniyam o'zim yuvaman! Nega shunday qilaman, bilasanmi? Seni deb! Kapalakka aylanib qolma ishqilib deyman!

– Syun, azizim, nima ham qila olardik! Hozir zamon shunaqa.

– Mari, asalim, ko'ngling nima tusasa olib beray! Ayt nima istaysan? Pulni o'z boshingcha sarflayver! O, bo'ldi, bo'ldi, topdim! Mashina sotib olamiz. Sayyohat qilamiz!

Mari tantiqlanib uf tortdi. Erining kashfiyoti unga yoqmadi. U o'z kashfiyotida mast edi. Zotan, hozir u o'z ko'ngliga qaram edi.

– Syunchik, bo'lmagani gaplarni qo'y! Nahot sen topadigan sariq chaqaga mashina bersa!?

– E-e-e! Tupurdim o'sha ishgayam, boshqasigayam! Seni deb barisiga tayyorman! Xohlaysanmi, mashina o'g'irlayman, bankni o'maraman?!

– Qanday sovuq gaplarni gapirasana, azizim! Jinoyatga mayling borligini bilmagan ekanman!

– Bo'lmasa nima qil deysan?! Ketib qolmasliging uchun nima qilay?!

Gapdan gap chiqib rostmana janjalga aylandi. Janob Asay ayol zoti xudbin bo'ladi deb baqira boshladi. Mari esa uni berahmlikda ayblab, yig'lashga tushdi. Oqibat jahl otiga mingan er qutichani polga urib chilparchin qildi. „Bilgan ... ye“ degan cha chiqib ketdi. Mari ko'zida yosh bilan uning izidan chopdi.

– Turmush deganlari men o'ylaganchalik zerikarlilga o'xshamaydi!

– Barakalla! Xulosa qilib aytsak, uylanadigan vaqting kelmadimi, Tadzima? – dedi Saymura.



Tadzima xoxolab kuldi:

– Rost aytasiz, amakijon! Hoziroq Okutamaga jo‘nayman, biror ofatijonni ilintirib kelaman. Xotin zoti baribir kapalakka aylanar ekan, yaxshisi kapalakka uylanganim ma‘qul. Jillaqursa tashvishi kamroq bo‘ladi. Ustiga ustak olgan xotining qanaqa kapalakka aylanishini ham bilmaysan. Har qalay, ko‘ngilni vahima bosadi...

Men polda sochilib yotgan kapalakchalarni jimgina terib oldim. Tadzima hamon valdirardi.

– Yo‘q, rost aytyapman, kapalak ayni menbop narsa. Axir men oqsoch emas, xotin olmoqchiman. Uning ovqat qilishi, supirib-sidirishi, hatto bola tug‘ib berishi ham shart emas. Muhimi menga nozikkina, kapalakka o‘xshagan ayol bo‘lsa...

U doim shunaqa, bir gapga tushdimi to‘xtamaydi. Aslida Tadzima unaqa vaysaqi ham emas. Ammo hozir duch kelgan tomonga otib, o‘qni behuda sarflayotgan ovchini eslatardi. Sukunat yukidan ezilib yursa kerak. Endi undan bama‘ni gap kutmasa ham bo‘ladi.

Erim ishga kechikayotganini sezib bezovtalana boshladi.

– Tashvish qilmang amaki, Yumini bilasiz, u hech qachon aytilgan vaqtda kelmaydi.

Erim kulib qo‘ydi:

– Bo‘lmaganga bo‘lishma degan. O‘tgan safar naq ikki soat kechikib keldi. Bir xavotirlanaman, bir jahlim chiqadi, nima qilardim, uningsiz ishim bitmasa. So‘ng Yumi shunday beozor, shunday begunoh qiyofasida kirib keldiki, urishishga tilim bormadi. Aftidan kutish qanchalar azobligini xayoliga ham keltirmaydi...

– Ha, u shunaqa qiz...

Har holda Tadzima hammasi risoladagidek deb o‘ylaydi. Saymuraning gap ohangida ham gina sezilmasdi. Ammo bunday tantiqlikni qanday hazm qilish mumkin. Tushunolmayman. Keksayib qolgan, buning ustiga mashhur bir musavvirni kuttirish borib turgan bema‘nilik-ku! O‘z ishiga shunchayam sovuqqon bo‘ladimi odam. Bunday tantiqni haydab qutulgan

yaxshi. Ammo bu gapni tilimga chiqarolmayman. Aytadigan bo'lsam, erim ham, Tadzima ham hayratdan yoqa ushlashsa kerak. Ular o'zaro shunday gaplashib o'tirishardiki, go'yo bu yerda boshqa birov yo'qday. Men esa sahna ortidagi tomoshabindek suhbatga qo'shilolmasdim. Doim shu ahvol. Odamlar doim mening o'zim bilan emas, qobig'im bilan muloqot qilishadi. Qobiq ham fikrlashi mumkinligi kimni qiziqtirardi deysiz? Soqov tomoshabinning birdan sahnaga otilib chiqqanini tasavvur qiling. Spetakl uzilib qoladi. Aktiyorlar bu tashrifdan qotib qolishadi. Yo'q, men sira ham sahnaga otilib chiqolmasdim. Jur'atim yetmaydi. Yumiga o'xshab birovlarini kuttirish ham qo'limdan kelmaydi. Belgilangan joyga vaqtdan ilgariroq borib turaman. Bu ishim uchun birovdan „ofarin“ ham olmaganman. Bu fazilat yo o'ta intizoliligimdan yoki o'zimga ishonchim yo'qligidan. Mudom o'zгалar uchun yelib-yuguraman, birovning fikri bilan hisoblashaman. Ayol bo'lib kuttirishdan mazza qilganmanmi o'zi? Va'damda turmay, bunday havolangan paytim bo'lganmi? Biovni oyoq osti qilib lazzatlanganmanmi?..

\* \* \*

Erim ishiga jo'nadi. Tadzima esa biznikida qoldi. Negadir u ketishga shoshilmasdi. Yuragim notinch edi. Idish-tovoq yuvayotganimda ham ko'nglim alag'da edi. Oshxona-uy qilib sarosar kezib yurardim.

– Namuncha, qochganing qochgan? Bir pas men bilan o'tir, uy egasisan-ku axir!

Tadzima qo'polroq so'zlardi. Ammo hozir, ikkalamiz yolg'iz qolganda gap ohangidan iliqlik sizib chiqayotganini his etayotgandim.

– Risoladagi uy bekasiman-a, nima deysan?

– Besaranjom bo'p qopsan. Aytishlaricha, bu ruhiy tanazzulning belgisi.

– Bo'lmagan gap! Turmushimdan roziman. Saymura ajoyib er, risoladagidek erkak. Xavotiring ortiqcha.

– Bimadim, bilmadim... Naga dabdurustda „kapalak mavsumi“ degan pyesa yozging kelib qoldi? Balki, o‘zingni ham kapalak bo‘lging kep qolgandir? Kim qo‘lingdan tutib turibdi. Xohlasang ana aylan qo‘y-da!

– Qo‘ysangchi... Kapalak bo‘lib nima qildim. Bundan bir ma‘ni chiqmaydi. Saymuraning kapalakka toqati yo‘q. Axir u mendan yuz o‘girsang uyimni qaydan topaman?..

Biz o‘sha zamonlardagidek vaysashga tushib ketdik. Faqat Tadzimaning oldidagina og‘zimga kelganini vaysay olaman. Ammo bu bizning oramizda sir yo‘q degani emas. Har birimiz bunday „beg‘ubor“ vaysashlar ortiga o‘zimizni yashirishga urinamiz. Aftidan shuning uchun ham suhbatimiz yengil kechadi. Biz go‘yo mushak o‘yinini o‘ynardik. Atrof birrov yorishib ketar, so‘ng zum o‘tmay zulmat cho‘kardi.

– Menga qara!... Hayot – bu „Begona diyor“ degani emas-ku! Chanqagan ekansan, tomog‘ingni ho‘llab ol. Nega suv yo‘q deb o‘zingni aldaysan?

Tadzima „Begona diyor“ deb mening bir pyesamga ishora qilayotgan edi. Uni yaqinda televizorda ko‘rsatishgan edi. Bu diyorning ruhan ozod odamlari hech narsadan tap tortmas edilar. Ushbu diyorga bir odam keladi. Qachonlardir sevgan ayolini uchratadi. Sevishganlar o‘tmish-u kelajakni unutadilar. Faqat bugunni deb yashaydilar. Kunlardan bir kun oshiq yigit chanqaganini sezib qoladi. Tashnalikdan tomog‘i quriydi, lablari yorilib ketadi, ammo suv topa olmaydi. Bu shahar odamlari yo suv ichishmaydi yoki suvning boshqa bir nomi bor. Yigit „suv“ deya zor qaqshagani sari odamlarga kulgi bo‘ladi. „Suv“ dagan sari chanqog‘i ortadi. Odamlar xoxolashga tushadilar. Nahot tashna odam ahvoli shuncha kulgili bo‘lsa? Oxiri oshiq o‘z muhabbati, baxtidan kechib yurtiga jo‘naydi. U yakkash bir narsa – qultum suv uchun baxtidan voz kechadi... vassalom.

Shu pyesamni televizorda ko‘rsatishgani hamono tanqidchilar hujum boshlashgandi. Ular asarimni qandaydir mantiqsizlik va yana allambalolarda ayblashar ekan, donishmandona ilmiy so‘zlarni tiqishtirib tashlashgandi. Pyesani yozishimga

qanday arziyas narsa bahona bo'lganini bilishganda edi... Tush ko'rgandim o'shanda. Tushimda bir erkak quchog'ida emishman. Odamlar bizga qarashar, men bunday hecham uyalmayotganmishman. Nega bunday tush ko'rganimni tushunolmayman. Men o'ta uyatchan ayolman. Lekin tushimda uyatsizligimdan o'zimni baxtiyor sezibman. Shu holatda uzoqroq qolishni istabman. Uyg'ongach chanqoqdan ichim yonayotganini his qildim. Tushunarli. Kechki ovqatning tuzi balandroq bo'lgan edi. Bu gapni tepsa tebranmas, oldiga qo'yganingni yeb ketaveradigan erim ham aytgandi. Uyqu garangligi bilan oshxonaga borib, to'yib-to'yib suv ichdim. Suv shunday rohatbaxsh ediki, umrimda bunday mazani tuymagandim. Uyqum ochilib, tushdagi erkak Tadzimaga o'xshab ketishini esladim. Yo'q, yo'q, tushimda uning Tadzima ekanini bilmasdim. O'zimga kelgachgina bu Tadzima edi degan qat'iy fikrga kelgandim.

– Umring ich-etingni yeyish bilan o'tyapti...

Nahot Tadzima meni ayblayotgan bo'lsa? O'shanda, „Saymura turmushga chiqaveraymi deganimda“, Tadzima sovuqqina qilib „U bilan sen yashaysan, ko'nglingga qara“, degan edi. To'g'ri, keyinroq u „Seni dabdurustdan er qilib ketishingni kutmovdim“ deganday bo'luvdi. Lekin bu so'zlarni aytayotganida yuz-ko'zida pushaymonlik alomatlari sezilmagandi. Ehtimol, hammasi ichida bo'lgan-u, sezdirilmagandir? Shunday bo'lishini xohlardim, ammo ishonolmasdim. Ehtimol barchasi o'ta jo'ndir: Tadzima yuragida muhabbatning o'zi yo'qdir. Unda Tadzima achinishga ham arzimaydi. U esa menga achinsa kerak. Iztiroblarim boisi ham ehtimol shudir. Hozir ham uni Saymura haqidagi cho'pchaklarimga ishontirishga urinib yotibman. Ha, Saymura oliyjanob, mehribon odam. Tushunadi, qiziqishlarimni hurmat qiladi. Ko'nglimdagidek odam. Unga tegib ijodimga ham baraka kirdi. Oilaviy baxt bundan ortiq bo'ladimi? Saymura chindan ham ajoyib odam va topilmas er...

Tadzima so'zlarimga ishondi deb o'ylovdim. Biroq u gaplarimga kulib qo'ydi, xalos.

– Sen baxtsiz bo‘lishdan qo‘rqasan. Shuning uchun baxt haqida cho‘pchaklar to‘qiyan. Hammani ishontiray deysan. Ammo o‘z turmushingdan roziligingga inonib bo‘lmaydi.

Men uning nohaq emasligini bilaman. Bilib turib rad etishga tushdim. Tadzima yana bir qaqshatqich zarba berdi. Qo‘lida sigareta qutisini o‘ynar ekan, begona bir ohangda dedi:

– Gapniyam olasan-da o‘zingam! Axir amakimni miridan – sirigacha bilmasam ekan...

So‘zlaridan titrab ketdim. Bu so‘zlar shunday kutilmaganida jarangladiki, na achchiq qilishga, na hayratlanishga ulgurdim. Go‘yo qotib qolgan kino tasmasi edim: gung-u lol, hissiz va og‘ir aylanayotgan vaqt hukmidagi bo‘shliqday. Ammo Tadzimaning so‘zlari qobig‘im devorlariga nashtar bo‘lib sanchildi. Tig‘ jarohatidan qo‘rqib, qobig‘im to‘riga qochdim. Qo‘llarim bilan o‘zimni to‘sdim. Issiqqina, bexavotir o‘rnimga shilliqqurt misoli yopishib oldim.

Tadzima nimaga shama qilayotgani ma‘lum edi. Ammo gap bunda emasdi, yo‘q! Buni to‘ygacha ham bilardim. Saymura mendan hech narsani yashirman, hatto bu jihatdan erkin ekanimga ishora ham qilgan edi. Saymura bilan ruhiy yaqinlik bo‘lishiga ishongandim. Tadzima uchun bu maydonda joy yo‘q. Axir biz Saymura bilan er-xotinmiz! O‘ta ehtirosli quchoq ham ruhiy halovat bera olmadi-ku axir! Yo mening halovatim qiyshiq oyna halovatimikan? Ha, men sarob ortidan tushganman. Quvlaganim sayin u mendan qochib boradi... Ehtimol, hammasiga o‘zim aybdordirman? Yaxshi xotin bo‘lmagandirman? Suyukli xotin bo‘lishga loyiq emasdirman? Demak, men yakkash o‘zim o‘limga hukm etgan „men“nikiman.

Tadzima haddan oshganini tushunganga o‘xshar, jimgina o‘tirar, ko‘zini yerdan uzmasdi.

– Demak, bu yerga tomosha uchun kelarkansan-da?

– Yo‘g‘-e! Nima deyapsan? Ahvolimni sen tushunmaysan, ammo...

Gapining davomini sabrsizlanib kutardim. Aftidan oramizda ignaning uchichalik so‘qmoq paydo bo‘layotgan edi...

Shu payt eshik tomonda jazavali gumburlash, so‘ng janob Asayning ovozi keldi:

– Saymura! Saymura-san!... Yalinaman oching eshigingizni!

Biz baravar eshikka otildik. Asay duduqlangan cha dedi:

– M-mmm-a-ri k-kapalakka aylanib qoldi!... Bir lahzagina ko‘zdan qochirdim. Qarasam kapalak...

Bechorani qanday ovutishni bilmasdim. Ahvolni ko‘rish uchun unikiga yo‘l oldim.

Kapalak ilkis ko‘zga tashlanmadi. Uni izlashga to‘g‘ri keldi.

– Asagimadruga aylandi! Qaranglar qanday suluv... – Asayning yuzlari hiyla yorishdi.

Asagimadra xuddi kolleksiyada ko‘rganimizning o‘zi edi. Bejirim qanotchalarini quyosh nurida jilva qilardi. U haqiqatan suluv edi. Bir choy qaynaguncha undan ko‘z uzolmay o‘tirdik.

Janob Asay kapalakchaga qarab qotib qolgandi. Ko‘zarida olov yiltillardi.

– Qanday latofat, qanday joziba! Marining bunchalar maf-tunkorligini avval bilmagan ekanman... – vaysardi u.

– Ayollarni yalmog‘iz deyishardi, lekin men...

Tadzima men tomonga burilib shunday dedi. Uni rad etmadim.

Yana bir ayol kapalakka aylandi...

Shafaq nurlariga chulg‘anibgina turibman. Atrofimda kapalaklar raqsi. Minglab, yuz minglab kapalaklar. Qulog‘imga dengiz mavji eshitiladi. Bu tovushni Tadzima eshitmasin uchun nafasimni ichimga yutdim... O‘sha bolalik, o‘sha hayajon... Yo‘q, yo‘q, u emas, u endi qaytmaydi... Biroq unga yaqin nimadir vujudim aro quyilardi.

Bizni unutgan Asay kapalakchasi izidan xonama-xona chopib yurardi. Ovozi palag‘da, bo‘g‘ilgan odamnikidek edi. Ehtiros bo‘g‘zidan olgandi go‘yo.

– Mari, Mari!... – Takrorlardi Asay. – Azizim, men barini tushundim, sen haqsan, haqsan!... Faqat meni tashlab ketma, uchib ketma! Sensiz o‘laman...

Biz Tadzima bilan jimgina chiqib, eshik yonida xayrlashdik. Sal avvalroq yolg‘iz qolishni xohlayotgandim. Bo‘m-bo‘sh xona-

ga kirishim bilan ko'nglim qop-qora bo'ldi. O'tirganimni bilaman, stol ustidagi olma po'choqlariga bosh qo'yib ho'ngrab yubordim. Qimirlashga majolim yo'q edi. To'yib – to'yib yig'lagim kelardi. O'zimga achinib yig'lar edim. Tadzima menga qo'l cho'zishga jar'at qilolmay ketdi. Har safar unga quchoq ochishni orzu qilaman. Ammo jur'atim yetmaydi. Bunday jur'atni yakkash tushimda topsam kerak. Meni nima ushlab turibdi o'zi? Nega buncha uyalmasam? Qadam bosishimga nima qo'ymayapti meni?!...

Hozirgina Tadzima aytgan so'zlarni esladim: „Ahvolimni sen tushunmaysan, ammo...“ Uning bunchalik jiddiy gapirganimni avval ko'rmaganman. Bu gapni aytmagani yaxshiydi. Endi kech. Men Saymuraning xotiniman. Faqat u meniga yordam berishi mumkin. Tadzima qo'rqoq! Bir vaqtlar shu Tadzimadan umid qilgandim. Adashgan ekanman. Uning qo'lidan faqat nashtar sanchish kelarkan. Mening qobig'im esa nashtar ura yorilib ketadigan tuxum po'chog'i emas. Birovni ermaklash, ezish oson. Buning muhabbatga nima dahli bor... Daf'atan yana qobig'imga o'ralayotganimni his qildim. Men uni ta'mirlashga tushgandim. Mustahkamlashni istayotgandim. Jarohatlarimni yashirish, yanada yaxshiroq o'rmashib olish uchun. Nahot endi hecham ruhim orom ololmaydi? Nahotki jarohatlarim qoni bilan qobig'imga yamoq solib o'taman? Ozodligim shumi? Kapalak bo'lmoq saodati qismatimda yo'qmi? Isyonkor ovozdanda qutulish uchun qobig'imni yamashga tushdim...

\* \* \*

Avgust oyining oxirlari bo'lsa ham, quyosh tafti tushmagan. Harorat o'ttiz darajadan yuqori. Yomg'irdan darak yo'q. Aytishlaricha, bunday ob-havo sakson yilda bir kelarkan.

Kun bo'yi uyda o'tirardim. Hech joyga chiqmasdim. Shunday bo'lsa ham uyimizdagi barcha ayollar kapalakka aylangan qulog'imga yetdi. Men shafqatsiz, ta'nali nigohlardan qo'rqardim. Shuning uchun uyda o'tirardim. Xayolimda meni ko'rgan odam borki „Qaranglar, qaranglar, kapalakka aylangan ayol“ deydigandek bo'laverardi.

„Siz nega kapalakka aylanmadingiz, gap-so‘zdan qo‘rqdingizmi?“

„Ishingiz xalal beryaptimi?..“ „Bir paytning o‘zida ham yozish, ham kapalak bo‘lish mumkinmi?..“ „Hecham kapalak bo‘lishni xohlamaganmisiz?..“

Erlik bo‘lgunimcha ham menga bunday bema’ni savollarni ko‘p berishgan:

- Nega turmushga chiqmaysiz?..
- Nikohga qarshimisiz?..
- Siz uchun ish muhimmi, oilami?..
- Erga tegishni xohlamaysizmi?..

Endilikda o‘zimga o‘zim savol berardim: men kapalak bo‘lishga loyiqmasmanmi?!

Ha, o‘z savolimga qat’iy javobim hozir edi: chunki bu – bu menman! Kapalakmasman, ayolman. Ammo rosti bilan ayolmanmi? Muhimi shu. Ana hamma ayollar jo‘ngina yashab, jo‘ngina qanot qoqib yurishibdi. Yo‘q, men ayol emasman. Qayg‘u-g‘amim ham shu... Uyat, qo‘rquv... Erim meni jinni xayol qiladi.

– Kapalakka aylanib nima qilasan?.. Menga kelsak, shu turishingda yoqasan. Sen sabr-bardoshli, aqlli, ishli ayolsan. Nimadan siqilayotganingni yaxshi tushunaman. Yo‘ling ochiq deganman-ku!... Senga buning uchun uylanmaganman. Shunchaki turmush qursang, hayotingga ma’no kiradi deb o‘ylovdim. Hayotingdan qoniqmayotgan bo‘lsang, marhamat, o‘zingga boshqa er top. Qarshiligim yo‘q. Xohlasang men bilan qol. Birovini tanla. Odam ham o‘zini shuncha qiynaydimi?

Keyin u menga esidan og‘gan qirqoyoq haqida so‘zladi. Kitobda o‘qigan ekan.

– Bor ekan-u yo‘q ekan, bir qirqoyoq bo‘lgan ekan. Yugurib-yelib qayg‘u nimaligini bilmas ekan. Bir kuni o‘ylab qolibdi: qaysi oyoqda yurgan yaxshi. Shu xayol bilan bo‘lib qolib tushibdi va oyog‘i osmondan bo‘lib yiqilibdi. O‘shanda unga qirqta oyog‘i ham yordam berolmagan ekan. Sen o‘sha qirqoyoqqa o‘xshab ketasan.



Tishimni oqini ham ko'rsatmadim. U to'g'ri gapiryapti. Faqat men qirqoyoq emas, o'z g'umbagidan chiqishga urinayotgan qurtman. Pilla o'rashdan boshqaga yaramayman. Yaramni bekitishdan boshqa ishim yo'q. Uni begona ko'zdan yashiraman. Qobig'im qalin. Ingraganlarimni birov eshitmaydi.

Keyingi paytda erim ishdan kech qaytarni odat qildi. Ilhom mavsumi boshlangan. Kechgacha ustaxonada qolib ketadi. Kuchga to'lgan, navqiron, serg'ayrat. Ehtimol hamma uchun umrning shunday mavsumi bo'ladi. Ammo... gap faqat ishdamikan?

Erimni kutib kechgacha yolg'iz o'tiraman. Yozishga toqatim ham, kuchim ham yo'q. Qulog'imda o'sha qizning kulgisi jaranglaydi. Yumini eslasam ko'z oldimda „Asogimadra“ degan kapalakcha qanot qoqadi... Kapalakcha... Har na qilsam-da ular-dan qutulolmayman. Loaqal bir lahzaga unutay deb ichkilik ichdim-u ichishga o'rganib qoldim. Viski o'ta jirkanch narsa. Biroq uni ichsam kayfiyatim ko'tariladi. Qobig'imdagi chuvalashgan tolalar yechila boshlaydi. Jismiu jonimda yengillik sezaman. Ozodlik – ajib tuyg'u! O'zimni har ishga qodir his etaman: istalgan shaklga kira olaman. Kapalak nima bo'пти... Qo'lim yetmagan joyning o'zi yo'q...

Sentabr oxirlaganini sezmay qolibman. Hayotim hamon o'sha-o'sha. Pyesani yoza olmadim. Goho „Kapalak mavsumi“ deb yozilgan varaqni olib, boshim uzra aylantiraman. Shu ikki so'zni takrorlayman. Qiziq, o'shanda nima haqida yozmoqchi bo'lgan ekanman? Zo'r narsa yozishimga ishochim komil edi-ku!

Bir kuni quyosh botishi bilan havo sovib ketdi. Erim ham uyga vaqtiliroq qaytdi. Qo'limda viskini ko'rib, qovog'i solindi.

– Ichganing yetar, sen mastsan! – u qo'limdagi qadahni tortib olmoqchi bo'ldi.

– Meni o'z holimga qo'y! Yaxshisi suv keltirib ber...

Birinchi marta unga qarshilik ko'rsatdim. Hatto buyruq qildim. U bundan biroz hayratlandi. Ammo indamay suvga ketdi.

Yana ozgina, yana ozroq va baxt quyoshi porlaydi... Oz qoldi, ana ozgina qoldi... So'nggi tola ham uzildi va... Yo'q,

yo‘q bo‘lmayapti... Ammo kerak... Nima kerak?.. Ha, ha! Yana ichish kerak... Viskini bir ko‘tarishda ichib yubordim. Shu bilan qonimga titroqmi, junbushmi, bir nima oqib kirdi. Bu kecha bir nima sodir bo‘lishini his etdim.

Telefon jiringladi. Beixtiyor go‘shakni ko‘tardim. Birdan Yumining ovozi eshitdim. U qandaydir restorandan qo‘ng‘i-roq qilayotgandi. Go‘shak ortida kulgu va musiqa tovushikeldi. Bu tovushlar sanoqsiz kapalaklar parvozini eslatardi. Bu tovudan lol bo‘lib qoldim.

– Kim bu?.. Shu mahalda-ya!...

Boshqa hech nima deya olmasdim, faqat bosh chayqadim. Erim go‘shakni qo‘limdan oldi.

– Allo! Kim bu?.. E, senmisan, Yumi! Bu nima qiliq! Nega so‘zimga kirmading? Uyingga borib vaqtiliroq uxla demaganmiding senga... Soat nechchi, bilasanmi?..

Aftidan Yumi undan nimanidir iltimos qilayotgandi. Erim avval ko‘nmadi, so‘ng yon berdi.

– Xo‘p mayli, hozir yetib boraman. Meni kutgin, ketib qolma. Erim go‘shakni qo‘yib, shkafdan kamzulini oldi.

– Bu qiz meni o‘ldiradi!

– Ketyapsanmi?

– Yumi aytdiki, hozir yetib bormasam o‘zini o‘ldirarmish.

– Qanday bema‘nilik, u shunchaki seni kalaka qilyapti.

– Yo‘q, yo‘q. Yumidan buni kutsa bo‘ladi!

– O‘lishga shuncha orzumand ekan, halal berib nima qilasan? Saymura menga sinchkov tikildi:

– Shu gapni aytishga uyalmaysanmi?

– Seni qo‘yvormasamchi?

– Senga nima bo‘ldi? Yumidan rashk qilyapsanmi? Tashvishlanma, Yumini uyiga tashlayman-u qaytaman.

U kamzulini egniga ild-yu jo‘nadi.

„Senga nima bo‘ldi?..“ Ajoyib savol! Rostdan ham nima bo‘ldi menga? Rostdan ham bir gap bo‘lsa-chi! Ayni paytda Saymura Yumidan ham, boshqasidan ham ko‘ra menga kerak bo‘lsa-chi? Yumi aytgan so‘zni men aytsam Saymura nima qilari-

di? Ishonmasdi, albatta. Boshqalar ham ishonishmasdi. „Kesakdan o‘t chiqdimi?“ deb kulishardi. Axir men shunaqa ayolman. Bunday ahmoqona ishni qilishim mumkin emas. Xavotirga o‘rin yo‘q. Risoladagi ayol: ustiga chiqib tepsang ham miq etmaydi. Qayg‘u-quvonchini ichiga yutadi. Risoladagi ayolman. Tashvish ortiqcha... Men bilan hisoblashmasliklarining sababi shu. Men o‘ta risoladagi ayolman. Umuman, risoladagi ayol nima degani? Uning lo‘mbillagan g‘ozdan biror farqi bormi? Xunukkina, irkitgina, yerrang, ko‘z ilg‘amas bir parranda bu risoladagi ayol degani. Qo‘ndog‘ida mudrashdan boshqani bilmaydigan, birovga ziyoni tegmaydigan bir makyon. „Jim“ deyildimi, vassalom. Sabrni boshiga toj qiladi. Ishbuzuqlik uning ishi emas.

Qo‘limda viski to‘la qadahni tutganicha kresloga cho‘kdim. Sekin xirgoyi qila boshladim.

– O‘zimni o‘ldiramaaannn!... Yarim soatda qaytmasang...

– O‘zimni o‘ldiramannn!.. Agar meni sevmasangg...

– O‘zimni o‘ldiraman... Ko‘rasan o‘ldiraman... O‘lganimni ko‘rasan...

Ovozim bo‘g‘ilib chiqardi. Men uyda yolg‘iz edim, huvullagan uyda, butun olamda yolg‘iz edim. Ko‘zyoshlarim yuzimni yuvayotganini ham payqamabman.

\* \* \*

Eshik qo‘ng‘irog‘i jiringlaganida men to‘shakda yotardim. Gandiraklab borib eshikni ochdim-da, oh tortib yubordim. Erim keldimi desam, ostonada Tadzima turardi.

Tadzimaning hayrati menikidan ham oshib tushdi. U o‘zini bir qadam ortga olib, meni birinchi marta ko‘rayotgandek tikilib qoldi. Bir bahyadan keyin tilga kirdi. U bir oshnasinikida qimor o‘ynab bor – budini yutqizgan, bizdan yo‘lkira so‘ra uchun kirgan ekan. Ko‘cha sovuq bo‘lganidan Tadzima muzlab ketgandi. Uni uyga taklif qildim.

U shirakayf edi. Ochilgan shishani ko‘rib qadahni to‘ldirdida bir ko‘tarishda bo‘shatdi.

– Amakim ko‘rinmaydi?

– Ketgan. Yumi o‘zini o‘ldirayotgan ekan. Eshitiboq „Tez yordam“ mashinasidek g‘izilladi.

– „Tez yordam“ mashinasi – buni qarang-a!

Tadzima asabiy kuldi.

– Bilasanmi, menga eshik ochganingda hayron qoldim. Nihoyat kapalakka aylanibdi-da deb o‘yladim. Balki, mana buning uchundir.

Shundagina o‘zimning harir tungi ko‘ylakda ekanimni angladim.

– Mastmisan? Ana bo‘lmasa!

Tadzimaning ko‘zlarida ehtiros olovi yiltilladi. U menga oshkora tikilgancha, ishonch hosil qilmoqchidek so‘radi:

– Esingdami, bir safar ko‘rgazmaga borganimiz? O‘shanda bir kapalakni ko‘rgandik. Nomini eslolmayapman. Kattagina, moviy rang... Faqat Janubiy Amerikada uchrar ekan...

Turmush qurgunimcha Tadzima bilan „Dunyo kapalaklari“ ko‘rgazmasiga borgan edik. Ko‘rgazma bir universal magazinda o‘tgandi. Zal markazida osilib turgan kattagina moviy kapalak xuddi tirikka o‘xshardi. U havoda charx urar, boshqa kapalaklar undagi chiroyga dosh berolmay o‘zlarini chetga olishgan edi. Dunyoda shunday ajoyibot ham borligiga ko‘z ishonmasdi. Uning oldidan jilolmay qolgandik. Bu sirli olam malikasiga ko‘nglimiz ketib, orzu qonotida uchib yurardik.

– Bunday suluvlikka biror erkak dosh berishi qiyinov, – hazil qilgandi o‘shanda Tadzima...

Men kiyinib olish uchun yotog‘imga yo‘naldim. Karavotga yaqinlashganimni bilaman, Tadzima orqamdan yondashib bag‘riga mahkam bosdi.

Burilganimda yuzim labiga tegib qoldi.

– Kapalagim, suluvgina kapalagim!

Tadzima meni qattiq quchoqladi.

Erim bilan yotadigan kravotimiz pastakkina edi. Ammo polda yotgan odamga yotoqxona tamom boshqacha ko‘rinarkan. Ikir – chikirigacha menga tanish yotoqxona qaygadir yo‘qolgandi. Stol chirog‘idan shiftga g‘aroyib soyalar tushib

maydi. U „Sening oldingda aybdorman“ dedi. Ertaga hammasini tushunarmishman. Shunisi yetmay turuvdi endi! U meni yoliz tashlab ketdimi? Bunga qanday jur'at qildi? Men quvonchdan ayro yashay olmayman endi, tamom!

Ha, men endi muhabbat otashisiz, nur va quvonchlarsiz o'lib qolaman. Endi mening qobig'im yo'q. Sovuq g'am nashtaridan himoyalana olmayman endi.

Bor kuchimni yig'ib qanotimni silkitdim, xona bo'ylab ucha boshladim. Parvozim unyadi, bir joydan jilolmay qoldim.

Yorug'lik istayman! Menga yorqin nur kerak! O-o, menga quvonch baxsh eting! Nahot hech kim eshitmasa?! Sovuq qotyapman, sovuq qotyapman!...

Nega bunday bo'lyapti? Axir hozirgina qayta tug'ildim. Yangi hayotga endi qadam qo'ydim. Uzoq yillik orzularim ushaldi. Men kapalakman, men kapalakman! Biroq qani yengillik, qani u kapalak umrining jilolari?!

Olam hamishagidek tund, men ham yolg'iz edim. Balki, tun bo'lgani uchun shundaydir.

Tong otsa, hammasi boshqacha bo'ladi. Ufq nuri yana menga kuch bag'ishlaydi. Tunda hamma uxlaydi. Kapalaklar ham uxlashi kerak. Qanotlaringni yig'asan-u biror yaproq ostida orom olasan. Qiziq, kapalaklar nimani tush ko'risharkan?

Uyqusida nimadir qo'msab, jajji qanotchalarini titrarmikan? Ha, beozor uxlayotganda ham kapalak quvonchni, otash mavjini, nur jilosini sog'insa kerak. Ertaga kun chiqqanda men qayta tirilaman. Ertaga Mening yangi hayotim boshlanadi. O'shanda...

## XOTIMA

Yaponiyaning jonolar dim havosi o'rnini sovuq kunlar egaladi. Ayniqsa ertalabki sovuq muzlataman deydi. Ilk kuz havosiga sira o'xshamaydi.

Saymura tun bo'yi kiprik qoqmay, deraza oldidagi kursida tongni kutib oldi.

U o'tgan kecha tunni yarimlatib uyiga qaytganida xotini Satokoninig polda, beligacha ko'tarilib ketgan tungi ko'ylakda yotganini ko'rdi.

U erini ko'rgan zahoti sapchib o'rnidan turdi. Bo'yniga osilganча dedi: „Meni og'ushingga ol. Meni quvontir. Meni erkala!“ Saymura xotinin mastlikda aljirayapti deb gumon qilgan edi. Ammo adashgan ekan. U noma'lum tarafga ma'yus tikilganча faqat bir gapni takrorlardi: „Men kapalakman, men kapalakman!...“ Aqldan ozgani shubhasiz edi.

Saymura apil-tapil vrachga sim qoqdi. Maslahatlashib uni zudlik bilan kasalxonaga yotqizish kerak degan qarorga kelishdi. Allamahal bo'lishiga qaramay, vrachning o'zi yoniga bir hamshirani olib, „Tez yordam“ mashinasida qaytib keldi. Saymura xotinini kiyintirmoqchi edi, Satoko bunga unamadi. Yalini-b-yolvorishidan ham ish chiqmadi. Oxiri shu holatida mashinaga o'tqazishga to'g'ri keldi. So'ng Saymura uyiga qaytdi.

Oxirgi paytlarda xotininining asabiy bo'lib borayotganini his qilir, lekin ko'pam e'tibor bermagandi. Hozir shundan qattiq iztirobda edi.

U xotininining yozuv stoli yoniga borib, kattagina daftarni qo'liga oldi. Daftar muqovasida „Kapalak mavsumi“ deb yozib qo'yilgan edi. Satoko ikki oycha burun bu haqda gapirgandek

bo'luvdi. Biron narsa qoraladimikin? Daftarni ochib pyesa o'rniga xotining husnixati bilan yozilgan qoramaga ko'zi tushdi. Ehtimol u roman yozgandir?

Saymura hech qachon xotining ishlariga aralashmagan. Hozir birinchi marta uning qo'lyozmasini o'qishga jur'at topdi. Balki, shund axotining asl dardi nima ekanini bilib olar. Qo'lyozma romandan ko'ra kundalikka ko'proq o'xshardi. Bu g'aroyib kundalik edi. G'aroyibliigi shunda ediki, unda voqelik o'rnini og'riq va iztiroblarga to'la xom xayol egallagandi. Saymura bu ma'nisizlik oldida o'zini yo'qotdi...

Qo'lyozmani o'qigani sayin hayrati oshib bordi. Bu tun Tadzimaning bu yerda bo'lishi mumkin emasdi. Chunki u restoranda Saymura bilan birga edi. Uni Yumining ahvoli shoshirib qo'ygandi. Ikkovlashib bir amallab Yumini uyiga olib borishdi. Shundan so'ng Tadzimani Yumining oldiga qoldirib, Saymuraning o'zi oshg'ich uyiga qaytdi.

Tadzimaning kelishi bemisl xohish oqibatida yuz bergan alahlash ekani aniq. Saymura xotining Tadzima bilan munosabatini yaxshi bilmaydi. Ammo shuni biladiki, jiyani Tadzima ayol kishida bu qadar kuchli ehtiros bo'ronini qo'zg'atishga qodir emas. Tadzima Satokoni sevar ekan Saymura unga ikki duyoda ham uylanmasdi. Naqadar chalkash, naqadar ahmoqona o'yin. Saymura bu ayolni chinakamiga baxtiyor qilmoqchi edi. Uni bir tusdagi, yuzaki, adabiy faoliyat niqobi bilan o'ralgan, yolg'izlik g'ami ado qilayozgan hayotidan ozod qilmoqchi edi. Unga to'kis turmush, xotirjamlik, quvonch va baxt bermoqchi edi. Bari chappasiga aylanib ketdi. Tashqaridan qaraganda Satoko xotirjam, hayotidan mamnun ko'rinardi. Tunlari uning quchog'ida mushukdek beozor uxlar, ortiq hech narsa talab qilmasdi. Uning baxtsiz ekani Saymura xayolining ko'chasiga ham kirmagan. Shunday og'irkarvon, yuvosh ayolning tiyiqsiz ehtirosini yuragiga ko'mib yashaganiga aql bovar qilmaydi. Aftidan doimiy yolg'izlik uni ehtiros bo'ronlarini ichida saqlashga, qalb tug'yonlarini xotirjamlik niqobi ostiga yashirishga, baliqdek bezabon bo'lib yashashga o'rgatgan.

Evoh, bularni sal avvalroq bilganida edi!

„Satoko, sen baxtli bo‘lishing kerak. Nega o‘zingni irkit o‘rdakchaman deb xayol qilasan. Axir o‘rdak yerrang ko‘ringani bilan olamning turfa ranglari-yu ajib ohanglaridan bahra oladi, shirin-shirin tushlar ko‘radi. Muhimi unning yuragida kelakka umid yashaydi. Kapalak nima o‘zi? Bir bora yarq etadi-yu o‘chadi. Unda na iztirob sog‘inchi, na orzu quvonchi bor.

Sen kapalak bo‘lishni judayam xohlading. Chunki na ijod, na turmush seni quvontira olardi. Sen bir lahza bo‘lsa ham asl hayot quvonchini his qilay deb yashading. Nimayam derdim, niyatingga yetding – kapalakka aylanding“.

Saymura xotiniga achinardi. U ilk bor xotining Tadzima ikkovlari o‘rtasida nasib etishi mumkin bo‘lmagan narsa ilinjida behuda sargardon bo‘lganini his etdi. Qobiq ichiga tashlab qo‘yilgan bechora ayol o‘zining abadiy yolg‘izlikka hukm etilganini bilib yashagan. Axir bunday mahkumlik hammaning boshida bor-ku! Odam zoti borki, vujud qo‘lida qaram. Undan ozod bo‘lishga qodir emas. Bir kishi odamzodni vujud qafasining bir umrlik mahbusi degan ekan. Eh, nodongina! Na eri, na Tadzima, uni hech qachon ko‘ngil mahbusligidan qutqara olmasligini anglamagan nodongina. Yo uning o‘zi, o‘z kuchi bilan bu qafas devorini sindira oldimikan? Ehtimol. Ehtimol, u so‘ngsiz xayollar tizmasidan arqon eshib, borliq dunyoni tark etgan, kapalakka evrilgandir. Saymurani birdan xotinimni kasalxonaga yotqizib to‘g‘ri qildimmi, degan shubha o‘rab oldi. Albatta, bu ishni xotinimga yaxshi bo‘lsin deb qildi, lekin... Xotini u bilan ruhiy yaqinlikka intizor edi. Shu asnoda baxt, quvonch topmoqchi edi. U ayoliga bunday baxtni bera olishiga ishonmaydi. Ammo inson dardiga o‘zidan o‘zga kim ham mahram bo‘la olardi! Endi xotinini tashlab qo‘ymaydi. Doim yonida bo‘ladi. O‘zini kapalak xayol qilayotgan bu ayol bilan turmush kechirish unga hatto yoqimli tuyuldi.

Hamma xonalarni gulga burkaydi. Shunday dunyo quradiki, u faqat ikkovlariniki bo‘ladi. Endi yangi hayot boshlaydilar.



Mari erini ishga kuzatib eshik oldida xayol surib turardi. Ertalab havo birdan sovib ketdi. U liboslari orasini titkila-di – kiyadigan narsaning o‘zi yo‘q... Izlay-izlay oxiri svitirini oldi.

Yoz ko‘z ochib yumguncha o‘tib ketganini sezmay ham qolibdi. Na dengizga, na biror boshqa joyga sayohat qilishga ulgurishdi. Axir Syun va‘da bergandi-ku! E, qaysi erkak va‘dasida turgan o‘zi. Nima qila olarding. Nafsilamrini aytganda, erkakni ham ayblab bo‘lmaydi. Bo‘lar-bo‘lmas narsalarni sotib olaverib, erining cho‘ntagini quritgan o‘zi-ku.

Svitirini egniga ilgan Mari koridorga, qo‘shni ayollar bilan gap sotgani chiqdi.

Bugungi g‘iybat janob Saymuraning xotini ustida bo‘ldi. Kechasi uni kasalxonaga olib ketishibdi. Yana qanaqa kasalxonaga deng!

Tunda Mari ularnikidan g‘alati ho‘ngillash, g‘ayritabiiy tovushlarini eshitgandi. Keyin mashina shovqini keldi. Zum o‘tmay mashina qaytib ketdi.

Mari uh tortdi. Axir u Saymuralarni eng sadoqatli oila deb bilardi. Kimdir Satokoning kasalini erining xiyonatiga yo‘ydi. Bilib bo‘ladimi? O‘zgalar derazasidan taralgan shu‘la hamisha jozib tuyuladi.

– Bechora! Hozir ayol kishi uchun eng halokatli yoshda edi, – o‘smoqchilab dedi qo‘shni ayollarning yoshi ulug‘rog‘i.

„Bo‘lmasamchi, – o‘yladi Mari, – ana Nakamura xonim ham bir kunda erini tashladi-ketdi.

Ha, sirdan hech narsa bilinmaydi. G‘iybatlashib o‘tirgan bu ayollarning bari bir qarashda baxtli ko‘rinadi. Ichidagini bilib bo‘ladimi?“

Qalbidagi iztiroblardan holsizlangan Mari atrofga alanglar ekan, daf‘atan beton polda o‘lib yotgan kapalakni ko‘rib qoldi.

– Qaranglar, kapalak! Bu yoqqa qanday kelib qoldi? Nozikligini, suluvligini qarang!

Mari engashib qora yo‘l-yo‘l qanotli, mittigina kapalakchani qo‘liga oldi. U hali bunaqasini ko‘rmagandi.

Shundagina Marining nigohi kulrang beton pol ustida sochilib yotgan son-sanoqsiz kapalak murdalariga tushdi. Ehtimol, bevaqt tushgan sovuqqa chidayolmay jon berishgandir?

Lekin buncha kapalak bu yerga qayoqdan kelib qoldi?

Kimdir eshikni ochib yubordi. Koridorga yopirilib kirgan sovuq shamol tosh qotgan kapalaklar jasadini havoga ko‘tarib aylantira boshladi. Go‘yo beozor kapalakchalar so‘nggi bor qanot qoqishdi. Zum o‘tmay yerga qulashdi va tosh qotishdi. Xotinlar bu manzarani o‘lik sukunat aro yurak hovuchlab kuza-tishdi. Bir daqiqa oldin go‘yo baxtdan yashnab turgan yuzlarni ham o‘lik tusi egalladi.

Yoz o‘tdi-ketdi... Yoz o‘tdi-yu quyoshning zarrin nurlari, qaynoq tafti-da so‘ndi.

Ortidan qayg‘uli xotiralar qoldirib, kapalak mavsumi ham intiho topdi.

## BAQACHA

Markiz o‘yin-kulgi desa o‘zini tomdan tashlardi. Hayotimda bunaqasini boshqa uchratmaganman. U go‘yo o‘yin-kulgi uchungina yashayotganga o‘xshardi. Markiz iltifotiga sazavor bo‘lish uchun biror-bir ichakuzdi hangomani qoyillatib aytib bersangiz bas edi. Shundanmikan, markizning yetti gumashtasi ham biri-biridan o‘tar darajada hazilkash, masxarabozlar edi. Ular markizga birgina bu tomondan emas, turish-turmushlari bilan ham mos tushishgandi. Yettovi-da qolipdan chiqqandek beso‘naqay, bo‘rdoqi misol baqaloq edi.

Bilolmayman, asli odamzot nimadan semirar ekan – ko‘p kulgidanmi yoki semizlikning o‘zida kulgiga tortadigan nimadir bo‘ladimi. Illo-billo, ikkinchisi haqiqatga yaqinroqqa o‘xshaydi. Zotan, dunyoni yalangoyoq aylanib chiqsangiz ham, ozg‘in masxarabozni topa olmaysiz – bundaylari anqoning urug‘i.

Madaniyat, xushmuomalalik, qirol tili bilan aytganda – „zakiylar nafosati“ uni aslo qiziqtirmasdi. Ammo har qanday kulgipob o‘yin uchun jonini berishga tayyor edi. Agar biror latifa yoki hangoma ko‘lamdor, ma‘noli kulgiga boy bo‘lsa-yu uni ezma, ikir-chikrlarigacha erinmay tavsiflaydigan odam aytsa ham, qirol bunga sabr qila bilar, oxirigacha tinglayverardi. Chigallik va teranlik esa unga yoqmasdi. U Volter „Zadiga“sidan Rable „Gargantuya“sini a‘loroq ko‘rardi. Har qanday nozik so‘z o‘yinlariga naqdgina hangoma-yu o‘yin-kulgini almashmasdi.

Men hikoya qilayotgan zamonlarda saroy masxaralari hali rusmdan chiqmagandi. Ovro‘po qit‘asidagi ba‘zi hukmdorlar hali-hamon saroylarida qo‘ng‘iroqchali kuloh kiygan „devona“ saqlashar, u bechoralarning qiladigan ishi o‘z xo‘jalarini hazil-

mutoyiba bilan ovuntirish bo‘lib, buning evaziga qirol dasturxonidan ortgan sarqitlar bilan siylanardilar.

O‘z-o‘zidan ma’lumki, bizning markizni ham o‘z „devona“si bor edi. Ammo uning vazifasi boshqa devonalarnikidan bir-muncha farq qilardi. Ya’ni u saroyda shunchalar ahmoq bo‘lib ko‘rinishi lozim ediki, bunday nodonlik, markizni aytmaganda ham, haligi yetti gumashta donoligini xaspo‘shlab, bo‘rttirib tursin.

O‘sha devona, ya’ni markiz masxarabozining fazilati yagona emasdi. U mittigina, bu ham yetmagandek maymoq bo‘lib, ayni „fazilatlar“ bois markiz oldidagi martabasi boshqa devonalarnikidan uch karra ortiq sanalardi. Umuman, u zamonlarda mitti odamchalarning saroy sohiblari qoshidagi mavqei masxaraboz-devonalarnikidan ortiq bo‘lsa ortiq ediki, kam emasdi. Ko‘p oq-suyaklar masxara hangomalaridan zavqlanmay yohud mittilarni masxara qilmay, saroydagi uzun kunlarini o‘tkazishni tasavvurlariga ham sig‘dirolmas edilar. Zotan, boshqa biror joyda kunlar saroydagidek intihosiz, zerikarli bo‘lmasa kerak.

Aytganimdek, yuz masxaradan to‘qson to‘qqizi baqaloq, ishyoqmas va dovdur bo‘ladi. Ammo bizning markiz yakkayuyagona Baqachasida (uni saroyda shunday atashardi) yetti xazina jamlanganidan xursand edi.

Chamamda Baqacha, bu mittivoyning cho‘qintirib qo‘yilgan asl ismi emas. Bu laqabni unga, hammaga o‘xshab yura olmagani uchun, yetti gumashta taqishgandi. Uning yurishi juda g‘alati edi. Goh shaytonlagan odamdek bilanglar, goh hakkallab yurardi. Bu markizni haddan ortiq zavqlantirar, hatto lazzat berardi. Holbuki, gumbazdek qorni, ayronxaltadek qabariq yuziga qaramasdan, barcha xo‘jasarolar markizning xushbichimligiga tahsin o‘qirdilar.

Marmar pol yoki ravon yo‘ldagi har bir qadam Baqacha uchun ayni mashaqqat edi. Biroq ona tabiat uni maymoq oyoqlari evaziga chayir va mushakdor qo‘llar bilan siylagandi. Mobodo biror daraxtga chiqishmi, arqonga o‘rlashmi yo biror tepalikka tirmashishmi bo‘lsa, u hammani haqqi rost qoyil

qoldirardi. Shunda u baqadan ko'ra olmaxon yoki abjir maymunchaga o'xshab ketardi.

Baqachaning asli qay yurtdan kelganini bilmayman. Ammo uning qandaydir yovvoyi, markizimiz mulkiga tegishli, gadoytopmas bir qishloqdan keltirilgani haqida elas-elas eshitganim bor. O'sha gadoytopmas qishloqdan mana shu Baqachaga qo'shib, bo'yi undan biroz tikroq, yoshgina, o'ta suluv, raqqosa qizchani markizning bir general do'sti jangovor g'alabasi sharafiga hadya qilib keltirgan. Shu tariqa o'z do'stiga sadoqatini izhor etgan general, bu g'arib-bechoralarni tug'ilmish tuprog'i bag'ridan ildizpildizi bilan sug'urib olishdan uyalmagan.

Alhol, shu ikki baxtiqaro orasida sof ruhiy yaqinlik bor edi deyilsa, ishonmassiz? Ishoning, ular qil o'tmas do'st edilar. Baqacha o'z g'aroyibliklari bilan barchani kuldirib, ko'plarning hojatini chiqarib yurgani bilan, bu jihatdan Tripetta xonimni doim ham xushnud eta bilmasdi. Xonim mittigina bo'lsa-da, o'ziga yetgancha nazokatli, go'zalligi esa doston bitgulik edi. Shuning uchun uni hamma yaxshi ko'rar, erkaklarning ko'z quvonchi edi u. Alqissa, qizchanning saroydagi nufuzi baland edi. Xonim imkon bo'ldi deguncha o'z nufuzidan foydalanib, Baqacha uchun nimadir qilishga urinardi.

Bir kuni markiz maskarad o'tkazmoqchi bo'ldi. Bunday ko'ngilxushliklar Baqacha va Tripettasiz hecham qizimasdi. Ayniqsa Baqacha shunday usta kashfiyotchi ediki, biror maskarad libosi uning aralashuvisiz mukammal bo'lmasdi.

Nihoyat, bayram oqshomi ham keldi. Tripetta rahbarligida hamma yoq saranjom-sarishta qilindi. Ulkan zal did bilan bezatildi. Maskarad zaliga hasham bag'ishlaydigan nimaiki bo'lsa, hammasi muhayyo etildi. Albatta, hamma qatnashuvchilar maskarad kechasiga mos libos va niqob tanlashi lozim edi. Ko'pchilik haftalab, hatto oylab bu tantanaga hozirlanar, hech narsani ko'zdan qochirmaslikka tirishardi. Faqat markiz va yetti gumashtaning tayyorgarligi joyida emasdi. Ular nega buncha taraddudlanayotganlarini, hatto hazil tariqasida bo'lsin, aytishga iymanaman. Voqean, ularni bu borada faqat bir muammo-

semizlik tashvishga solayotgandi. Maskarad kechasiga nima tanlashmasin, so‘lqildoq jussalariga tushay demasdi.

Ammo vaqt kutib turmaydi. So‘nggi umid esa Baqacha va Tripetta xonimdan edi. Nihoyat, ularni markiz huzuriga chorlab odam jo‘natishga qaror qilindi.

Mitti do‘stlar xojalari chaqirig‘iga bo‘yin eggancha zumda hozir bo‘lishdi. Bu paytda markiz yetti vaziri davrasida sharob ichib o‘tirar, aftidan uning kayfiyati rasvo edi. Bechora maymoqning kelishi bunday kayfiyat uchun ayni muddao bo‘ldi. Markiz Baqachaning ichkilikka sira tobi yo‘qligini, bir qultum yutsa, aqlini yo‘qotishini yaxshi bilardi. Illo, bu mitti odamchanning bor-yo‘q nuqsonsiz tomoni ham shu – aql-zakovati edi. Markiz gadoning o‘g‘rilardan qolgan so‘nggi moliga qo‘l cho‘zdi. Baqachaning aqli bilan o‘ynashishni ixtiyor etdi. Unga ichib, bir „mazza“ qilishni buyurdi.

– Hoy, Baqacha, qani bu yoqqa kelchi, – buyurdi u maymoq bilan do‘sti ostona hatlar-hatlamas. – Mana shu qadahni uzoqda qolgan do‘stlaring uchun bo‘shat (Baqacha uf tortib qo‘ydi). Keyin topqirliging bilan ko‘nglimizni xushnud et. Bizga ko‘z ko‘rib quloq eshitmagan niqoblar kerak. Bixillik jonga tegdi. Ma, ich. Bu sharob aqlingni peshlaydi.

Baqacha har doimgidek lutf qilishga og‘iz juftladi, ammo bu safar o‘xshatolmadi. Baxtga qarshi bugun uning tug‘ilgan kuni edi. Ustiga-ustak markizning „uzoqda qolgan do‘stlaring uchun ich“ degan gapidan keyin ko‘zlarida yosh aylandi. Yirik-yirik, achchiq yosh tomchilari xojasi „iltifotla“ uzatgan qadah ichiga dumaladi.

Maymoq qadahdagi sharobni bir zarb bilan ko‘z yoshlariga qo‘shib yutar ekan, tepasidan markizning qah-qah urib kulganini eshitdi.

– Ha-ha-ha-ha! Qaranglar, asl sharob mana bunday bo‘pti! Ko‘zingdan o‘t chiqib ketdi-ya!

Bechora Baqacha. Uning ko‘zlaridan o‘t chiqmadi, balki dardi dunyosiga o‘t tushdi. Baqachaning shundoq ham zaif vujudi, o‘tkir sharob tufayli qaltiradi, miyasida to‘fon qo‘pgandek

bo'ldi. U shalviragan qo'llari bilan qadahni stolga qo'ydi-da, atrofdagilarga telbayona mo'ltirab chiqdi. Aftidan markizning „chiroyli hazili“ hammani zavqlantirib yuborgandi.

– Endi ishdan gapir, – dedi shox tashlab semirgan bosh gumashta.

– H-a-a, – dedi markiz, – bizga ko'mak bersangchi, Baqacha. Qani so'yla, oshna, biz kimmiz o'zi? O'zing ayt, kimmiz biz!? Ha-ha-ha-ha!

Markizga o'z donoligi nash'a qildi. Yetti gumashta ham unga qo'shib hoholashdi.

Baqacha-da kuldi. Ammo kulgisi yig'iga o'xshab ketdi.

– Qani, qani, – uni qistadi markiz. – Biror narsa o'ylab top endi!

– Biror yangilik topishga urinib ko'raman, – dedi maymoq parishon qiyofada. Sharob uni boshidan olgan edi.

– Nima??! Urinib ko'rasan? – g'azab bilan qichqirdi zolim. – Bori shumi? Eh-ha, tushundim, tushundim, sharobdan baquvvat-roq quymaganim uchun mendan ranjiding. Ma, yana ich!

Markiz yana qadahni limmo-lim to'ldirib, maymoqqa uzatdi. U esa angrovsiragancha qadahga tikilib turardi.

– Ich dedim! – o'kirdi maxluq. – Iblisga qasamki, yo'qsa...

Mittivoy hamon imirsilardi. Markiz g'azabdan xurpayib ketdi. Xo'jasarolar yuzida tabassum o'ynadi. Shu payt rangi murdanikidek ko'karib ketgan Tripetta taxt tomon surinib bordi. Tiz cho'kkancha, xojasidan do'stiga shafqat so'rab yalina boshladi.

Zolim bir pas g'azabnok nigohini qizchadan uzmay tikilib turdi. Go'yo u ko'nglidagi marazni qaysi shaklda tashiga chiqarishni o'ylardi. Nihoyat, gap yo'q, so'z yo'q bahaybat qaddini rosladi-da, bor kuchi bilan qizchani itarib yubordi. Bu ham yetmagandek, qo'lidagi to'la qadahni uning qo'rquvdan oqarib ketgan yuziga sepdi.

Sho'rlik qizcha amallab oyoqqa turdi. Nafas olishga-da qo'rqib, o'z joyiga – markiz stolining adog'iga borib turdi.

Bir necha soniya atrofni, burganing kiprik qoqishi eshitilgudek, sukunat qopladi. Ayni dam bunday sukunat bag'rini ohis-

ta, ammo keskin bir g'ichirlash tovushi tilib o'tdiki, bundan butun xona aks-sado bergandek bo'ldi.

– Nima bu! Nima qilyapsan?! – quturgan markiz maymoqqa qarab o'shqirdi.

Sharob mudrog'idan go'yo hozirgina ko'z ochgan maymoq zolim yuziga xotirjam razm solib dedi:

– Avf eting-u, nahot bu men bo'lsam?

– Tovush baayni ichkari xonadan chiqqandek bo'ldi, – xo'jasarolardan biri luqma tashladi. – Menimcha bu narigi xonadagi to'ti. Tumshug'ini simto'rga qayragan bo'lsa kerak.

– Shunaqaga o'xshaydi, – javob qildi markiz, g'azabidan tushgan tovush bilan. – Hozirgina mana bu ishyoqmas tishini g'ichirlatdi deb qasam ichishga tayyor edim.

Maymoq yirik-yirik, qing'ir tishlarini ko'rsatib jilmaydi. Markiz vahshiy bo'lishi bilan birga masxaraboz ham edi. Uning huzurida jilmayish gunoh sanalmasdi. Baqacha jilmayish bilangina tinchimadi, to'yguncha ichishga tayyorligini bildirdi. Shunda zolim g'azabi shafqatga do'ndi. Uning qo'lidan yana bir limmo-lim qadahni olib, oxirigacha sipqorgan Baqacha, endi esi kirgandek, maskarad borasidagi kashfiyotini so'zlay ketdi:

– Bu fikr miyamga qanday kelib qolganiga hayronman, – Baqacha xotirjam, go'yo bir tomchi ham ichmagandek so'zlaridi. – Balki, bu fikr muhtaram xojamiz qizchani siltab tashlab, yuziga sharob sepgan paytlarida, ehtimol to'ti tumshug'i simto'rga qayralganda paydo bo'lgandir. Har ne bo'lganda ham, ajoyib bir o'yin topdim. Bu o'yinni mening vatanimda jon-jon deb o'ynashadi. Busiz maskaradlar o'tmaydi. Ammo sizlarning yurtda bu zo'r yangilik bo'ladi. Faqat bir narsaga boshim qotyapti. Uni o'ynash uchun menga biryo'la sakkiz odam va...

– Mana bizda! – markiz o'z topqirligidan qoyil qolib dedi. – Rappa-raso sakkiz kishi: men va yetti vazirim. Qani davom et! Bu qanday o'yin bo'ldi?

– Bizda uni „Sakkiz zanjirband maymun“ deyishadi, – javob qildi maymoq. – Agar men aytgandek o'ynalsa, hamma mazza qiladi.



– Mana biz o‘ynaymizda, – chirandi markiz dimog‘dorlar-cha ko‘z qisib.

– O‘yinning zo‘rligi shundaki, – qo‘shib qo‘ydi Baqacha, – uni ko‘rgan xotin zotining o‘takasi yoriladi.

– Juda soz! – xaxolashdi markiz va gumashtalari.

– Hammangizga orangutang libosini kiygizaman, – davom etdi maymoq. – Ularni o‘z qo‘llarim bilan tikaman. Shunday tikayki, ko‘rganlarning og‘zi ochilib qolsin. Sizlarni bu niqobda haqiqiy maymundan ajratolmaydilar. Qurquvdan ishtonlarini ho‘llashadi hali.

– Ajoyib! – baqirib yubordi qirol. – Bunday topqirligingdan keyin seni Baqacha emas, Odamcha deyishga ham tayyorman!

– Vahima va qo‘rquvni kuchaytirish uchun bizga zanjir ham kerak. Sizlarni quturib, zanjirini uzib qochgan vahshilar deb o‘ylashsin. Hazrati oliylari, hatto tasavvur qilolmaysiz. Mas-karad ayni qizigan pallada birdan o‘rtaga sakkiz zanjirband orangutang bostirib kiradi. Zanjirlar shaq-shuqi, sizlardagi yov-voyi chinqirig‘ingizni eshitgan po‘rim oshiqqlar-u nozikoyim-larning esi og‘ib qoladi.

– Mayli ko‘ramiz. Qo‘lingdan nima kelarkan, – dedi markiz.

Maslahat shu nuqtada tugadi. (Zotan, tun yarmiga yetgan edi.) Ayni lahzadan boshlab, barcha Baqacha o‘zi boshlagan hangoma to‘rini to‘qishga kirishib ketdi.

Baqacha sakkiz baqaloqni maymunga do‘ndirishning eng sodda va qulay yo‘lini tanladi. Men hikoya qilayotgan zamon-larda bu mamlakat odamlari deyarli maymunni ko‘rishmagandi. Baqacha bu hangomatalablarni shunchalar yasantirsinki, hatto tuqqan onalari ham ularni tanimasin.

Boshlanishiga markiz va uning yetti gumashtasi badanga yopishib turadigan nafis ko‘ylak-ishton kiyishdi. Kiyimlar us-tidan qatron surildi. Shunda vazirlardan biri patga dumalashni taklif etdi. Ammo Baqacha maymunlar juniga patdan ko‘ra qay-moq ko‘proq o‘xshashini aytib, markizni ham, gumashtalarini ham ishontirdi. Shunday qilib, qatron ustidan qalin qilib qaymoq surib chiqildi. So‘ngra uzun zanjir topishdi. Dastlab markizni be-

lidan bog‘lab, unga yetti gumashtani zanjir bilan matashdi. Hamma ish bitgach, maymunlar maskarad o‘tadigan zal devori yoqalab tarqalishdi. Shunda ular matalgan uzun zanjir bo‘ylab ulkan doira hosil bo‘ldi. So‘ngra, o‘yin haqqoniy chiqishi uchun, Baqacha zanjirning ikki uchini xoch shaklida doira markaziga olib kelib bog‘ladi. Bugun ham Borneo orolida shimpanze ovlovchilar shunday qilishadi.

Maskarad keng-mo‘l, baland, tim-doira shaklidagi saroyda bo‘lishi kerak edi. Bino gumbazi shishakor bo‘lib, quyosh nuri bino sahniga mana shu shisha-tom orqali tushib turadi. Kechki payt esa (bundagi tantanalar faqat kechqurun o‘tadi), bu ulkan binoni shisha – gumbaz markaziga uzun zanjir bilan mahkamlangan bahaybat qandil yoritib turadi. Kerak payt qandilni ko‘tarish yoki tushirish uchun mexanik charxdan foydalanilar, ko‘targich-uskuna ichkaridan ko‘zga tashlanmasin uchun tashqariga – bino gumbazi ustiga o‘rnatilgan edi.

Odatdagidek bino ichi ishlari Tripettaga topshirilgan, ammo bugun u ko‘proq maymoq do‘sti ko‘rsatmalari bilan bandga o‘xshardi. Maymoqning gapi bilan bugun haligi qandilni butkul olib tashlashdi. Axir yasan-tusan qilib kelgan mehmonlar ust-boshini shamdan oqadigan yelim rasvo qilishi mumkin-da! Nozik mehmonlarga qandil ostidan uzoqroqda o‘ynang, deb bo‘lmaydi-ku! Zalning u yer, bu yerida mehmonlarga halal bermaygina to‘rt-beshta sham miltirar, o‘ng devor tomonda o‘zidan anvoyi hidlar anqitib mash‘alalar tutab turardi.

Baqachaning maslahati bilan haligi sakkiz yovvoyi barcha mehmonlar yig‘iladigan paytni kutib, zal eshiklari ortida sabr-lapisib yotishardi. Nihoyat, soat qo‘ng‘iroqlari naq tungi ikkiga zang urdi. Shu payt zalning sakkiz burchidan sakkiz vahshiy vajohat bilan otilib chiqdi. Ularni bir-biriga bog‘lab turgan zanjirlar qo‘rqinchli jaranglar, taloto‘pda chalkashib ketganidan odamlar oyog‘iga ilashar, qochmoq bo‘lganlarni kesilgan daraxtdek qulatardi.

Mehmonlar orasida qo‘pgan bo‘ron dam sayin kuchayib borardi. Bunga sari markiz quvonar, yovvoyilarcha qiyqirar

edi. O'yin kutilganidan-da ziyoda chiqdi. Bunday bahaybat, qo'rqinchli jondorlarni orangutanglarga o'xshatdilar, yo'qmi bilmadim-u, yirtqich-hayvonlar deb o'ylaganlari aniq. Ko'p xotinlar hushidan ketdi. Agar maskarad zaliga qurol bilan kirish ta'qiqlanmaganda edi, bu hazilkashlar o'yini zilga aylanishi, ularning antiqa liboslari qonga botishi turgan gap edi. Chorasiz qolgan mehmonlarning bari qo'y suruviga o'xshab o'zini eshikka ura boshladi. Ammo maymoqning maslahati-yu, shaxsan markiz buyrug'i bilan barcha eshiklarga qulf urilgan, kalitlar esa maymoqning cho'ntagida edi.

To's-to'polon avj pardasiga chiqdi. Har kim o'z jonini qutqarish xayoliga tushdi. Olamon ichra chindan-da qiyomat qo'rgan edi. Shu payt haligi qandil ilinadigan baquvvat zanjir asta-sekin, ilondek bilanglab pastga ena boshladi. Yerga yetishiga ikki-uch qarich qolganda taqqa to'xtadi.

Bir payt markiz va zal bo'ylab bemaqsad shataloq otayotgan yetti sherigi doira markazida paydo bo'ldilar. Shu vaqtgacha ularni qadam-baqadam ta'qib etib yurgan Baqacha zanjirlar tutashgan joydan tutdi-da, chaqqolik bilan qandil zanjirida osilib turgan ilmoqqa ildi. Shunda qandaydir ko'rinmas kuch haligi zanjirni yashin tezligida yuqori qarab tortdiki, zum o'tmay sakkiz maymun o'zlarini osmonda ko'rdilar.

Bu payt mehmonlar ham o'zlarini ancha bosib olishgan, bularning barchasi qo'pol bir hazilligini anglay boshlashgan, hozirgina tuzoqqa tushmish behayo maymunlar ustidan qotib-qotib kulmoqda edilar.

– Ularni menga qo'yib beringlar! – ulkan g'ala-g'ovurni bosib qichqirdi Baqacha. – Menga qo'yib beringlar! Ular ko'zimga tanish ko'rindi. Qani yaqinroq borib bilaychi, o'shalarmikan. Hozir aytaman!

U shunday deganicha, g'uj bo'lmish olamon boshi uzra devorga yaqinlashdi-da ustunga o'rmashtirilgan bir mash'alani sug'urib oldi. Yana o'sha „yo'l“ orqali zal markaziga keliboq, jajji maymunchadek to'g'ri qirolning boshiga sapchidi. Keyin zanjirga chirmashib yuqoriladi. Qo'lidagi mash'alani qandil

o‘rnida osilib turganlar yuziga bir-bir tutib chiqar ekan, qichqir-gancha bir gapni takrorlardi:

– Hozir bilamizda kimligini! Hozir bilamiz! Hozir!

Zaldagi mehmonlardan tortib, zanjirda muallaq maymunlar-gacha buralib-buralib xaxolashga tushdilar. Shu payt Baqacha-ning quloqni teshgudek baland hushtagi yangradi-da, qandil zan-jiri tishlarini g‘ichirlatgancha, shiddat bilan yuqori o‘rlay ketdi. O‘n qulochcha ko‘tarilib borgach, taqqa to‘xtadi. Orangutanglar qo‘rquv ichra tipirchilashar, ammo hech narsa qilishning imkoni yo‘q edi. Ular oynavand shift va pol o‘rtasida soatning ulkan kap-giridek salanglab turishardi. Baqacha esa ulardan sal yuqoriroqda mash‘ala ushlab turar, go‘yo tanimoqchi bo‘lgandek, olov tilini goh u, goh bu maymun burni ostida o‘ynatardi.

Jajji maymunchaning baland shift uzra ko‘rsatayotgan o‘yini pastdagilarni gungu lol qilib qo‘ydi. Shunda bu og‘ir sukunatni o‘sha og‘ir, xotirjam va keskin g‘ichirlash tovushi titratib yubordi. Bu chindan-da o‘sha – markiz Tripettaga qo‘l ko‘targan, yuziga sharob sepib yuborgandagi tovushning o‘zgi-nasi edi. Endi o‘sha tunda kim tish qayragani aniq bo‘lgandi. Maymoq ko‘pirib turgan tishlarini qayragancha markiz va uning yetti gumashtasiga yuqoridan ko‘z tashladi.

– Ahha! – nihoyat darg‘azab qichqirdi Baqacha. – Ahha! Endi tanidim ularni!

Baqacha xuddi yaxshiroq ko‘rmoqchi bo‘lgandek, mash‘ala tilini markizning qaymoqqa to‘yingan „terisi“ga yaqin olib bor-di. Qalin qaymoq qatlami „pov“ etib o‘t oldi. Zumda, qolgan yetti maymunni ham alanga o‘radi. Pastdagilar faqatgina to-moshaga yarar, yordam berishga ojiz edi.

Olov vahshat solib gurulladi. Baqachaning yanada yuqori-roq ko‘tarilishiga to‘g‘ri keldi. Ularni kuzatib turgan olamon na-fasini ichiga yutgancha tosh qotdi. Maymoq mana shu – so‘nggi imkoniyatdan foydalanib qoldi.

– Ularni tanidim, – dedi u. – Bu markiz, mana bular uning yetti gumashtasi... Ha, bu o‘sha, nozikkina qizchani urgan markizning xuddi o‘zi. Bulari haqoratdan lazzat qidirgan uning

yetti shotiri. Men esam, bor-yo'g'i bir Baqachaman, xolos. Men masxaraman. Bu esa mening so'nggi hazilim!

Qaymoqqa bulangan qatron shunchalik tez yonib bitdiki, maymoq so'nggi nutqini tugatishga zo'rg'a ulgurdi. Uning qasosi ham shu tarzda yakun topdi.

Shiftda kuyib ko'mirga aylangan sakkiz murda osilib turardi. Maymoq qo'lidagi mash'alani qoraygan murdalar ustiga uloqtirdi-da, zanjir bo'ylab shiftga yetdi. Zanjir tushiriladigan kichkina tuynukdan chaqqonlik bilan o'tib, qora tun qo'yniga singib ketdi.

Taxmin qilishlaricha, Tripetta bunday dahshatli qasos sahnasini o'ynashda do'stiga yordam bergan. So'ngra ular birgalikda vatanlariga qochib ketishgan. Qaytib ularni birov ko'rmagan.

---

## OLIS LEYTE DENGIZI

### 1

Qop-qora neft quyqasi bilan qoplangan dengiz emish, dengizning elas-elas ko'zga tashlanib turgan qorong'u burjidan Natsuo suzib kelar, Tomeni chaqirarmish. To'lqinlar charx urib ko'pirarmish. Osmondan nimadir yog'armish, yomg'ir desa yomg'irga, kul desa kulga o'xshamasmish. Bir taxta parchasiga yopishib olgan Natsuo „Ketib qolmang, ketib qolmang ona, men hozir, men hozir“, – deya qichqirarmish. Tome o'g'li tomon otilmoqchi bo'larmish-u, nimadir tomog'idan xippa bo'g'ib uni qo'yasmish.

Tome qayg'udan zil tortgan boshini ko'targanida, o'zini ko'zyoshidan ivib ketgan yostiqa ko'rdi.

Natsuo Tomening kenja o'g'li. U 1944-yilning oktabrida ko'ngillilardan bo'lib urushga ketgan, flotda, Fillippin yaqinidagi dengiz janglaridan birida o'n to'qqiz yoshida halok bo'lgan. Ammo Tomening adoqsiz tushlarida o'g'li mudom yenglari tor, yengil gazlamadan tikilgan kimanoda, o'smir – bola qiyofasida namoyon bo'ladi.

Odatda Tomening Natsuodan ko'radigan tushlari nafaqa puli berilishi oldidan ko'p takrorlanadi. Kuni kecha shu nafaqani deb qo'shni ayol Kiti bilan biroz ko'ngilxiralik bo'lib o'tdi.

Tomega nafaqa puli bundan o'n yilcha burun – Koreya urushi tugagan yili belgilangan. Imperator tug'rosi zarb etilgan nafaqa daftarchasini uning qo'liga tutqazgan kezlari ajratilgan pul miqdori qirq ming yen edi. Bora-bora nafaqa summasi ortdi. Ayniqsa, atom bombasini sinashga qarshi matbuotdagi chiqishlar, Vetnam urushini to'xtatish borasidagi bayonotlar nafaqa miqdorining ko'payishiga sabab bo'ldi. Hozir Tome yetmish

ming yen nafaqa oladi. Bu pul Tomega yil davomida to'rtga bo'lib beriladi. Unga o'xshagan nafaqaxo'rlar qishloqda yetmish kishi. Bir vaqtlar to'rt yuz xonadonli bu qishloq yuz ellik yigitini urushga kuzatgan. Shu yigitlarning yarmi uylariga qaytishmagan.

Tome har safar nafaqa daftarchasini qo'liga tutganicha pochtaga kelganida, uni boshliqning shaxsan o'zi kutib oladi. U pochta xizmatini boshqaradi, yana urushda halok bo'lganlar oilasiga yordam tashkilotining ham raisi. Boshliq har safar Tomega nafaqa pulini o'z qo'li bilan topshirar ekan, bir gapni takrorlashdan charchamaydi:

– Mana asl o'g'lon qanaqa bo'ladi. Hatto u dunyoda ham ota-onasining g'amini yeydi.

Shunga o'xshash so'zni Tome qariyalarga yordam jamiyati yig'ilishiga borganida qishloq oqsoqolidan ham eshitgan.

Ha, u oladigan nafaqa puli ko'p kampirlarning ko'zini o'ynatadi. Hatto ularning ba'zilari, hech bir andishaga bormay:

– Shuncha o'g'ildan birortasi ham urushda o'lmadi-ya... – deyishdan ham toyishmagan.

Kuni kecha, Tome yaqin dugonasi, sinfdoshi, yetmish yashar Kitidan bundan beshbattarini eshitdi.

– Uyalmaysanmi, Kiti! Qaysi ona o'z bolasiga o'lim tilaydi. – Tome bu gapni aytishga aytdi-yu, ammo uzoq vaqt Kiti so'zlarining zahridan qalbi zirqirab yurdi.

Kiti ham vaqtida biryo'la ikki o'g'lini urushga kuzatgan, ularning ikkisi ham sog'-omon qaytishgan. Kitining o'zi olayotgan nafaqaga hasad bilan qarashini Tome ko'pdan sezib yuradi, hatto bugun qo'shni Torisaka shahridagi ximiya zavodida ishlayotgan kenja o'g'lini-da himoya qo'shinga jo'natishini ko'zlaganini ham biladi. Ayniqsa shunisini Tome sira hazm qilolmaydi.

Xonada rutubat hukm suradi. Eri Saykiti esa hamon uyquda. Tome to'shagidan turib, deraza pardasini surdi – da, ko'chaga qaradi. Oneyama tog'i ustida yulduzlar charaqlaydi. Hali tong otmagan bo'lsa ham, Kitining hovlisida olov charsillaydi. O'choq boshidagi kursichada o'tirgan soya olov yorug'ida lippillab –

o'ynaydi. Tome biladiki, devor soati zang urishga ulgurmasdan, qo'shnisi Kiti oyoqqa turgan bo'ladi.

Kitining aytishicha, sovuq jonidan o'tib, oyoqlari uvisha boshlagach, uxlolmaydi, xo'roz qichqirmay turishga majbur bo'ladi. Ikki qavat, o'nta xonadan iborat bo'lgan bu bahaybat uyda Kiti yolg'iz yashaydi. O'zini naqadar tetik va bardam tutishga urinmasin, berahm vaqt oldida Kiti kun-kundan kichrayib boradi. Shunga qaramasdan u o'ziga tegishli sholi maydonida ter to'kishini, daladan bo'sh payti mardikorlik qilishini qo'ymaydi.

Kiti barcha qulayliklardan yuz burgan holda o'ta qashshoqlikda kun kechiradi. Deylik, ko'mirga qilinadigan xarajatdan qochib uyini isitmaydi, Tome necha bor uringan bo'lsa ham, uni kichkina, arzungina elektr istigich sotib olishga hamon ko'ndira olmaydi. Uning kattakon uyini bor-yo'g'i bittagina o'ttizlik lampochka xiragina yoritib turadi. Aksar dehqonlarning uylarida allaqachon televizor, kir yuvish mashinalari, hatto muzlatgichu sterioradiolalar paydo bo'lgani holda, Kiti elektr to'lovining oshib ketishidan qo'rqib, eski radiopryomnigini ham ishlatmaydi. Butun mahallada faqat uning tomida antenna ko'rinmaydi. Eski dekchada qaynatilgan yovg'on sho'rvani og'ir sukunat aro ichib olgach, Kitining uyida yagona yorug'lik manbayi ham so'nadi, shundan so'ng bu maskan tamomiy zimistonga cho'mganча qartaygan egasiga alla ayta boshlaydi.

O'tgan yili barcha uylarga elektr hisoblagichlar o'rnatish-gandan beri xufton kirar-kirmas uyquga yotish Kitining odatiga aylangan. Kitining butun oy davomida bor-yo'g'i ikki kilovatt elektr yoqishiga ajablanmasa ham bo'ladi. Elektr pulini yig'uvchilar bir oyda bir xonadon eng kamida yetmish kilovatt elektr yoqishi qonunda ko'rsatilganini, bu esa bir yuz oltmish yen bo'lishini Kitiga tushuntirish uchun behuda kuch sarflashar edi. Kiti bu so'zlarga ishonishni sira istamas, qaysarlarcha rad etardi. U gazeta sotib olmas, umumiy suv quvuridan foydalanmas, butun xonadonda faqat elektr uchungina xarajat qilinardi.



Kiti sira ko'mirga pul sarflamaydi. Tog'likdagi o'rmondan yig'ib keladigan o'tinini ham sotadi. O'zi esa baobab poyasini tutatib, shu bilan kifoyalanadi. Faqat uxlaydigan xonasi – oshxonagagina bo'ya to'shaydi. Boshqa bo'yralarini eskirib qolmasin deb bir burchakka taxlab qo'yadi. Oqibat, uy pollaridagi yoriqlardan sovuq havo uradi. Bundan uy ichi battar sovib ketadi.

## 2

Tome bilan Kiti bir qishloqda ulg'ayishgan. To'rt yillik boshlang'ich maktabni tugatishgach, birgalikda Sinanodagi ipak yigirish fabrikasiga ishga kirishgan.

U vaqtlar butun qishloq qashshoqlikda kun kechirardi. Atrofi tog'lar bilan o'ralgan bu qishloqda ish degani anqoning urug'i edi. Dehqon zoti borki, ijara yerlarida ekin ekib, tirikchilik qilishardi. Sholi hosilini yig'ib olishgach, o'sha yerga bug'doy ekishar, daladan qo'llari bo'shadi deguncha pilla boqishga kirishishar, shunda ham tiyinni tiyinga ulay olishmasdi. Shu sabab barcha dehqon qizlari fabrikada ishlash uchun yo'l olishardi. Tome o'n ikki, Kiti esa o'n birni to'ldirganlarida navbat ularga ham yetib keldi. Qonun bo'yicha qizlar faqat o'n to'rt yoshdan keyingina ishga qabul qilinardi. O'shanda Tome va Kitiga haqiqiy yoshlarini yashirishga to'g'ri kelgandi. Aslida-ku buni birov surishtirib ham o'tirmasdi. Fabrikaning ishi kun-kundan rivoj olar, tayyorlangan xomashyolarga xorijlik talabgorlar soni oshib borgan sayin yangi-yangi ish o'rinlari paydo bo'lardi.

Yangi yil kirishi bilan qishloqda ishga yollovchilar paydo bo'lishadi. Tome va Kitilar qishlog'i bilan fabrika orasi o'n ikki kilometrcha keladi. Bu yerdan temir yo'l o'tkazilganiga hali ko'p bo'lgani yo'q. Temir yo'ldan ilk bor tuproq ortgan yuk poyezdlari iz solib, mustahkamlagini sinab ko'rishgan. Maktab davrida o'qituvchilari bilan temiryo'lni, poyezd qanaqa bo'lishini ko'rish uchun ataylab borganlari qizlarning yodida.

Dugonalarni fabrikaga eltib qo'yishni Tomening otasi o'z zimmasiga oldi. Tome va Kiti o'sha davr qizlari orasida rasm bo'lgan tarzda soch turmaklashgan, bir xil xonaki bo'zdan tikil-

gan kimano kiyishgan, bellariga enli mallamtir belbog‘ taqishgan, qo‘llarida choyshablar joylangan qizil xaltacha tutib olishgandi. Otoning egnida ham Tomeniki singari yo‘l-yo‘l matodan tikilgan kimano bo‘lib, yurishga qulay bo‘lsin uchun, barlari qayirib qo‘yilgan, kimano tagidan oq rangli tor shim ko‘rinib turardi. Oyog‘ida esa poxoldan to‘qilgan shippak kiyib olgandi.

Ufq bo‘zarib, Misatogaxara vodiysi anvoyi ranglarga chulg‘andi.

Horigan yo‘lchilar ulkan xarsang oldida dam olish uchun to‘xtashdi. Odamlar og‘zida shu joyda qandaydir Rokubening o‘ldirilgani haqidagi afsona yuradi.

– Qadim zamonlarda bo‘lgan ekan, – deya gap boshlaydi Tomening otasi. – Kunlardan bir kun bizga yaqin qishloqlardan birida yashovchi Xonsaki – Muranikidan Rokube ismli kishi bir kecha tunash uchun joy so‘rabdi. Kutilmagan mehmonni qo‘noqqa olgan mezbon, bir tasodif bilan uning yonida katta pul borligini sezib qolibdi. Mehmon tong sahar Naganaga tomon yo‘lga tushishi zarurligini aytib, mezbondan xo‘rozning ilk qichqirig‘ida uyg‘otishini iltimos qilibdi. Niyati buzilgan uy egasi tun yarimlaganda o‘rnidan turib, xo‘rozining oyog‘iga issiq suv sepibdi. Bunga aldangan xo‘roz tong otdi deb, bevaqt qichqirib yuboribdi. Xo‘jayin mehmonni uyg‘otib, yo‘lga solibdi. Mehmon bilan izma-iz o‘zi ham yo‘lga tushibdi. Maqsadi uni Misatogaxara vodiysida o‘ldirib, boyligiga ega bo‘lish ekan. Xavfni ko‘ngli sezgan mehmon mana shu xarsang ortiga bekinmoqchi bo‘libdi. Ammo xo‘jayin undan ayyorroq chiqibdi. Go‘yo yonida odami borday: „Hey, Sokedzo, tezroq yursangchi!“ – deb qichqiribdi. Joniga qasd qilmoqchi bo‘lganlar ikki kishi ekani o‘ylab, mehmonning hushi boshidan uchibdi. Uning lahzalik dovdirashidan foydalangan mezbon maqsadiga yetibdi. Shundan beri ushbu xarsangni „Sokedzo – xarsang“, deb atasharkan.

Biroz nafas rostlab, behi bilan naridan beri tamaddi qilib olishgan qizlar yo‘lda davom etishdi.

Qizlar joylashgan fabrika unchalik katta emasdi. Unda uch yuztacha ishchi ishlardi. Fabrika atrofi ustiga shisha sinig‘i terib

ishlangan baland devor bilan o'ralgan edi. Fabrika va unga qarashli yotoqxonalar taqataq berib turardi. Bu eshiklar oyida ikki marta, yuvilgan choyshablarni hovlida quritish uchun ochilardi. Shartnoma besh yilga tuzilgan edi. Qizlar birinchi yil, shogird sifatida faqat qoringa, ikkinchi yildan boshlab esa oyiga o'n yen maosh olib ishlashlari lozim edi. Lekin Tome va Kiti jon-jahdlari bilan ishlaganlari uchun ikkinchi yildanoq yigirma yendan topa boshlashdi.

Oradan oltmish yil o'tsa ham, Tome va Kiti o'shanda ularni katta yoshli ishchilar qanday maqtashganini hamon eslashadi:

– Jimitdekkina bo'lib yigirma yen maosh olishadi-ya, bolang bo'lsa shulardek bo'lsa ekan!

Shunday ham bo'ldi, Tome ota-onasini quvontirib, umrining o'n to'rt yilini vaqirlab ipak qaynayotgan qozon yonida o'tkazdi. Ular shu darajada jon kuydirib ishlashardiki, barmoqlarining terisi yedirilib go'shti chiqib qolardi.

Qizlar fabrikada ish boshlaganlariga hash-pash deguncha to'rt yil to'ldi. Endi qizlar sochlarini so'nggi modada turmaklashar, maoshlari ham ellik yenga yetgan edi. Lekin qizlarning fabrika qoidalariga bo'yin egishlari oson kechmadi. Bir necha bor fabrika eshiklari ochilganidan foydalanib „qaydasan qishlog'im“, deya qochgan paytlari ham bo'ldi.

Ish og'ir edi. Ipak tolalari bir xil yo'g'onlikda yigirilishi, kimdir ish sifatini buzsa, ikki-uch kunlik maoshidan judo bo'lishi qat'iy tartibga kirgandi. Ustiga-ustak qizlar yopiq eshiklar ortida qafasdagi qush yanglig' vatan hajrida g'urbat chekishardi.

Tome opa-singillar ichida o'rtanchasi edi. Uning bir opasi va singlisi ham shu fabrikada ishlashardi. Opasi uch yillik og'ir mehnat tufayli sildan vafot etdi. Shu sabab turmush qurganidan so'ng, uyga merosxo'rlik huquqi Tomega o'tdi.

Tomening turmush o'rtog'i Seykiti o'z hamqishlog'i, mayda ijarachi dehqonning o'g'li. Olti yil Kofudagi xususiy do'konda gumashta bo'lib ishlagan Seykiti, yigirma bir yoshga to'lgani munosabati bilan ishboshi lavozimiga o'tkazilgan, buning shukronasiga u yana olti yil xo'jayinlar xizmatiga turib bergan

edi. Uylanganida esa xo'jayin uni yaxshigina sarmoya bilan siyladi. Qishlog'ida o'z tijoratini yurgizishiga fatvo berdi.

Endilikda Tomening poxol tomli, tob tashlab qolgan uyi qatorida ixchamgina, ammo ikki qavat qilib solingan, oppoq devorli do'kon paydo bo'lgan edi. Do'konning ko'cha taraf devori oynavand bo'lib, devor manglayini „Fudzi bilan yuzma-yuz. Fudzivaralar tijorat uyi“ yozuvi bezab turar edi. Fudzivara – Tomelar oilasi sharafini, Fudzi esa Seykiti avval ishlagan firma nomini ifodalardi. Bu yozuv rosa o'rniga tushgan, chunki Tomelar uyi oynalari shundoqqina Fudzi tog'ining cho'qqilariga ko'z tikib turardi.

Birinchi jahon urushi olib kelgan yo'qchilik balosi endigina to'kin turmushga o'rgana boshlagan bu qishloqqa ham yetib keldi. Bu paytda Tomening eri ayni qirchillama yigitga aylangan, yoshi yigirma yettida edi. Ko'p yillar fabrika changini yutgan Tome andak injiqroq, qaysarroq bo'lsa, uning eri Seykiti havas qilgulik darajada og'ir-vazmin, shundanmikan qishloq ahli orasida obro'si yaxshi edi. Xushfe'lligi bois u ko'plab nufuzli mijozlar bilan oldi-sotdi qilardi. Shaharlik ishboshilar andzasida rusumini kelishtirib soch qo'ygan, ipak belbog'li yangi kimano ustidan qimmatbaho peshband taqib olgan Seykiti o'ta ixcham va po'rim ko'rinardi.

Qishloqqa birinchi velosiped olib kelgan ham shu Seykiti bo'ladi. U yap-yangi velosiped yuksavatiga ko'zni olgudek nafis matolarni joylab, barcha mijozlarini aylanib chiqadi, Tome esa bu paytda do'konda ish yuritadi.

Do'konning ko'cha devoriga – shahar do'konlarinikiga o'xshatib-rangbarang oynalar solingan edi. Ichkarida devor bo'ylab xilma xil tovlanuvchi oynavand shkaflar joylashtirilgan, asl taxtadan yasalgan bejirim qutichalarda esa nafis qadahchalar did bilan terib qo'yilgandi. Bunda anqoning urug'idan tovuqning sutigacha hamma narsa topilardi: baxmal – deysizmi, krepdishen deysizmi, gazmol deganining-ku ming xili bosib tashlangandi. Adashib, bu do'konga kirib qolgan ayol zoti borki aqlini yo'qotardi.

Tome o'sha shavkatli kunlarini armon bilan eslaydi. O'zini o'sha xazina ichida, to'kis beka bo'lib davron surganlariga ba'zan ishongisi kelmaydi.

Bu paytlarda Tomening ota-onasi bandalikni bajo keltirishgan, ayni paytda to'ng'ich o'g'il Yudzi va kenjatoyi Natsuoga ona edi. O'g'illari maktabda yaxshi o'qishdi. Tome bolalarini shaharliklar singari madaniyatli qilib tarbiyalashga urinardi. Yana xayri-sadaqani kanda qilmas, bunday siyovlardan iyib ketgan hamqishloqlari unga „Bekaxon“, deb nom qo'yishgandi. Qanday ajib, qanday totli kunlar edi, u kunlar!

### 3

Kitining qismati dugonasinikiga o'xshamadi. U Xatsutaro degan dehqonning uchinchi qizi edi. Urabon bayrami<sup>1</sup> arfasida fabrikadan ta'til so'rab qishlog'iga kelgan Kiti ota-onasiga qo'shni qishloqlik Tokudzo degan yigitni yoqtirib qolganidan so'z ochdi. Otasi uni keskin rad etdi;

– Uysiz yigitga beradigan qizim yo'q.

Xotiniga esa uqdirdi:

– Yo Takudzoni desin yoki bizni. So'zimga kirmas ekan, xonadoniga oyoq bosmayman.

Xatsutaroning ko'ngli uy-joyi tayin sharobfurush hamqishlog'ida edi. Takudzo esa ijarachi dehqon Kuskening ikkinchi o'g'li bo'lgani sabab, meros huquqidan mahrum hisoblanardi. Darvoqe, mana shu Kuske Tomening amakisi bo'lib, ular Takudzo bilan yaqin qarindosh edilar. Ota-ona rizoligisiz turmush qurishgan Kiti va Takudzo uzoq yillar Inara ibodatxonasini<sup>2</sup> maskan tutishdi. Ular ibodatxona qorovuli hisoblanishar, ammo bayram kunlarini mustasno etganda shunda yashashar, o'zga boshpanalari yo'q edi. Mahalla ahli yiliga ikki yen to'lash sharti bilan bu joyni ularga topshirgandi.

Kiti va Takudzo – „hali ularga kimligimizni ko'rsatib qo'yamiz“, degan qaysarona shijoat bilan jonlarini jabborga berib ish-

<sup>1</sup>Qamariy taqvim bo'yicha 15 iyul – Yaponiyada o'tganlarni xotirlash kuni.

<sup>2</sup>Yaponiyadagi ibodatxonalardan biri.

lashar, ota-onalarinikidan balandroq, ulkanroq uy qurishdan boshqa narsani xayollariga ham keltirishmasdi. Atrofi tog'lar bilan o'ralgan bu qishloqda ish topish nari tursin, ijaraga bir parcha yer olish ham mahol edi. Er-xotin qaydagi kunbay ish topishsa, o'zlarini urishardi. Xatto birgina tushlik va kechki ovqat evaziga ham ishlashaverardi. Qish oylarida ular yo'l qurilishiga yollanishar, nozikkina Kiti manaman degan erkaklardan qolishmay arava surardi. Kun cho'kkach, ikkovlon o'rmonga, o'tin yig'ish uchun yo'l olishar, so'ng oy yorug'ida poxoldan shippak to'qishardi.

Ertalab soya poyasi kukunidan qilingan atala bilan kifoyalinishar, ba'zi-ba'zida ovqat yuziga ibodatxonaga qarashli bir parcha yerda o'zlari yetishtirgan sabzavot ham ko'rinib qolardi. Takudzoning oyoqlari qishli-qirovli kunlarda ham tuzukroq poyafzal ko'rmas, yil bo'yi chipta kovushda yurardi. U sake va tamakining ta'mini ham unutgandi. Ular sira shaharga tushishmasdi, turar joylaridan bir chaqirimcha keladigan g'arib do'konchadan harid qilishardi. Vinoni hisobga olmaganda, faqat tamaki, tuz, arzonarov, sifatsiz sho'rbaliqlar, dudlangan narsalar, mavsumida esa, ivasi va sayra baliqlari ham mehmon bo'lardi bu do'konda. Faqat do'kon ochilganining to'rtinchi yiliga Kiti saxiylarcha bir shoda dudlangan ivasi balig'ini xarid qildi. Bunga sabab Takudzoning kasali edi.

Shunday og'ir sharoitga qaramay, Kiti o'n bitta farzand tug'ib berdi.

– Bilasanmi, Kiti, bola degani – xazinaning o'zginasi. Kuching borida tug'ib qol, – Takuzo shunday deyishni yaxshi ko'rardi. – Ular uchun tashvish chekish ortiqcha, dumalab-sumalab katta bo'lishadi, o'lmaydi. Ulg'ayganlarida ular topgan pulni joylashtirib ulgursang, bo'lgani.

Bolalar butun yilni ikkovara bir ishton, qanday chiqamiz qishdan qabilida o'tkazishardi. Oziq-ovqatni-ku aytmasa ham bo'laveradi, qo'llariga tushgan narsani mujib ketaverishardi. Ko'pincha g'arib qorinchalarini ibodatxona muxlislari keltirgan sadaqani o'g'rilash evaziga qappaytirishardi. Ayrim nimjonroq,

soddaroqlariga shu ham yo'q edi. Shuning uchun ham Kiti to'rt farzandini bevaqt yerga topshirdi.

Bosh farzand tug'ilganining yigirmanchi kuni jon taslim qildi. U Inara ibodatxonasining zax va sovuq xonasiga chidash berolmadi. Kiti bolasini tug'ib, ertasiyayoq ishga chiqib ketgan edi. Bu falokat esa fevral oyida, Imperiya bayrami arafasida ro'y berdi. Poxol belanchakka yengil-yelpi o'rab tashlab ketilgan bechora chaqaloq onasi ishdan qaytganida ko'karib ketgan, uning bir burdagina yuzchasida hayot nishonasi tamom so'ngan edi.

Takudzo ot arava topib, chaqaloqni qo'shni qishloqdagi vrachga olib bordi. Vrach esa issiq vanna qilishni maslahat berdi. Ammo bu paytda chaqaloq quruq tanaga aylanib bo'lgan, endi hech qanday vannaga ehtiyoj sezmasdi.

Kitining qolgan uch farzandi ham shu mash'um ibodatxonada, ochlikdan o'lishdi.

Ajoyib kunlarning birida nihoyat er-xotin uncha katta bo'lmagan yer sotib olishdi. Keyin shu joyda, hozirda Kiti g'aribgina kun kechirayotgan uyni qurishdi. Bu unutilmas voqea 1931-yil, ibodatxonada yashayotganlarining o'ninchi yili yuz berdi. O'shanda Takudzo o'ttiz yetti, Kiti o'ttiz to'rt yoshda edilar. Uy boshqalarnikiga qaraganda hashamatliroq qurilgan bo'lib, Takudzo hamon qaynota-qaynonasiga bo'lgan ichki adovatidan qutilmagan, ularning besh xonali uylariga basma-bas o'z uyini birato'la ikki qavat, o'n xonali qilib tashlagan edi. Uy unga mehnat haqidan tashqari ming ryoga tushdi. Takudzo bolalariga rahm qilib, yangi uyiga ko'chishga qaror berganida, hali uy tamom bitmagan edi. Shuning uchun hovli yuzida bir kulbacha qurdi, kulba ichkarisiga bordon to'shadi, bola-baqrasi bilan ko'chib kirar ekan, bu joyning ibodatxonadan o'lsa o'ligi ortiqligini aytishni ham unutmadi.

Uy bitdi hamki, er-xotin tinchishmadi, qaytanga xasisliklari ortdi. Endi amallab uch yuz yen topish, bir parcha sholibop yer olib haqiqiy yer egasiga aylanish orzusi ularning tushlariga kirib chiqardi.

– Sheriklikda baraka yo‘q. Yil bo‘yi ter to‘kasan, bu ham yetmaganday, daromadni ijara egasi bilan bo‘lishasan. Turgan bitgani yutqiziq. Sassiqlik chol hali ko‘radi Takudzoning kimligini, – derdi kiyimlarini bitdan tozalarkan ba‘zan Takudzo. Sassiqlik chol deganda, albatta, qaynotasini nazarda tutardi. Chunki u hali ham eski alamini ichiga yutib yashardi.

Nihoyat Kitilar uchun ham yer degani topildi. Ular sholi-bop dalani ijaraga olishdi. Dala ishi, asosan, bolapaqirlarning bo‘yniga tushdi. Zotan, Takudzo va Kitining kunbay mardikor ishlashdan qo‘llari bo‘shay demasdi.

– Bugun tushlikka baobab sho‘rva. Hey tirranchalar, yaxshilab ishlanglar, non yeyish osonmas, – bolalarini tergarda Takudzo.

Asalaridek betinim bolalar hanuz duch kelgan yemishni qo‘yishmas, asosiy ovqatlari baobab sho‘rva bo‘lardi. Otalarning buyrug‘iga ko‘ra katta-kichigi dalada g‘imirlashar, beso‘naqay ketmon, bel, og‘irdan og‘ir teshalar bilan yer chopishar, balchiq kechishardi.

Shunga qaramasdan bolalarning hammasi maktabda o‘qishardi. Qizlar oltinchi sinfni, o‘g‘il bolalar sakkizni bitirib, o‘rta ma‘lumotni egallashgandi.

Qachonlardir katta o‘g‘ilga deb xarid qilingan darsliklarning titig‘i chiqib ketgandi. Chunki bu darsliklar navbati bilan barcha aka-uka, opa-singillarning bir-bir qo‘lidan o‘tardi. Yangi ma‘lumotlar to‘g‘ridan to‘g‘ri kitob varag‘ining chetiga, qo‘l bilan ko‘chirib borilardi. Sira yangi darslik sotib olinmasdi.

– Darslikda bo‘lmagan narsani o‘qituvchidan so‘rab olinglar. Sizlarning orqangizdan non yegandan keyin aytsin-da, – derdi Takudzo bolalariga. Ular shunday ulg‘ayishdi. Yangi rasmi kitob tugul, biror jurnal yo gazeta ularga mehmon bo‘lmadi.

Bu uyda har bir qora pul hisobda edi. Takudzo buni qattiq nazorat qilardi. Mebel degan narsalar bu uyda hatto eslanmasdi ham.

– Bordon turganda mebelga balo bormi, – xo‘jalik boshi shu so‘zlar bilan oilasini, to‘g‘rirog‘i o‘zini ishontirardi. O‘n xona-



lik, ikki qavat uyning bor-yo‘q jihozi eski idish-tovoq shkafi-yu, pastak kursidan iborat edi.

Takudzo tomonidan bayon etilgan bir falsafa mantiqan boshqasiga ulanardi, albatta:

– Ortiqcha kimano ham turgan bitgani tashvish, kiymaganingdan keyin uni qayerda saqlaysan. – Kiyim sotib olmoqchi bo‘lgan xotinini shunday tinchlantirardi u. Shuning uchun Kiti yilni ikkita kimano bilan o‘tkazardi: biri yozgi, biri qishki. Yil bo‘yi egnidan ish kiyim tushmaydigan Kitiga shu kimanolar ham ortiqchalik qilardi. Oilada spartaliklar odati hukmron edi. Har qanday sovuqda ham bu oiladan biror kishi ich kiyimi kiymasdi. Takudzo kimano ostidan ishton kiymaganidek, bolalari ham bu qoidani buzishmasdi. Doimiy ochlik azobidan, tishlari takirlab, yuzlari ko‘karib yurardi. Oqibat bu narsa oilaviy so‘zakka olib keldi.

Har kun, ishdan qaytgan Takudzo, topib kelgan pullarini albatta dazmollar, so‘ng ko‘zaga joylab pol ostiga bekitib qo‘yardi. Bolaligidan banklarning sinishi, uning orqasidan chiqadigan g‘avg‘olarni eshitaverganidanmi, Takuzdoning har qanday bank xizmatiga ishonchi yo‘q edi.

Qish kechalarining birida qo‘shni Tatsukirilar uyida yong‘in chiqdi. Baxtga qarshi yerlar qup-quruq, ustiga-ustak tentak shamol esib turardi. Zum o‘tmay olovning qing‘ir-qiyshiq qo‘llari qo‘shni uyning poxol tomini xarislik bilan quchog‘iga oldi. Atrof yorishib ketdi. Uchqunlar yulduzchalar kabi atrofiga sochildi. O‘t o‘chiruvchilar guruhi yetib kelishga ulgurmay, uy tomi ayanchli mung solib quladi.

Takudzo bundan qattiq tashvishga tushib qoldi. Tomog‘ini yirtganicha xotin-bolachaqasiga qo‘lga ilinadigan hamma narsa – qorani hovliga olib chiqishni buyurdi. O‘zi esa qo‘lida pulli ko‘zani tutib, yonayotgan uy yoniga zuv borib, zuv kelib turdi. O‘t o‘chiruvchilar yetib kelib, rezina ichaklar suv purakayotgan payt, tasodifiy sovuq bir zarbadan esankirab qo‘lidagi ko‘zani tushib yubordi. Ko‘za toshga tegib sindi, taxlangan pullar ozod bo‘lgan qushlar singari havoga ko‘tarildi. Dahshatdan kallasini yo‘qotgan Takudzo och qirg‘iy kabi pullarga chang solib, ular-

ni tutib qolishga urindi. Uning changalidan omon qolgan pullar esa o'zlarni to'g'ri yonib turgan o'tga urdilar.

Keyin hisoblab ko'rsaki, Takudzo sakson yench pulni qo'ldan chiqaribdi. Takudzo uchun sakson yen sakson kunlik mardikor haqi degani edi. Oqibat shu bo'ldiki, u falokatda qo'shnisini sudga berdi. Zararni undirib olmoqchi bo'ldi. Takudzo, bu falokatda uyi yongan odam aybdor, degan mantiqqa tayanardi. Qo'shni Tatsukiri esa to'lov o'rnini bundan ham yuz karra sermantiqroq javob bilan yopdi: „Hammasiga olov aybdor, – dedi u, – Takudzoning puli olovda yongan ekan, marhamat, da'vosini olovga qilsin“. Shu voqealardan so'ng uch yilcha qo'shnilar munosabatida sovuq urush nafasi ufurib turdi.

Yillar yillarni quvib o'taverdi. Takudzo ham ellikni urib qo'ydi. Shu kunlarda, uning miyasida yangi, ko'chabop kastum sotib olish g'oyasi bosh ko'tarib qoldi. Takudzo o'z g'oyasini sirli ravishda amalga oshirishni o'ylagandi. Dog'ki, uni shahardagi komission magazinda ko'rib qolgan boshqarma chopari Kixey bu sirni yoyishda o'ta jonbozlik ko'rsatdi. Xonadonlarga soliq xabarnomasini tarqatar ekan, ko'rgani xususida so'zlashdan charchamadi.

Baxtga qarshi urush boshlanib qoldi. Har qanday tantanalarga, jumladan, bayramona kiyinib yurishga ham chek qo'yildi. Endilikda po'rim kastumlar o'rnini hukumat o'z fuqarolari uchun joriy etgan formalar egalladi. Takudzo hayotida esa hamon madaniylashuv jarayoni davom etardi. U endi qora rangli shimini tor qo'njli yo'l-yo'l shimga almashtirdi. Egniga orqa tarafi yarim doira shaklida kesilgan kamzul sotib oldi. Qishloq ahlidan faqat maktab direktori, oqsoqol va sharobfurnish Kayemanlargina shunaqa kamzul kiyishardi. Hatto davlat xizmatchilari, ancha o'ziga to'q odamlar ham yapon milliy kiyimlari bilan kifoyalanishardi.

Nihoyat, Takudzo uch ming yen yig'ib, yer egasiga aylandi. Bunga sari, ilk mardikorga chiqqan kunlardan boshlab ko'nglida g'imirlab yurgan, deputat bo'lish orzusi bosh ko'tardi. O'sha sassiq chol, uni bir tiyinga olmagan qaynotasi, mehnatini kul-

ga aylantirgan qo'shnisi Tatsukiri hasaddan yorilib o'lishsin. Madaniy kiyinib, qo'lida bir shisha sake bilan uyiga qaytsa, butun qishloq uni tomosha qilsa...

Ammo Takudzoga yangi, po'rim kiyimlarini kiyib ko'chaga chiqish nasib qilmadi. U yangi kiyimlarini avaylab saqlaydigani – devor shkafiga qoldirib vafot etdi. Takudzoning o'limi Kiti bilan turmush qurganlarining yigirmanchi, imorat solganlarning o'ninchi yili yuz berdi. Adoqsiz mehnati bilan yarim asrni qaritgan Takuzo to'rt farzandidan ajradi, uning tiyinlab yiqqan, pol ostida dam olib yotgan uch ming yeni pulning qadrsizlanishi oqibatida shu qadar qiymatsizlandiki, endi ximzavodda ishlaydigan eng yosh ishchilar ham bundan ko'p oylik olishadi.

Takuzo 1947-yilning qishida vafot etdi. Og'ir mehnat uning tinkasini quritdi, sog'ligini kemirdi, umrining so'nggi yillarida u oyoqda zo'rg'a turardi. Zotiga ko'ra uncha yirik bo'lmasa ham, qirchillma yigitlik davrida Takudzoning og'irligi yetmish kilogramm edi. O'limi arafasida o'ttiz kilogrammli bir cho'pga aylangandi. Oilasidagilar uni qand kasali bilan og'rigan deb o'ylashar, shu sababli guruchli ovqatdan qisib, yengil sabzavotlar bilan boqishardi. Qishloq ahli bu gapga ishonmasdi. Chunki bu xonadonda hech kim qorni to'yib ovqatlanmasdi. Takudzoga qand kasaliga yo'l bo'lsin. Axir husn og'izdan kiradi-da.

O'limidan bir oy burun Takuzoni shaharlik kelinning oldiga, davolatgani jo'natishdi. Kuzgi ishlar boshlanib ketgani uchun Kiti eriga qarashga vaqt topolmay qolgan, oqibat shu qarorga keldi. Takuzoni olib ketishar ekan, uning ko'zi kuzatuvchilar orasida turgan Tomega tushdi va hazil qilmoqchi bo'ldi:

– Ellik uch yoshli yigitga o'limni kim qo'yibdi. O'lim degani hali meni kutaverib zirikadi... – Takuzo shu so'zlarni aytib kulmoqchi edi, ammo kasallikdan charchagan lablari qiyshayishdan boshqaga yaramadi.

Bir oydan so'ng uni qaytarib olib kelishdi. Bu gal Takuzo bemor to'shagida emas, tobutda yotardi. Kiti erini quchoqlab uzoq yig'ladi. So'ngra yig'idan palag'da ovozda Takuzoni yangi kastumda dafn qilmoqchiligini aytdi.

– Bo‘lmagan gapni qo‘y! – ilk bor, kuyovining o‘limidan keyin, bu uyga tashrif buyurgan otasi Kitining og‘ziga urdi. Kitining ukasi, Takudzoga nasib qilmagan kastumda yelib-yugurib ta‘ziyani o‘tkazdi.

#### 4

„Fudzi bilan yuzma-yuz“ xususiy do‘konining shon-shavkati o‘n yilga, yigirmanchi yillarning o‘rtalariga qadar davom etdi. Urush to‘foni olib kelgan inqiroz to‘lqini qishloqqa ham yetdi. Ipakning bahosi tushib ketdi. Tome bilan eri tijoratlarini saqlab qolish uchun Kofulik ko‘tarachi boylardan bir necha ming qarz oldilar. Ammo bu bilan ishlari o‘nglanish o‘rniga birato‘la sinib qo‘ya qolishdi. Shunda Seykitining kallasida hammasini yig‘ishtirib Braziliyaga jo‘nab qolish fikri g‘imirlab qoldi.

– Bilasizlarmi Braziliya qanday joy? – yopiq deraza ostida o‘tirgan Seykiti go‘dak bolalariga shu so‘zlarni aytar ekan, dambadam idishga engashganicha sake ho‘plab qo‘yar, zotan avvallari uning ichkilikka sira hushi yo‘q edi. – Shu asnoda u hech qachon quyoshi so‘nmaydigan, abadiy bahor o‘lkasi Braziliya to‘g‘risida hikoya qilishga tushib ketardi.

– U joyda yapon qishloqlari juda ko‘p va son-sanoqsiz yaponlar istiqomat qilishadi. Har yili u tomonga minglab yapon oilalari ko‘chib borishadi. Bizning ham u yerda uyimiz bo‘ladi. Yer degani esa bepoyon, ishlaydigan odam bo‘lsa bo‘lgani...

Sakedan yuzlari qizargan Seykiti o‘zicha nimalarnidir g‘o‘ng‘illar, bir gapni qayta-qayta takrorlagani takrorlagan edi:

– Dunyoda undan zo‘r joyni topolmaysan!

Ammo Seykiti bu borada bir qarorga kelib ulgurmasidan, ijaraga yer topdi. Yaxshi kunlarda savdo ishida gijinglab xizmat qilgan otini aravaga qo‘shib, dalaga chiqib ketdi. Uning ortidan Tome ham yo‘lga tushdi. U endi, qashshoq ijarachining xotiniga aylangan bo‘lishiga qaramay, qishloqdoshlari hanuz „Bekaxon“ deb atashardi.

Tomening katta o‘g‘li Yudzi o‘n beshga yoshga to‘lganida Tokioga jo‘nadi. U yerda xattotlik bilan pul topa boshla-

di. Shundan beri undan na biror xat, na xabar bo'ldi. Oradan ko'p vaqt o'tib, ota-onasi qamoqxona muhri urilgan bir konvert olishdi. Unda o'g'illari Yudzining Kabe shahrida ishchilar ozodlik harakatiga aloqadorlikda ayblanib, hibsga olingani ma'lum qilindi. Bu xabar 1940-yilda, Tinch okeanidagi urush boshlanishidan bir yil burun kelgandi.

Dunyoni o'z qishlog'i va do'konchasidan iborat deb bilgan Tome bilan Seykiti uchun Kabe shahri yerning narigi cheti bo'lib tuyulardi. Seykiti yo'l xarajatini topib, hayotida ilk bor uzoq safarga otlandi.

Yudzi uni qamoqxona panjarasi ortida, qilich taqqan shopmo'ylov jandarm hamrohligida, mahbuslarning qizil kiyimida kutib oldi. Sud bo'lib o'tgan, hukm o'qilgan edi. Oziq-ovqat, kiyim kechakka ruxsat berishmadi. Seykiti Yudziga deb yopilgan guruch-non va tuxumni qaytarib olib ketar ekan, Ise ibodatxonasida o'g'li haqqiga ibodat qildi.

Ko'p o'tmay, Tomening o'zi mayda-chuyda solingan tugunini qo'ltiqlagancha qishloqdan g'oyib bo'ldi. U tog'dagi ibodatxonaga qadar o'n besh kilometrcha yo'l bosdi. yetib borgach, kechki ibodat va duoga berildi, ich-ichidan o'g'lining ozod bo'lishni so'rab iltijolar qildi. Faqat o'g'li qaytsa bo'lgani, mayli so'ngra uning joni uzilsin. Shunday duolar bilan uyiga qaytgan Tome, tumor yozdirib, o'g'liga jo'natdi.

Er-xotin Yudzining „qizil“ sifatida qamoqda jazo olayotganini hammadan sir saqlashardi:

– Bu haqda hech zog' bilmasin, – qat'iy ogohlantirdi xotini ni Seykiti.

Shunga qaramay, qishloqda bu haqdagi uzunquloq gaplar oralab qolgandi. Buni qishloq fuqorolik ishlari bo'yicha mas'ul – amaldorlar Sindzo tarqatgan edi. Endilikda radiostansiya laqabini oqlash uchun kuyib-pishayotgan Kixey ham bunday savobli ishdan quriq qolmadi: har bir xonadonda atayin to'xtab, choy ustida Fudziyaralar sirini doston qildi.

U paytlar sog'-salomat, gijinglab yurgan Takudzo bir kuni puliga achinmay bo'kib ichdi. „Yudzi butun qarindosh-urug'la-

rini sharmanda qildi“, deb jazava bilan baqirdi. Tome haligacha puldan boshqa dardi borligini oshkor qilmagan, ichimdagini top Takudzoning bu ishini tushunolmadi. Nahotki, u mehnat mashaqqatidan qaddi bukilib, mardikorlik orqasida farovon turmushga yetishish mumkin deb o‘ylasa?!!

Bu ham yetmagandek, Takudzo o‘shanda og‘zidan badbo‘y hid taratib Tomelarnikiga bostirib kelgan, qo‘ni-qo‘shnilar uylaridan yugurib chiqishganiga ham parvo qilmay, og‘zidan bodi kirib, shodi chiqqandi:

– Mening yetti bolam bor! Qishloqdan xoin chiqqandan keyin ularni kim politsiyaga, maktabga ishga oladi?

Aksiga olib bu paytda Tomening eri ham uyda yo‘q edi. U kichik o‘g‘i Natsuo bilan bu beparda so‘zlarni eshitishga majbur bo‘lgandi.

Natsuo bir yil ilgari boshlang‘ich sinfni tugatib, duradgorlikni o‘rganish uchun Tokioga ketgan, so‘ng yana qaytib kelib, maktabda o‘qiyotgan edi. Akasidan farqli ravishda Natsuo ozg‘in, bo‘yi ham pastroq edi. Uning Tokioda, bo‘ychan amakivachchalari davrasida tushgan surati haliyam Tomeda saqlanadi. Natsuo ma‘yus jilmayib turar, egnida o‘zidan katta kurtka, boshida esa qulog‘igacha ko‘mib yuborgan beso‘naqay telpak qiyshayib turardi. Aftidan uni amakivachchalari chiqishtirishmagan, kichkina deb kamsitishgan, shuning uchun duradgorlik ham ko‘ngliga sig‘magan. Natsuo og‘irtabiatliligi bilan otasiga tortgandi. Umuman, u juda yoqimtoy bola edi. Tishlari durdek terilgan, kiygan kiyimi o‘ziga yarashib tushardi.

– Onajon! – Tokiodan qaytgan Natsuo ovozi qo‘yib qichqirgancha oshxonaga uchib kirgandi o‘shanda. Tome ham unga tomon otilgan, bolasini uzoq bag‘riga bosib, xumorini yozgan edi.

Bu voqeadan ikki yil o‘tib, 1943-yilda Natsuo o‘z xohishi bilan harbiy dengiz flotiga ariza berdi. Bu paytda urush Janubiy dengizning barcha hududlarini qamrab olgan, dengiz janglari Midueem hamda Sololmon orollarini ham tutgandi. Yapon qo‘shinlari Gadarkanal hududida chekina boshladilar. Qishloq

yigitlari, jismoniy holati qanday bo'lishidan qat'i nazar, to'da-to'da qilib urushga olina boshladilar.

Maktabda imtihonlarini topshirgan Natsuo, may oyidayoq Yokosukida, dengiz piyodalari qo'shinida edi.

Uylari devoriga o'g'illarining urushga ketishini bildiruvchi bayroqni qadagan Tome va Seykiti boshqa hamqishloqlariga qo'shilib, Natsuoni kuzatgani vokzalga chiqdilar. Poyezdga chiqishi oldidan Natsuo onasi tomon ilkis burilganicha shivirladi:

– Onajon, men akam uchun ham xizmat qilaman.

Ko'p o'tmay Natsuodan xat keldi. U Yokosukiga eson-omon yetib olgani haqida yozgandi. Ammo shundan so'ng Natsuodan biror xat-xabar bo'lmadi.

1944-yilning sentabrida kutilmaganda ikkinchi maktub keldi. Bu paytda Tomening jiyani Takao Yokosukida harbiy zavodda ishlardi. U Natsuo bilan bir sinfda o'qigan edi. Natsuo o'z maktubida boshliqlaridan ruxsat olib qirg'oqqa chiqqani, bo'lasini topib, u bilan shahar aylangani, Tome Takaoga jo'natgan meva-chevalarni birgalikda baham ko'rishganini hikoya qilardi. Xat mazmunidan Natsuoning ulg'ayib qolgani bilinardi. U ota, ona so'zlari oldidan „muhtaram“ so'zini yozardi.

Bu Natsuoning oxirgi maktubi edi. So'ngra u Fillippinga jo'natildi va o'sha joyda halok bo'ldi.

Bu paytga kelib, Yapon qo'shinlari Saypan va Tenian orollarida bo'lgan janglarda yanchib tashlangan, endilikda havo janglari Tayvan bo'g'ozida davom etardi.

Urush tugaganidan so'ng bir yil o'tib, Tome bir quticha oldi. Unda o'g'lining kattalashtirilgan surati bor edi. Aftidan, bu surat ularni Filippinga jo'natish arafasida olingan edi. Natsuo yarim belidan, o'ziga kattaroq harbiy dengiz floti kiyimida, o'sha ma'yus tabassum bilan boqib turardi.

Tome o'g'lidan kelgan oxirgi xatni (xat dag'al qog'ozga, qalam bilan yozilgan edi) eski oyna qutisida saqlardi. U xatni qo'liga oldi deguncha ko'zyoshini tiyib turolmasdi. Natsuo shunday yozardi:

*„Bugun bizga navbatdan tashqari ta'vil berib, qirg'oqqa tu-*

*shirishdi. Men Takaoni ko'rgani bordim. U meni kutmagan ekan, judayam hayron qoldi. Ha muhtaram onajon, otajon sizlar ham, Takaoga deb yuborganingiz guruchli non, xurmolaringiz menga ham nasib qilganini eshitib rosa hayron qolgandirsiz. Balki, buni Xudoning o'zi ko'nglingizga solgandir. Shuning uchun, muhtaram otajon va onajon Takaoga bu narsalarni jo'natgandirsizlar. Yuborgan narsalaringizni Takao bilan bo'kkunimizcha yedik. Eh mehribonlarim, mening Takao bilan uchrashishim yetti uxlab tushingizcha ham kirmagandir.*

*Bugun kechki to'qqizgacha bo'shman. Shuning uchun shoshadigan joyimiz yo'q. Hali Takao bilan shahar aylanish niyatimiz ham bor. Takao sizlarga mening hisob daftarcham va zayomimni yuboradi. Soatimni va boshqa ba'zi narsalarimni Takaoga qoldirdim. Men kelguncha saqlab qo'yadi. Hisob daftarimda qirq yenga yaqin pul bor. Mening pulga muhtojligim yo'q. Uni bemalol ishlataveringlar. Zayomdan ham foydalanaveringlar. U bor-yo'g'i bir dona, xolos. Bu zayomni men kemada sotib oldim. Harbiydagi ishlarim haqida hech narsa yozolmayman. Men sog'salomatman, urushga ketyapman.*

*Aftidan maktubim biroz g'amginroq chiqdi. Ammo siz bundan tashvish tortmang. Hisob daftarchamni uyga jo'natish kerakligini rota komandirining o'zi maslahat berdi. Xizmatim joyida, men bundan xursandman. Hurmatli akamning ahvollari yaxshimi? Balki, u ham o'zicha to'g'ri ish qilgandir. Bu fikr menda xizmat jarayonida tug'ildi. Men bu vaqt orasida ko'p narsalarni boshimdan o'tkazdim. Balki, akam bilan boshqa ko'rishmasmiz. Shuning bilan xatimni tugataman. Muhtaram, otajon, onajon sizlarga sihat-salomatlik tilab qolaman. Ko'rishguncha xayr."*

## 5

Urush tugadi. 1945-yilning oxirida Tomening katta o'g'li Yudzi qamoqdan chiqib keldi. Tome ko'zlariga ishonmas, yarim kechasi Yudzining xonasiga asta kirib, u yotgan ko'rpani siypalab ko'rar, ko'rayotgani tush emasligiga ishonch hosil qilmoqchi bo'lardi.



Uyida tuzuk-quruq dam ham olmagan Yudzi, ertasidayoq tezda ishga kirishi lozimligini, kompartiya uni kutayotganini aytib, Tokioga jo'nadi. Shundan so'ng oradan yigirma yil o'tibdi hamki Tome bilan Seykiti uyda yolg'iz yashashadi. To'g'ri saylovlar arafasida, mahalliy tashkilotlar masalasi bo'yicha Kofuga kelgan Yudzi, ota-onasini birrov ko'rib ketadi. Bu kun Tome uchun haqiqiy bayramga aylanadi. U o'g'lini yaxshilab mehmon qilay deb, oyoqdan qolar darajada yelib-yuguradi. Buni ko'rgan Seykiti har safar hazil qiladi:

– O'n to'rt yashar qiz bo'b ket-e...

Tome o'g'lining gaplariga ko'pam tushunavermaydi. Faqat shuni g'ira-shira anglaydiki, u qandaydir urushsiz, odamlar tinch-totuv yashaydigan jamiyat tuzmoqchi.

– Bilasizmi ona, biz o'z qo'limiz bilan yangi dunyo yaratmoqchimiz. Buni odamlar tushunishlari, birlashishlari lozim.

Tome boshini qimirlatadi. Ammo xayoli marhum o'g'li Nat-suoda bo'ladi. So'ng Tome qo'shni Kitini, u bilan o'tgan kunlarini eslab ketadi...

\* \* \*

Tome tongotar chog'i to'shakda pishillab uxlayotgan Seykiti yonida bedor yotib, dugonasi Kitining og'ir qismatidan o'y suradi.

Umr shomi kelib qoldi, ular Kiti bilan fabrika-yu qishloqlaridan boshqa hech nimani ko'rishmadi. Ularning qismatlariga qayg'u va ayriliqdan o'zga narsa bitilmagan chog'i.

Urushdan so'ng, ayniqsa, Takudzo o'lgach, Kitiga og'ir bo'ldi. Uning uch qizi turmushga chiqib ketishgan, el qatori yashab yurishibdi. Ammo unga o'g'illaridan, ayniqsa katta o'g'li Masixirodan Xudo solmadi. Tayyorlov kursi talabasi bo'lgan paytlari, maxfiy qo'shinlar otryadiga xizmatga jo'natildi-yu, go'yo boshqa odamga aylanib keldi. Beqaror, loqayd. Bir joyda muqim turolmaydi. Qo'liga tushgan pulni sovuradi. Xayolida faqat aysh-ishrat.

– Bolaligida qattiq ushlarshdi. Mana oqibat, bolani ishdan chiqarishdi, – deyishardi qishloqdagilar.

– Menimcha bunday emas, – eri bilan suhbatlasharkan, derdi Tome, – uni hayotini izdan chiqargan armiya bo‘ldi.

Masixironing hunarlari urushdan so‘ng yuzaga chiqa boshladi. U mahalliy yoshlar uyushmasining xazinaboni bo‘lib turganida birinchi marta katta miqdordagi jamg‘armani yeb qo‘ygandi. Unda hali otasi hayot edi. G‘azablangan yigitlar uni uyigacha izlab kelishgan, Masixiro esa allaqachon quyvon bo‘lgandi. Bu ishga Takudzoning aralashuviga to‘g‘ri kelgan, u da‘vogarlar oldida yalinib bosh eggan, uzr so‘ragandi. Ammo bu Masixiro ko‘rsatgan o‘yinlarning boshlanishi edi, xolos.

Ustamon Masixiro ko‘p o‘tmay narx-navoni nazorat qiladigan tashkilot a‘zosiga aylangandi.

Yevropacha kastumda, qo‘lida portfel barcha qishloq va shaharchalar magazinlarini aylanib yurar, goh qarz deb, goh boshqa vaj ko‘rsatib, poyafzal deysizmi, galstuk deysizmi, qo‘lga ilinadigan nimaiki bo‘lsa, olib ketaverardi. Qarz degani tomchiga o‘xshaydi-yu, daryoday bo‘lganini sezmay qolasan. Ko‘p o‘tmay do‘kondorlar yig‘ilib, uning ustidan shikoyat yozishdi. Bu paytda Takuzo olamdan o‘tgan edi. Barcha og‘irlik Kitining bo‘yniga tushdi. Bechora Kitining qarz uzishga holi, politsiya boshliqlariga qatnayverib madori qolmadi.

Janjallar Masixironing ishdan quvilishi bilan yakun topdi. Shundan so‘ng Masixiro qishloqqa, otasi o‘limidan keyin o‘z nomiga o‘tgan uyiga ko‘chib keldi. Endi ular ikki kishi edilar, Masaxiro uylanib olgandi. Kofulik sutfurushtning qizi bo‘lgan kelinchak o‘ta o‘zbiarmon bo‘lib chiqdi. Kiti u bilan chiqisha olmadi. Bir mahalliy savdogarning yo‘l yoqasida omonat qurilgan kulbasini ijaraga olib, uyni ularga tashlab chiqdi. Faqat sholi maydonini o‘zida olib qoldi.

Masixiro dehqonchilik bilan ham kun ko‘rsa bo‘lardi. Ammo u diniy jamiyatga a‘zo bo‘ldi. O‘z qishlog‘ida ushbu jamiyat shahobchasini ochdi. Ko‘p o‘tmay bu ishdan ham zerrickdi. Qolaversa, xotiniga ham qishloqda yashash yoqmasdi. Eski kasali yana qo‘zg‘ab qoldi: o‘ylab o‘tirmay ijaraga olingan

ikkita velosipedni sotib yuborgan Masixira yana qarzga botdi. Shunga qaramay, ko'ngli tilagancha yashayverdi.

– Nima qilay, dabdabali hayotni sevsam, – Masixiro bu so'zlarni vijdoni qilt etmasdan Tomening oldida ham aytaverardi.

Po'rim kiyinib shaharga jo'nagan Masixiro, bo'kib ichmaganda ham, geysalar karashmasi uchun bir kechada yigirmao'ttiz minglab yenni sovurib qaytardi.

Oqibat u yer islohoti davrida qo'liga kirgan uch tanobdan ortiq yerini ham boy berdi. To'g'ri, keyinchalik ikki tanobcha yerni ijaraga olib, tirikchilik qilmoqchi bo'ldi. Lekin buning ham udasidan chiqolmay, shaharga jo'nadi. Bemaslakat, hech kim bilan xayr-xo'sh qilmasdan, yuk mashinasiga narsalarini ortdi-da, izidan xotini bilan o'zi ham taksiga o'tirib jo'nadi.

– O'zini qancha taroziga solmasin, sharmandalarcha qochganini bilamiz-ku! – qishloq ahli Masixiro sha'niga shu so'zlarni aytishdi.

Kiti buni faqat ertasi kuni bildi. Yana u huvullagan uyida yolg'iz qoldi. Shu darajada yolg'iz qoldiki, Masixiro butun uyni ship-shiydon qilib ketgandi. Undan hatto Takudzo davrini ko'rgan pastak kursicha ham qolmagandi. Hali bunisi ham holva edi...

Keyinroq ma'lum bo'lishicha, ijaraga olingan yer ham Takudzoning azaliy dushmani Tatsukiriga sotilgan ekan. Uy uch yuz yetmish ming yenga garovga qo'yilgan, endilikda yangi xo'jayinlar uyni bo'shat deyaverib, Kiti bechorani holi-joniga qo'yishmasdi.

Kiti o'limligimga deb yiqqan pulini bankdan olib, qo'shni Tatsukiriga ming tavallo bilan ijara huquqini qayta tikladi.

Boshqa qarzlardan qutulish uchun Kiti muttasil uch yil sholi maydonida mehnat qildi.

Ikkinchi o'g'il ham xudobexabar chiqdi. U bezorilar to'dasiga tushib qolgan, bironing hayotiga tajovuz qilganlikda ayblanib, hibsga olingandi. Uchinchi o'g'il Tokioda haydovchi bo'lib ishlar, topganini ichib yashardi. Faqat kenja o'g'ilgina hozircha ximchistikada beg'alva ishlab turardi.

Bu orada Masixiro televizor savdosi bo'yicha dallol bo'lib ishlay boshladi. Ammo u hamon o'zgalar haqqini o'zlashti-

rish dardidan xalos bo'lmagandi. Bu dard uni endigi safar sud idorasiga yetaklab keldi. Shahardan sud ijrochisi kelib, uying bahosini chiqardi. Hakam bolg'achasi stolga urildi. Qanchalar beshafqatlik bo'lib tuyulmasin, uyni olaman degan talabgorlar Kitining qo'shnilari orasidan ham chiqib qoldi. Kim oshdi savdosi shu qadar qizg'in o'tdiki, odamlar o'zlarini yo'qotish darajasigacha bordilar. Kiti qaltiragancha bo'layotgan ishlarni jim kuzatishdan boshqa chora topmadi. Uning butun umriga zomin bo'lgan, ikki qavatli, bir parcha yerga ega bo'lgan uyi uch yuz yetmish ming yenga baholandi. O'sha, dushman hisoblanmish qo'shni Tatsukiri, uying qonuniy xo'jayiniga aylandi.

Uyi yongandan keyin uzoq vaqlar zax omborxonada, qashshoqlikda yashagan Tatsukiri urushdan keyin chayqovchilik orqasidan boyib ketdi. O'ziga hashamatli uy qurdi. Cho'chqachilik bilan shug'ullanib, ishlari yurishganda yurishdi. Tatsukiri Kitining uyini ham cho'chqaxona qilmoqchi, ishini bundan-da rivojlantirmoqchi edi.

Kiti yana qo'shnisi oyog'iga yiqilishga majbur bo'ldi. Hatto bu safar marhum Takudzo ruhini o'rtaga solib yalindi. Shundan beri Kiti yangi – uch yuz yetmish ming qarzini uzish uchun mehnat qiladi. Qizlari uni yo'ldan qaytarmoqchi bo'lishadi. Masixironing fe'li ayonligini, u yangi hunar chiqarsa, barcha toat-ibodati bir pul bo'lishini aytishadi. Kiti esa ularga quloq solmaydi.

O'tgan yili sholi dalasidan olingan yigirma bir qop hosilning yigirma qopini Kiti qo'shni Tatsukiriga eltib berdi. Qopini olti ming yendan hisob qilganda, u bir yuz yigirma ming qarzidan qutuldi. Kiti o'zi uchun bir qop guruch qoldirdi. Axir Kiti hamon daladan bo'sh paytlarida mardikorchiilik qiladi-da. Mardikor ahliga esa kuniga ikki mahal ovqat berishadi.

„Oh, Kiti, Kiti biz hech qachon nomimizga dog' tushirmadik. Yoshligimizdan beri ko'rganimiz qora mehnat, ammo...“ shu o'ylar og'ushida Tome yana tong arafasida o'g'li Natsuoni tush ko'rish uchun uyquga ketadi. Yana uning qarshisida olis Leyte dengizi paydo bo'ladi. U yana o'g'li Natsuo tomon otill-

moqchi bo'lib qichqiradi: „Nafaqangiz kerakmas, menga Natsuoni qaytaringlar, o'g'limni qaytaringlar!!!“

Tome hayotida Leyte dengizini ko'rmagan, umuman haqiqiy dengiz qanaqa bo'lishini bilmaydi ham. Bularning barisi Tome biror marta ham qoldirmay, nafasini ichiga yutib ko'radigani, Janubiy dengiz janglaridan hikoya qiluvchi kinofilmlarning ishi bo'lsa kerak.

Tome tasavvurida Leyte dengizi bepayon, so'ngi yo'q va har safar neft quyqasi bilan qoplangan bir tarzda jonlanadi. Dengiz ustida na osmon, na oy va na biror yulduz bor. To'lqinlar suron solib charx uradi. Tepa tarafdin yomg'ir desa yomg'irga, kul desa kulga o'xshamagan nimadir yog'adi. Tome biladiki, bu dengiz qancha kemalarni yutib yuborgan. Suvda boshqa odam zoti ko'rinmaydi. Faqat uning Natsuosi, so'nggi kuchini sarflagancha, bu hududsiz kenglik aro yolg'iz suzib ketayotgan bo'ladi...



## MUNDARIJA

Nashriyotdan .....	3
<b>Dino BUTSSATI.</b> „Ikar“ .....	5
<b>Tatsudzo ISIKAVA.</b> Yuzini yo‘qotgan odam.....	11
<b>Dino BUTSSATI.</b> Eynshteyn bilan iblisvachcha.....	45
<b>Abe KABO.</b> Bolalar xonasi.....	52
<b>Latsuko TAKAXASI.</b> Kapalak mavsumi.....	69
<b>Edgar PO.</b> Baqacha.....	108
<b>Sey KUBOTA.</b> Olis Leyte dengizi .....	119

*Adabiy-badiiy nashr*

DINO BUTSSATI

**EYNSHTEYN BILAN  
IBLISVACHCHA**

*Hikoya va novellalar*

Tarjimon:

**Uzoq JO'RAQULOV**

„Ziyo nashr“ nashriyoti

Toshkent – 2020

Muharrir	<i>Abdurahmon Jo'rayev</i>
Badiiy muharrir	<i>Nasiba Ergasheva</i>
Musahhih	<i>Gulandom Umarova</i>
Sahifalovchi	<i>Habibulloh Haydarov</i>

Nashriyot litsenziyasi AA № 0008, 29.03.2019  
06.04.2019da bosishga ruxsat etildi. Qog'oz bichimi 84x108 <sup>1/32</sup>.  
Ofset qog'oz. „Times“ garniturasida ofset usulida bosildi.  
Shartli bosma tabog'i 7,56. Adadi 5000. Shartnoma № 78–20  
Buyurtma raqami 338-20.

„Ziyo nashr“

Mas'uliyati cheklangan jamiyat  
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 23-mavze, 42-uy.

«Credo Print» MChJ  
Kitob fabrikasida chop etildi  
Toshkent sh., Bog'ishamol k. 160.  
Tel.: 71 234-44-01/05  
[www.credoprint.uz](http://www.credoprint.uz)

DINO BUTSSATI

# EYNSHTEYN BILAN IBLISVACHCHA

Italiyalik yozuvchi, jurnalist va rassom Dino Butssati 1906-yilning 16-oktabrida tugʻilgan. 1928-yilda huquqshunos diplomini oladi. Shu yili Milandagi "Korrere dela Serra" gazetasiga ishga kiradi.

1930-yilda Dino Butssatining birinchi romani eʼlon qilinadi. Shundan soʻng yozuvchining "Sevgi", "Eynshteyn bilan iblisvachcha" nomli asarlari hamda novellalarini nashr qilinadi.

Yozuvchi 1972-yilda Milanda saraton kasalligidan vafot etadi.



ZIYO NASHR



[t.me/ziyonashr](https://t.me/ziyonashr)



[fb.com/ziyo.nashr](https://fb.com/ziyo.nashr)



[ziyonashr@mail.ru](mailto:ziyonashr@mail.ru)



ISBN 978-9943-6340-2-2

